

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

**Жаҳон иқтисодий ва ижтимоий географияси.
II-qism. (Dunyoning regional tavsifi)**

Ma'ruzalar matni.

Termiz 2007

Ushbu ma'ruzalar matnida Jahonning yirik regionlari (Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Afrika, Avstraliya)da joylashgan iqtisodiy rivojlangan va boy mineral xomashyo hamda aholi salohiyatiga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy geografik tavsifi atroflicha o'rganilgan.

Ma'ruzalar matni geografiya bo'limining bakalavr (5440500) yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muxarrir: dos. Q. Allanov.

Tuzuvchi: kat.o'qt. g.f.n. X.Abdunazarov.

Taqrizchi: kat.o'qt. X.Niyozov.

2007 yil 30 avgust kuni Tabiiyot-geografiya fakulteti ilmiy kengashining 1 sonli yig'ilishida tasdiqlangan

Fakultet dekani

dots. B. Xoliqnazarov

2007 yil 29 avgust kuni geografiya kafedrasining 1 sonli yig'ilishida muxokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

dots. Q. Allanov

1. MAVZU: GERMANIYA (GFR).

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoat tarmoqlari.
 - B) Qishloq xo'jaligi.
 - V) Transporti.
6. Tashg'qi iqtisodiy aloqalar.

Maydoni-357 ming km²

Aholisi- 82,2 mln. kishi (2003)

Poytaxti - Berlin

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Germaniya Markaziy Yevropada joylashgan. Mamlakat quruqlik orqali Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Shveysariya, Avstraliya, Chexiya, Polsha va Daniya bilan chegaradosh. Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishida uning siyosiy va iqtisodiy geografik o'rni muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatning Yevropa markazida joylashgan o'rni va iqtisodiy rivojlangan davlatlar orasida kenglik va meridional yo'nalishda transevropa magistral yo'lining kesib o'tganligi katta qulayliklarni yaratadi. Germaniyaning dengiz bo'yi o'rni va qo'shni davlatlar yirik shahar portlariga yaqinligi (Rotterdam, Antperven va boshqalar) uning katta imkoniyatlaridan biridir.

Germaniyani shimoldan Boltiq va Shimoliy dengiz suvlari o'rab turadi. Ushbu dengizlarda uning Niderlandiya, Belgiya, Fransiyaning yirik portlaridan keyinda turuvchi Gamburg, Bremen, Vilgelmsxafen, Rostok kabi portlari joylashgan.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Mamlakatda rudali foydali qazilmalar o'rtacha balandlikdagi tog'larda, neft va tabiiy gaz esa Shimoliy Germaniya pasttekisligida topilgan. Germaniya G'arbiy Yevropa mamlakatlar orasida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir zahiralari bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Toshko'mirning asosiy konlari Rur, Saar va Axensk hovzalarida joylashgan. Ko'mir zahiralarning $\frac{2}{3}$ qismi yuqori sifatli kokslanuvchi ko'mirdir.

Mamlakatda topilgan qo'ng'ir ko'mir zaxiralarning katta qismi (80 mlrd.t.). Sharqiy Germaniyaning (Lauzis va O'rtagerman hovzasi)da, G'arbiy Germaniyada esa Kyolndan g'arbdagi (Qo'yireyn) hovzalairda joylashgan. Qo'ng'ir ko'mir ochiq usulda qazib olinadi. Tabiiy gaz konlari esa (340 mlrd m³) mamlakatning shimolida joylashgan. Germaniya temir ruda zahiralari ham ega, lekin uning sifati past. Shimoliy Germaniya pasttekisligida tosh tuzining katta zahiralari topilgan. Shuningdek oyna sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarishi uchun xom-ashyo resurslarining katta zaxiralarga ega.

Germaniya iqlim sharoiti aholi yashashi va xo'jalik yuritishi uchun qulaydir. Mamlakat mu'tadil zonada joylashgan. Qishning sovuqligi dengiz qirg'oqlaridan uzoqlashgan sari oshib boradi, lekin kuchli sovuq kunlar kamdan-kam bo'lib turadi.

Yuqori Reyn va uning irmoqlari vodiylarida (Mozel, Nae, Mayn) issiqsevar o'simliklar yetishtiriladi. (uzum va mevalar).

Mamlakatdagi eng yirik daryolarga Reyn, Elba, Vezer, Ems (Shimoliy va Boltiq dengizi hovzasi) va Dunay (Qora dengiz hovzasi) kabi daryolar kiradi.

3. Aholisi.

Ikkala german davlatining birlashuvidan keyin mamlakat aholisi soni ancha o'sdi ya'ni 80 mln kishiga yetdi. Mamlakat aholisi tabiiy ko'payishda o'limning tug'ilishga nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. (Ayniqsa sharqiy yerlarda) Aholining o'rtacha zichligi har 1km²ga 200 kishidan ortadi.

Germaniya aholisining umumiy soni immigrant oqimlar hisobiga o'smoqda. (Turkiyadan, sobiq Yugoslaviya respublika laridan, Italiya, Portugaliya va boshqa mamlakatlardan). Mamlakatning birlashuviga qadar uning g'arbiy yerlarida 5 mln atrofida, sharqiy qismida esa-0,2 mln chet ellik immigrantlar bo'lgan. Hozirgi vaqtda ularning soni 7mln kishiga yetadi.

Germaniyada davlat tili-nemis tili hisoblanadi.

Mamlakatning asosiy dini-xristian dini hisoblanadi. Mamlakatda taxminan 58mln kishi e'tiqod qiluvchilardan 30mln kishi protestantlar, qolgan 28 mlni kishi katoliklar sanaladi. Bundan tashqari mamlakatda islom diniga e'tiqod qiluvchilar ham bor.

Mamlakat aholisining 87 foizi shaharlarda yashaydi. Ko'pgina shaharlar aglomerasiyalar yadrosini hosil qilgan, lekin aholisi 1mln dan ortiq shaharlar unchalik ko'p emas (Berlin, Gamburg, Myunxen).

4. Davlat tuzumi.

Germaniyaning hozirgi chegaralari 1990 yilning oktabrida ikkala GFR va GDR davlatlarining birlashuv yo'li bilan tashkil topdi. Natijada birlashuv jarayonidan keyin GFR hududi 47 foizga ko'paydi. Aholisi esa 27 foizga o'sdi.

GFR parlament respublika.

Davlat boshlig'i-prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni aholi to'rt yil muddatga saylaydigan bundestak yer hukumatlari a'zolaridan tayinlanadigan bundestrt (yer palatasi) amalga oshiradi. Ijro etuvchi hokimiyat federal kansler boshliq hukumatga tegishli.

Mamlakatda to'rtta yirik siyosiy partiya mavjud. Bularga: Xristian, Demokratik Ittifoq, Xristian Sosial Ittifoq, Erkin Demokratik Partiya va Germaniya Sosial-Demokratik Partiyasi faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari Germaniyada Yashillar va kommunistik partiyalar ham faoliyat yuritadi.

5. Xo'jaligi.

Hozirgi Germaniya dunyoda eng rivojlangan mamlakatlardan biridir. Mamlakat sanoat ishlab chiqarishi va yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha faqat AQSH, Yaponiya va Xitoydan keyinda turadi. Tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi.

Germaniya sanoati Yevropa va jahon bozorida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvida muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi Germaniya xo'jaligining tarmoq va hududiy tarkibi rivojlanishida GFR va GDR davlatlarining qirq yillik bo'linishi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat birlashuvidan keyin Sharqiy yerlarda xo'jalikni rivojlantirish muammolari sezilarli kuchaydi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish pasayishi ro'y berdi.

Shuningdek ijtimoiy muammolar vujudga keldi. (shu jumladan ishsizlik). GFRda xo'jalikni rivojlantirish darajasiga ko'ra hududiy nomutanosibliklar kuchaydi. Shunday qilib 1994 yilda Germaniya aholisi 20 foiz aholisi yashovchi sharqiy yerlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bor yo'g'i 4 foizni tashkil etdi.

A) Sanoati. Mamlakat sanoat tarmoqlar tarkibida qayta ishlash sanoati hissasi juda yuqori. (Qazib chiqarish sanoati xissasi g'arbiy yerlarda 2 foiz, sharqiy yerlarda esa 9 foizni tashkil etadi). Germaniyada bir qancha qazib chiqarish (temir ruda, mis rudasi, uran rudasi) tarmoqlari o'z faoliyatini amalda to'xtatgan. So'nggi yillarda import asosida olib kelinadigan arzon xom-ashyo istemolning o'sish hisobiga ko'mir sanoatida toshko'mir qazib chiqarish keskin qisqarmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatda fan-talab tarmoqlar hissasi oshib bormoqda. Germaniya stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlari avtomobillar, organik ximiya mahsulotlari eksport qilish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. GFR dagi barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporasiyalar hisoblanadi. (Daimler-Benz, Volkswagen, Siemens, Hoechst, Bayer).

Energetika sanoati o'zining yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojining yarmidan ortig'ini import hisobiga ta'minlaydi. Germaniya yoqilg'i-energetika balansida neft va tabiiy gaz muhim rol o'ynaydi. Ko'mir hissasi esa 30 foizni tashkil etadi. Neft mamlakatga neft quvurlari va tankerlar orqali Shimoliy dengiz, Rossiyadan, Afrika mamlakatlari (Nigeriya, Liviya) va Fors qo'ltig'i mamlakatlaridan tashib keltiriladi. Neftni qayta ishlash zavodlari mamlakat bo'ylab bir tekis joylashgan bo'lib, uning Gamburg, Kyoln, Karlsrue, Ingolshtadt, Shvedt kabi yirik markazlari ishlab turibdi.

Gaz sanoati Niderlandiyadan, Shimoliy dengizdagi Norvegiyaga qarashli konlardan, Rossiyadan va mahalliy konlardan qazib olinadigan tabiiy gazlarga tayanadi. 1950 yillarga kelib mamlakatda toshko'mir qazib chiqarish 152 mln tonnaga yetkazilgan edi. O'sha davrlarda toshko'mir sanoati energetik sanoatining asosini tashkil etgan edi. So'nggi yillarda ushbu sanoatda toshko'mir qazib olish qisqarib bormoqda. Natijada Germaniya eng ko'p ko'mirni eksport qiluvchi mamlakatlardan eng ko'p ko'mirni import qiluvchi mamlakatga aylandi. (Jahon bozorida ko'mir Germaniya ko'miriga nisbatan 3-4 marta arzon). 1994 yilda mamlakatda ko'mir qazib chiqarish 57,6 mln tonnagacha kamaydi. Germaniyaga ko'mirning katta qismi AQShdan, Polsha, JAR va hatto Avstraliyadan tashib keltiriladi. G'arbiy Germaniya birlashuviga qadar qo'ng'ir ko'mir qazib chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropada birinchi, Sharqiy Germaniyada esa dunyoda oldingi o'rinlarni egallagan. (Hozirgi vaqtda 250 mln tonnadan ortiq ko'mir qazib chiqarilmoqda).

GFRda asosan elektro energiya issiqlik elektrstansiyalarda ishlab chiqariladi. Mamlakatda issiqlik elektrstansiyalar Rur va Saar hovzalari va port shaharlarida ko'mirga tayanib, ishlamoqda shimolda esa tabiiy gazga, neftni qayta ishlash markazlarida esa mazutga tayanib ishlaydi. AESlarda esa elektroenergiyaning 30 foizi ishlab chiqarilmoqda. GESlar asosan mamlakatning janubida qurilgan. (tog' daryolarida).

Qora metallurgiya sanoati- Germaniyaning eng muhim ixtisos lashgan tarmog'idir.

Mamlakat cho'yan, po'lat quyish va prokat ishlab chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropada yetakchi o'rinda va dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Quyiladigan po'latning deyarli hammasi kislorod-konvertor va elektrpo'lat quyish usuli orqali

ishlab chiqariladi. Asosiy metallurgiya zavodlari Rur va Quyi Reynda joylashgan. Saar rayoni, Quyi Saksoniya va Bremenda to'liq siklda ishlovchi zavodlar ishlab turibdi.

Rangli metallurgiya- asosan import va ikkilamchi xom-ashyo asosida ishlaydi. Rangli metallurgiya korxonalarining joylashuvida energiya resurslari bilan yetarli ta'minlanganligi va xom-ashyoni tashib keltirishning qulayligi bosh omil hisoblanadi.

Germaniya alyuminiy quyish bo'yicha G'arbiy Yevropada faqat Norvegiyadan keyinda turadi. Asosiy korxonalar Shimoliy Reyn-Vestfaliya. (Essen, Norf, Fyorde), shuningdek Gamburg va Bavariya (Tyoging) yerlari hududlarda joylashgan.

Mashinasozligi va metallni qayta ishlash sanoati- Germaniyadagi eng rivojlangan sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat mashinasozlik sanoatiga jami sanoat mahsulotlari va eksportning yarmiga yaqini to'g'ri keladi. Shu bilan birga jami mashinasozlik mahsuloti eksport hajmida 40 foizni tashkil etadi. Mamlakatda mashinasozlikning Myunxen, Nyurnberg, Erlangen bilan Mangeym, Berlin, Leypsig, Gamburg kabi yirik markazlari shakllangan. Mamlakat federal yerlar orasida Baden-Vyurtemberg va Shimoliy Reyn-Vestfaliyada umumiy mashinasozlik ishlab chiqarishi rivojlangan. Elektrotexnika tarmoqlarining rivojlanishida Bavariya yetakchilik qiladi. Shuningdek mamlakatda mashinasozlikning Myunxen (Siemens konserni), Berlin, Shtutgard, Kyoln, Gamburg, Frankfurt-Mayn kabi yirik markazlari ishlab turibdi. Germaniya avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Yaponiya va AQShdan keyinda turadi. Avtomobillarni «Folksvagen», «Mersedes Bens», «BMV», «Ford Verke», «Opel» firmalari ishlab chiqaradi. Mamlakatda mashinasozlikning Volfsburg, Shtutgart, Kyoln, Ryusselsxaym, Myunxen kabi yirik markazlari shakllangan.

Mamlakatda dengiz kemasozligining asosiy markazlari Kil, Gamburg, Bremen, Emden, Rostok daryo kemasozligining markazi Duysburg hisoblanadi.

Germaniyada optika-mexanika sanoati korxonalari Boden-Vyurtemberg va Tyuringiya yerlarida joylashgan. Aerokosmik sanoatning yirik markazlari-Myunxen, Augsburg, Gamburg va Bremenda joylashgan.

Ximiya sanoati.

Shimoliy Reyn-Vestfaliya yeri Germaniya ximiya sanoatining bosh rayoni hisoblanadi. (jami ximiya sanoati mahsulotining 40 foizi to'g'ri keladi). Mamlakatda ximiya sanoatining Leverkusen (Vauyer konserni), Kyoln, Dormagen, Frankfurt-Mayn (Hoechst konserni), Lyudvigxafen (BASF) kabi yirik markazlari shakllangan. Sharqiy yerlarda esa (Germaniya birlashuvidan keyin) ximiya sanoati chuqur iqtisodiy krizis holatiga tushib qoldi.

B) Qishloq xo'jaligi.

Germaniya qishloq xo'jaligida o'z hududining 50 foizidan foydalanadi. Biroq ushbu tarmoqning mamlakat yalpi ichki mahsulotlar hissasida faqat 1 foizni tashkil etadi. (mahsulot qiymati bo'yicha)mamlakat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan jami mahsulotning 60 foizini chorvachilik sohasi beradi. Mamlakat chorvachiligining yetakchi sohalari yirik qoramolchilik va cho'chqachilik sohalari hisoblanadi.

Germaniyada ekin maydonlar mamlakat maydonining 35 foizini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlariga nisbatan yem-xashak ekin maydonlar katta maydonlarni egallaydi. Shunga qaramay mamlakatda yem-xashak ekinlar katta miqdorda chetdan import qilinadi.

Donli ekinlar mamlakat g'arbiy yerlarida haydaladigan yerlarning $\frac{3}{5}$ qismini, sharqda esa $\frac{1}{2}$ qismini egallaydi.

Qishloq xo'jaligida bug'doy asosiy oziq-ovqat ekini hisoblanadi, lekin Germaniya javdar, suli, arpa yetishtirishda Yevropada alohida ajralib turadi.

Pivo ishlab chiqarish uchun arpaning bir qancha sortlari yetishtiriladi. Germaniya o'zini donli oziq-ovqat ekinlari bilan to'la ta'minlaydi.

Bovariyada katta maydonlarda xmel yetishtiriladi. Bundan tashqari mamlakatda kartoshkachilik va qand lavlagi yetishtirish muhim o'rin tutadi. Reyn daryosi va uning irmoqlari bo'ylab (mamlakatning g'arbiy rayonlarida) uzumchilik va bog'dorchilik yo'lga qo'yilgan.

V) Transport tarmoqlari.

Germaniya transporti yo'llarining zichligi bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatning asosiy transport turini temir yo'llar tashkil etadi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 44 ming km atrofida bo'lib, shundan jami temir yo'llarning $\frac{2}{5}$ qismi elektrlashtirilgan.

Jami tashiladigan yuk aylanmasida **avtomobil transportining** hissasi 60 foizni, **temir yo'l transportiga** 20 foiz, daryo transportiga 15 foiz to'g'ri keladi. Yo'lovchi tashish aylanmasida esa avtomobil transportining hissasi yanada yuqori ya'ni 90 foizni tashkil etadi.

Germaniyada ichki suv yo'llarining uzunligi 7 ming km atrofida. Mamlakatning Reyn daryosidagi xalqaro magistral suv yo'lida ko'plab yirik portlar joylashgan bo'lib, unda yillik yuk aylanmasi 50 mln tonna bo'lgan dunyodagi eng yirik daryo porti-Duysburg joylashgan.

Germaniya kemalarda konteynerlarda yuk tashish tonnaji bo'yicha dunyoda AQSH, Panama va Tayvandan so'ng 4-chi o'rinda turadi. Germaniya dengiz portlari yuk aylanmasi hajmiga ko'ra yevropa mamlakatlarning yirik portlaridan keyinda turadi. Mamlakatda Gamburg, Vilgelmsxafen, shuningdek Bremen, Emden, Rostok kabi yirik portlar ishlab turibdi.

Havo transporti dengiz transporti kabi mamlakat tashqi aloqalarida muhim rol o'ynaydi. Barcha savdo yarmarka markazlari mamlakat aeroportlarida joylashgan.

Germaniyada jami 16 ta xalqaro aeroportlar bo'lib, shu bilan birgalikda Frankfurt aeroporti yuk aylanmasi bo'yicha Yevropada birinchi, yo'lovchi tashish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Germaniya tashqi savdo umumiy hajmi bo'yicha dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. (1994) yilda 767,7 mlrd dollarni tashkil etdi). GFR tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlangan mamlakatlar bilan birinchi navbatda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan olib boradi. Ularga tashqi savdo aylanmasining 50 foizi va chetga chiqariladigan kapitalning asosiy qismi to'g'ri keladi. Yevropaning ko'pgina mamlakatlari uchun Germaniya bosh savdo sherik hisoblanadi. Elektronika sanoatida «Simens» avtomobilsozligida esa-Daymler-Bens kompaniyalarini misol keltirish mumkin.

Mamlakat organik ximiya mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlari eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rin uchun kuchli raqobat olib bormoqda. Germaniya avtomobillar va kemalar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 3-chi o'rinni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda Germaniya mikroelektronika va kompyuterlar, aerokosmik texnikalar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keyinda turadi.

Mamlakat import tarkibida tayyor mahsulotlar hissasi yuqori, biroq xom-ashyo va yoqilg'i hissasi ham ancha yuqori. Hozirgi Germaniya uchun Rossiya neft va tabiiy gaz yetkazib beruvchi asosiy mamlakatdir, Germaniya esa Rossiya uchun mashina va jihozlar, temir yo'l vagonlari, ximikatlari va oziq-ovqat mollari yetkazib beradi.

Tayanch so'zlar:

Qulay geografik o'rin, boy ko'mir va gaz konlari, aholi soni immigrasiya, parlament respublika, bundestag, bundesrat, industrial mamlakat, iqtisodiyot tarmoqlar tarkibi (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport) tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport va import balansi.

2. MAVZU: FRANSIYA.

REJA:

1. Iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Xo'jaligi.
- A) Sanoati.
- B) Kishloq xo'jaligi.
- V) Transport tarmoqlari.
5. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Maydoni-551000 km²

Aholisi-59,8 mln. kishi (2003)

Poytaxti-Parij

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Fransiyaning iqtisodiy-geografik o'rni uchun ikkita asosiy hususiyat xosdir. Birinchisi mamlakat «EIX» ga a'zo mamlakatlar bilan bevosita chegaradosh, uning chegarasi yaqinida mamlakatning rivojlangan industrial rayonlari joylashgan. Pade de-Kale bo'g'ozi mamlakatni Buyuk Britaniyadan ajratib turadi. Ikkinchi xususiyati shuki, Fransiya sohillari Atlantika okeani va uning dengizlariga Shimoliy va O'rta dengizga tutashib turadi. Bu hol unga okean ortidagi va Yevropadagi mamlakatlar bilan arzon dengiz transporti orqali aloqa qilish uchun imkon beradi.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Mamlakatning g'arbiy va shimoliy rayonlari tekislik va past tog'lardan iborat. Markazi va sharqida o'rtacha balandlikdagi tog'lar, janubi-g'arbida Pireniya, janubi-sharqida Alp tog'lari joylashgan. Iqlimi-mo'tadil dengiz iqlimi sharqida kontinental, O'rta dengiz sohilida subtropik iqlim. Mamlakatning yirik daryolari Sena, Rona, Luara, Garanna, sharqida Reyn daryosining bir qismi oqadi. Hududning 24 foizini o'rmonzorlar tashkil etadi.

3. Aholisi.

Fransiyada aholining tabiiy o'sishi ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan rivojlanish davrida juda past bo'lgan. Bunga urush natijasida o'limning ko'pligi, kichik-kichik chek yerga egalik qiluvchi dehqonlar orasida tug'ilishning ayniqsa kamayib ketganligi va millatning asta-sekin «qarishi» sabab bo'lgan. Mamlakat mehnat resurslari to'ldirishning muhim vositasi qadimdan immigrasiya bo'lib kelgan. Fransiyada 2 mln ga yaqin immigrant ishchi bor, ular oilalari bilan birga 4 mln kishini tashkil etadi. Immigrantlarning ko'pchiligini ishchilar va kambag'al dehqonlar Shimoliy Afrikadan kelganlar, italyanlar, ispanlar va portugallar tashkil etadi. Aholining joylashuviga qishloqlardan aholining sanoat shaharlariga to'xtovsiz ko'chib kelishi ta'sir etadi. Fransiyada katta shaharlar Buyuk Britaniya va GFRdagidan ikki hissa kam. Aholi joylashuvidagi asosiy xususiyatlar shahar aholisining Parij aglomerasiyasiga nihoyatda ko'p to'planganligidir. Parijdan boshqa faqat uchta shahar aglomerasiyasida 1 mlndan aholi yashaydi. (Lion, Marsel, Lill).

4. Davlat tuzumi.

Fransiya davlat tuzumiga ko'ra respublika boshqaruvidagi mamlakat. Davlat boshlig'i prezident bo'lib, 7 yil muddatga saylanadi. Konun chiqaruvchi oliy hokimiyat organi- 2 palatali Millat majlisi va Senatdan iborat parlament. Hukumat rasman parlament oldida javobgar bo'lsa ham, ammo Prezidentga bo'ysunadi.

Mamlakat ma'muriy jihatdan 96 ta departamentga bo'linadi.

5. Xo'jaligi.

Fransiya endilikda sanoat mahsulotining hajmi jihatdan g'arb mamlakatlar o'rtasida AQSH, Yaponiya va GFR dan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi. Milliy daromadda qishloq xo'jaligining salmog'i 1\10 qismdan kamroqni tashkil etsada, u aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi va eksportda katta rol o'ynaydi.

A) Sanoati. Energetika-qisman mamlakatning o'z resurslariga tayanadi. Kazib olinadigan ko'mir mamlakat ehtiyojini qondira olmaydi, kokslanuvchi ko'mir oz va ularning konlaridan foydalanish ham qiyin. Faqat Janubi-G'arbdagi kichikroq konlardan neft qazib chiqariladi, shu sababli Fransiya chetdan juda ko'p neft keltiradi. Tabiiy gaz mamlakatning Janubi-G'arbidan qazib olinadi, gaz mamlakatga Niderlandiya va Jazoirdan olib kelinadi.

Mamlakatda atom energetikasi tez rivojlanmoqda.

Kora metallurgiya-Lotaringiya temir rudasi hovzasidagi konlardan foydalanadi. Bu yerdagi rudaning sifati past, ammo bu kamchilikni ruda zaxirasining kattaligi va rudaning uncha chuqur joylashmaganligi qoplaydi. Mamlakatda qora metallurgiyaning ikkita asosiy rayoni bor. Bular eritiladigan cho'yan, po'lat va prokatning katta qismini beradigan Lotaringiya rayoni va chetdan keltiriladigan ruda va cho'yan bilan ishlaydigan Shimoliy rayondir. Dengiz yo'li orqali chetdan keltiriladigan temir rudasi va koks bazasida Marsel porti yaqinida va Dyunkerda eng yirik ikkita metallurgiya kombinati bunyod etilgan.

Rangdor metallurgiya-O'rta dengiz sohillaridagi boksit konlari asosida rivojlanmoqda. Mamlakatning Alp va Pireneya tog'laridagi GESlar yaqinida alyuminiy zavodlari ishlab turibdi.

Mashinasozlik sanoati-butun sanoat mahsuloti qiymatining 1\3 qismidan ko'prog'ini va eksport mahsulotining asosiy qismini beradi. Ayniqsa radioelektron

apparaturalar, avtomobillar, samolyotlar, temir yo'llarning yuruvchi sostavlari va qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan.

Ximiya sanoati-xom-ashyolar yaqinida (ko'mir,tabiiy gaz, kaliy tuzlari qazib olinadigan joylarda) portlarda va GESlar yaqinida va katta shaharlar-Parij va Lionda joylashgan.

To'qimachilik sanoati-sintetik toladan to'qiladigan turli tuman yangi gazlamalari jahon bozoriga tanilgan.

B) Kishloq xo'jaligi.

Fransiyada qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli xo'jalikdir. Fransiya go'sht,sut tayyorlash,bug'doy, qand lavlagi yetishtirish jihatidan G'arbiy Yevropada birinchi o'rinda turadi. Fransiya uzum vinosi tayyorlash, pishloq navlarining soni jihatidan, shuningdek Atlantika okeanining sayoz qo'ltiqlarida urchitib ko'paytiriladigan ustrisa (yeyiladigan dengiz molyuskalari)larni yig'ish jihatidan dunyoda birinchi o'rinni egallaydi

Chorvachilik-qishloq xo'jaligi tovar mahsulotining $\frac{2}{3}$ qismini beradi. Uning yetakchi tarmog'i qoramolchilikdir. Qoramol mamlakatning Normandiya, Bretan va tog'li rayonlarida ko'p boqiladi. Bundan tashqari mamlakatda cho'chqa, parranda, quyon va kaptar boqiladi.

Dehqonchilik- don ekinlari orasida ekiladigan maydoni va hosili jihatdan bug'doy birinchi o'rinda turadi. Fransiyada bug'doy hosilining ko'p qismini Shimoliy Fransiya beradi. Mamlakatning janubi-g'arbida makkajo'xori, Rona daryosi etagidagi obikor yerlarda sholi yetishtiriladi. Texnika ekinlaridan-qand lavlagi yetishtiriladi.

Fransiya uzum yetishtirish bo'yicha Italiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. O'rta dengiz bo'yidagi pasttekisliklarda uzum yetishtiriladi. Ayniqsa mamlakatning Shampän viloyatida mashhur shampän vinolari tayyorlanadi. Janubda Nissa rayonida katta maydonlarga gul ekiladi, bulardan atir-upa fabrikalarida ishlatiladigan essensiya olinadi.

V) Transporti.

Mamlakat ichkarisida yuklarning yarmi temir yo'llarda tashiladi, lekin avtomobil transporti temir yo'l transporti bilan bemalol raqobatlasha oladi. Tashqi aloqada dengiz floti muhim rol o'ynaydi. Mamlakat poytaxti Parij shahrida yirik aeraportlar ishlab turibdi.

5) Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Importning yarmini xom-ashyo va yoqilg'i, qolgan qismini tayyor buyumlar va yarim fabrikatlar tashkil etadi. Eksportning $\frac{3}{4}$ qismi tayyor buyumlarga (taxminan $\frac{1}{4}$ qismini, mashinalar va asbob uskunalar) va qishloq xo'jalik mahsulotlariga to'g'ri keladi. Tashqi savdo asosan EIX mamlakatlariga to'g'ri keladi. Fransiya bilan O'zbekiston o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanib bormoqda.

Tayanch so'zlar.

1. Qulay geografik o'rin, immigrasiya, aholi tabiiy o'sishining pastligi, respublika boshqaruvi, sanoat va qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishi.

MAVZU: ITALIYA

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va yoqilg'i mineral resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati
 - B) Qishloq xo'jaligi
 - V) Transporti
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari
 - Maydoni**-301123 km²
 - Aholisi**-57,8 mln. kishi (2003 yil)
 - Poytaxti**— Rim

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Italiya Yevropaning janubida joylashgan uning xududi tarkibiga ko'ra 3 qismdan: materikdan(maydoning taxminan yarmi), yarim oroldan(Apenin yarim oroli) va orollardan(Sisiliya, Sardiniya va boshqa mayda orollar) iborat. Iqtisodiy-geografik o'rniga ko'ra mamlakatning O'rta dengiz xavzasining markazida ekanligi unga Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari va Janubiy Yevropani boshqa mamlakatlar bilan aloqalarini rivojlantirishga imkon bergan. Mamlakatning Fransiya, Shveysariya, Avstraliya va Solveniya bilan bo'lgan quruqlik chegaralari Alp tog'laridan o'tadi.

2. Tabiiy sharoiti va yoqilg'i mineral resurslari.

Italiya foydali qazilmalarining asosiy turlari-ko'mir, neft, temir rudasi bilan yomon ta'millangan. Tabiiy gaz, boksid, polimetall rudalarining zaxirasi ancha katta. Simob, oltingugurt, marmarga juda boy konlar bor. Italiya Yevropaning boshqa mamlakatlari orasida suv va geotermal energiya resurslarining ko'pligi jixatidan ajralib turadi. Mamlakat xududidan Po va Tibr daryolari oqib o'tadi. Italiya maydoning qariyb $\frac{1}{5}$ qismi o'rmon va butazorlar bilan qoplangan.

3. Aholisi.

Italiya aholisining soni jihatdan G'arbiy Yevropada GFRdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Italiya uchun aholining doimiy emigrasiyasi harakterlidir. Mamlakatdan har yili o'n minglab kishi ketib turadi. Aholining bunchalik ishsizlik va ishchilar ish haqqining kamligidir. Ilgari Italiya uchun emigrantlarning okeanning narigi yog'iga ketishlari harakterli. Endi urushdan keyingi yillarda «YEIX» mamlakatlariga, ayniqsa GFR bilan Fransiya vaqtinchalik va mavsumiy emigrasiya kuchaydi. Italiyaning tashqi emigrasiya savdosi (nisbatan) manfiydir. Italiya-Yevropaning aholisi zich mamlakatlaridan biri. Aholining joylashuviga urbanizasiya jarayonlarining jadal borishi ta'sir etmoqda. Italiyaning ko'p shaharlari qadimgi va o'rta asrlarda vujudga kelgan. Rim, Florensiya, Venesiya, Milan, Genuya, Baloniya kabi shaharlar alohida ajralib turadi. Italiya aholisining milliy tarkibi bir xil-italyanyanlar 98 foizni tashkil etadi. Italianlar diniy e'tiqodiga ko'ra katoliglardir.

4. Davlat tuzumi.

Davlat tuzumi va siyosiy partiyalari.

Italiya davlat tuzumiga ko'ra parlamentar respublika bo'lib, davlat tepasida prezident turadi. Prezidentning vakolat muddati 7 yil. Qonun chiqaruvchilik hokimiyati deputatlar palatasi bilan senatdan iborat bo'lgan parlamentga tegishlidir. Ijrochilik hokimiyatini vazirlar kengashi amalga oshiradi.

5. Xo'jaligi:

Ikkinchi jahon urushiga qadar sanoat ishlab chiqarilishining o'sish sur'atlari va darajasi jihatidan Italiya boshqa mamlakatlardan ancha orqada edi. Biroq 50 yillarning o'rtalaridan va 60 yillardan boshlab sanoat o'sa boshladi. Agrar-industrial mamlakat industrial agrar mamlakatga aylandi. Bunda davlatning iqtisodiyotiga faol aralashuvi katta rol o'ynaydi.

A) Sanoati

Italiya foydali qazilmalarining asosiy turlari-ko'mir, neft, temir rudasi bilan yomon ta'millangan. Mamlakatning energetikasi chetdan keltiriladigan neft, koks va ko'mirga, tabiiy gaz va gidroresurslarga tayanadi. Mamlakatda issiqlik elektr stansiyalar va Atom elektr stansiyalar (AES) ishlab turibti.

Mashinasozlik-transport mashinasozligi avtomobillar, motorollerlar, velospedlar, kemalar ishlab chiqarishi ayniqsa yuksak darajada rivojlanga.

Qora va rangdor metallurgiya- chetdan keltiriladigan temir- tersak va cho'yanga, koks, temir rudasi, legirlovchi metallarga asoslangan. Cho'yanga qaraganda po'lat ancha ko'p eritiladi. Eng yirik kombinatlar Taranto, Genuya, Neapol portlarida joylashgan. Temir-tersakni qayta erituvchi metallurgi korxonalarida katta mashinasozlik zavodlari yonida qurilgan. Elektr metallurgiyasi-po'lat va alyuminiy eritish Alp tog'laridagi GESlar yaqinida vujudga kelgan.

Kimyo sanoati-chetdan keltiriladigan neft va fosforitlarga, tabiiy gazga, oltingugurt va boshqa maxalliy xom ashyolarga asoslangan. Neft kimyosi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, neft krekingi asosida plastmassa va sintetik tola ishlab chiqarishi ayniqsa ko'paymoqda.

To'qimachilik sanoati-ip gazlamalar va sintetik tola gazlamalari ishlab chiqaradi. Bu tarmoq Milan shahri va uning atrofida to'plangan.

B) Qishloq xo'jaligi

Dehqonchilik eng katta ahamiyatga ega. Italiya uzumning yalpi hosili jihatidan dunyoda birinchi, zaytun va sitrus mevalarining yangi hosili jihatidan Yevropada ikkinchi o'rinda turadi. Sisiliya orolining sohillari apelsin va limon yetishtirishi bilan ajralib turadi. Asosiy don ekinlar-bug'doy makkajo'xori va sholi, texnika ekilaridan qand lavlagi va nasha ekiladi. Chorvachilik-nisbatan sust rivojlangan. Qoramollar Shimoliy Italiyada boqib ko'paytiriladi. Apenin, Sisiliya va Sardiniyaning yem-xashak o'simliklari kam bo'lgan tog'li rayonlarida dehqonlar qo'y, echki va xachir boqadilar.

V) Transporti

Mamlakat ichida yuk va passajir tashishda avtomobil transporti asosiy rol o'ynaydi, temir yo'l transporti ikkinchi o'rinda turadi. Temir yo'llarning elektrlashganlik darajasi jihatidan Italiya dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi.

Dengiz transporti mamlakatning tashqi aloqalarida yetakchi rol o'ynaydi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari

Italiyaning importida yoqilg'i (neft, ko'mir, koks) va sanoat xom-ashyosi (temir-tersak, paxta) ko'pchilikni tashkil etadi; Eksportida tayyor buyumlar (mashinalar,

asbob-uskunalar, gazlamalar) va meva (apelsin, limon) asosiy rol o'ynaydi. Italiya «YEIX» mamlakatlari va MDH, AQSH, Yaponiya mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni olib bordi.

MAVZU: ROSSIYA (ROSSIYA FEDERASIYASI, R.F.)

REJA

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Kishloq xo'jaligi
 - V) Transporti
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Maydoni-17074,5 ming km²

Aholisi- 147 mln. kishi

Poytaxti- Moskva

1. Iqtisodiy geografik o'rni.

Rossiya Federasiyasi hududining kattaligiga ko'ra yer sharidagi eng yirik mamlakatdir. Mamlakat Yevrosiyo materigining shimoliy qismida joylashgan. Rossiya Yevropa qismi Sharqiy Yevropa tekisligining katta qismini, Kavkazoldi va Katta Kavkaz tog'larining shimoliy tizmalarini va Ural tog'larini o'z ichiga oladi. Rossiyaning Osiyo qismiga esa Sibir va Uzoq Sharq rayonlari kiradi.

Mamlakat hududi shimoldan janubga ayniqsa g'arbdan sharqqa (9 ming km) katta masofaga cho'zilgan. Rossiya hududining deyarli barcha qismi sharqiy yarim sharda joylashgan. Faqat Vrangel oroli va Chukotka yarim oroli g'arbiy yarim sharda joylashgan.

Rossiya chegaralarining umumiy uzunligi dunyoda eng katta bo'lib, u 58,6 ming kmni tashkil etadi, bunda dengiz chegaralari quruqlik chegaralaridan ikki marta uzun.

Mamlakatning shimoliy chegaralari to'la Shimoliy Muz okeani dengiz suvlari bo'ylab o'tgan. Sharqiy chegaralar esa Tinch okeani dengiz suvlari bo'ylab o'tgan. Bu yerda Rossiya dengiz suvlari orqali yaqin qo'shinlari AQSH va Yaponiya bilan chegaradosh.

Mamlakat g'arbda ham dengiz chegaralariga ega. Bu yerda Baltika dengizi suvlari Rossiyani Yevropa davlatlari bilan bog'lab turadi. Janubi-g'arbda esa Rossiya dengiz chegaralari qora va Azob dengizi suvlari bo'ylab o'tgan. Mamlakatning yaqin xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan dengiz chegaralari Kaspiy dengizi suvlari orqali o'tgan.

Rossiya Federasiyasining quruqlik chegaralari ham katta masofalarga cho'zilgan. (20 ming kmdan ortiq) Sobiq SSSR parchalangandan so'ng Rossiya bilan qo'shni bo'lgan davlatlar soni o'zgarmasdan qolaverdi, ularning soni 16 ta bo'lib dunyoning istalgan mamlakatlaridan oldinda turadi.

Rossiya shimoli-g'arbda quruqlik chegaralari orqali Norvegiya va Finlandiya va Estoniya, Latviya, Litva davlatlari (1000 km) bilan chegaradosh. G'arbiy chegaralar Belarussiya va Ukraina davlatlari bilan janubda esa Gruziya, Ozarbayjon va

Qozog'iston (eng uzun chegara-7 ming km dan ortiq) davlatlari bilan chegaralanadi. Shundan so'ng chegara Mongoliya va Xitoy bilan, janubi-sharqda esa Primorye o'lkasi orqali Rossiya Federasiyasining 17 km li masofada Koreya xalq Demokratik Respublikasi bilan davlat chegarasi o'tgan.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Rossiya hududining $\frac{3}{4}$ qismini tekisliklar egallaydi. Mamlakat hududini 3 ta yirik Sharqiy Yevropa O'rta Sibir yassi tog'ligi va G'arbiy Sibir tekisliklari kabi katta maydonlarni egallaydi.

Rossiya foydali qazilma konlarga boy mamlakatdir. Mamlakat temir ruda zaxiralariga boy, ayniqsa Kursk magnit-analiyasi (KMA)da rayonida sifatli temir rudasi ochiq usulda qazib olinmoqda. Xilma xil metal va nometall rudalar Kola Yarim orolidagi Baltika qalqoniga to'g'ri keladi. (Xibin tog'larida).

Ural rayonidagi temir ruda konlari zaxiralari tugab borayotgan bo'lsada, u mamlakatning temir ruda qazib chiqaruvchi asosiy rayonlardan biri bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari Sibir va Uzoq Sharq rayoni ham temir rudalariga boydir.

Mis rudasi konlari asosan Uroldan Kola yarim orolida, shuningdek Janubiy Sibir tog'larida joylashgan. Sharqiy Sibir rayonida esa mis-nikel, kabalt, platina konlarining ishga tushirilishi bilan yirik Norilsk shaxri qad ko'tardi.

Sibir rudali va norudali foydali qazilma konlariga boy region hisoblanadi. Aldan qalqonida oltin, temir rudasi, slyuda, asbest va bir qancha nodir metallarning zaxiralari aniqlangan va ishga tushirilgan. Saha-YOqitistonda olmosni sanoat asosida qazib olish yo'lga qo'yilgan. Qalay rudasi zaxiralari esa Sibir va Uzoq Sharqning turli rayonlarida topilgan.

Qo'rg'oshin-rux va volfrom, molibden kabi rangli metal konlari Ural va Kavkaz tog'larda aniqlangan.

Mamlakatda ximiya sanoati xomashyosi xisoblangan bir qancha Leningrad viloyatidagi Kingisep va Kama-Vyatka fosforit konlari, Elton, Basqunchoq, Qulunda kulidagi osh tuzi, Yuqori Kamaning Solikamsk, Berezniqi kali tuzi konlari aniqlanib ishga tushirilgan.

G'arbiy Sibirning janubida toshko'mirning katta zahiralari aniqlangan. Kuznesk Olatovi tog'ida katta zahiraga ega bo'lgan Kuznesk toshko'mir hovzasi joylashgan. Aynan ushbu hovza Rossiyada kuchli o'zlashtirilgan.

Rossiyaning janubi-g'arbiy qismida Donesk ko'mir hovzasi joylashgan. (Hovzaning katta qismi Ukraina hududida joylashgan). Mamlakatning shimoliy-sharqiy yevropa qismida Pechara toshko'mir hovzasi (Vorkuta, Inta) joylashgan. Rossiyaning O'rta Sibir yassi tog'idagi Tingusska hovzasi shuningdek Saxa YOqutistonning lena hovzasida toshko'mirning katta zahiralari topilgan, biroq kon joylashgan hududlarning tabiiy sharoitining qattiqligi tuo'ayli ushbu konlardan amalda foydalanilmayotir. Rossiya yirik qo'ng'ir ko'mir konlari topilgan. Jumladan Krasnayarsk o'lkasidagi Kansk-Achinsk hovzasi, Moskva yoni qo'ng'ir ko'mir koni va Sibirdagi istiqbolli konlar shular jumlasidandir.

Rossiyada neft XIX asrning oxirida Shimoliy Kavkazdan qazib olina boshlandi. 1940 yillarga kelib Volga bo'yi va Ural oldi rayonlarida neft va gaz konlarini o'zlashtirishi boshlandi, keyinchalik esa Rossiya Yevropa qismining shimoliy sharq qismidagi Timan-Pechora neft gazli provinsiyasidagi konlar o'zlashtirildi. Faqat 1960

yillarga kelib G'arbiy-Sibir hovzasidagi neft va gaz konlari jadal sur'atda o'zlashtirilishi natijasida mamlakatda neft va gaz qazib olish hajmining keskin oshishiga olib keldi. Bu yerdan neft va gaz quvurlar yordamida Rossiyaning iste'molchi rayonlariga va MDH shuningdek Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yuboriladi.

Neft konlari Saxa-Yoqutiston respublikasida ham topilgan, uni qazib olishi Saxalin orolida ham olib borilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatning Berens dengizi shelyefida tabiiy gaz, Qora dengizi shelyefida gaz kondensati, Pechoragubasi shelsfidan esa neftning yangi konlari ishga tushirildi.

Rossiya o'rmon resurslari zahiralari bo'yicha dunyoning istalgan mamlakatidan oldingi o'rinda turadi, biroq o'rmon resurslaridan foydalanishi darajasi bo'yicha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan orqada qolmoqda.

Rossiya katta yer resurslariga ega bo'lib, yer shari quruqligining $\frac{1}{7}$ qismini tashkil etadi. Biroq unumdor qishloq xo'jaligi yerlari (haydaladigan pichanzorlar va yaylovzorlar) jami yer maydonining 13 foizini egallaydi xolos. (haydaladigan yerlar- 8 foizni tashkil etadi). Mamlakatning Tundra zonasi yaylov bug'ichiligi tarqalgan.

Rossiya katta chuchuk suv zahiralari ega. Mamlakat hududida 2,5 mlnta daryo va 3 mlnta ko'l bo'lib, ular orasida dunyodagi eng katta Kaspiy va eng chuqur chuchuk ko'l Baykal ko'li joylashgan. Daryolar uch okean hovzasiga qarashli, shuningdek Kaspiy ko'li ichki oqimsiz hovzaga qarashlidir.

Rossiya hududining katta qismini ko'p yillik muzloq yerlar egallagan. Muzloq yerlarning maydoni 11 mln km²ni tashkil etadi. Abadiy muzloq yerlar ko'p ming yil ilgari hosil bo'lgan. Muzloq qatlamlar qalinligi janubda bir necha yuz metrga yetadi.

3. Aholisi

Rossiyaning bir qancha arktika rayonlaridan tashqari barcha hududlarida aholi joylashuvi mamlakat bo'yicha notekisdir. Mamlakat bo'yicha aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 8,5 kishi to'g'ri keladi. (Rossiyaning) yevropa qismida 1 km² ga 27 kishi Osiyo qismida esa 2 kishi to'g'ri keladi. Mamlakatning Markaziy Rossiya qismida aholining eng yuqori zichligi kuzatiladi.

Rossiya Federasiyasi aholi soni 2003 yilning boshlarida 145,5 mln kishini tashkil etadi. Rossiya demokratik rivojlanishning hozirgi hozirgi bosqichi uchun aholi tug'ilishi va tabiiy ko'payishning kamayishi harakterlidir.

Rossiyada mehnatga layoqatli yoshdagilar aholining 55 foizini tashkil etadi. Mamlakat xalq xo'jaligida 70 mln ga yaqin kishi band bo'lib, bu jami aholining 48 foizini tashkil etadi. So'nggi yillarda aholi ishsizlar soni o'sib bormoqda. Aholining bilim darajasi yuqori.

Rossiyada shahar aholisi hissasi 73 foizni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda mamlakatda 13 ta millioner shaharlar va 20 dan ortiq aholisi 500 mingdan 1 mlngacha bo'lgan shaharlar bor. Aholisi 1 mlndan ortiq bo'lgan shaharlarga: Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Novosibirsk, Qozon, Volgograd, Omsk, Perm, Rostov-Don, Samara, Yekaterinburg, Ufa, Chelyabinsk kabi shaharlar kiradi. So'nggi yillarda Rossiyaning Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Yekaterinburg, Samara va Nobosibirsk shaharlari atrofida shahar aglomerasiyalari shakllangan.

Mamlakatda qishloq tipidagi manzilgohlarga qishloqlar, xutorlar, stansiyalar, ovullar va ovchi va bug'u boquvchilarning vaqtincha yashovchi joylari kiradi. Rossiyada qishloq aholisining o'rtacha zichligi 1 km²ga taxminan 2,2 kishi to'g'ri keladi. Mamlakatda eng yuqori qishloq aholisi zichligi Rossiyaning janubiy rayonlari va Shimoliy Kavkazda kuzatiladi.

Rossiya aholisining milliy tarkibi juda xilma-xil bo'lib, mamlakatda 100 dan ortiq millat va xalqlar yashaydi. Aholining ko'pchilik qismini ruslar ya'ni jami aholi salmog'ida 80 foizni tashkil qiladi. Rossiyada yashovchi ko'p sonli xalqlarga tatarlar (5 mln kishidan ortiq), ukrainlar (4 mln dan ortiq), chuvashlar, boshqirdlar, beloruslar va boshqa millatlar kiradi.

Mamlakatda eng keng tarqalgan din xristian (provaslav) dinidir. Bir qancha xalqlar islom, buddizm, katolik, iudaizm dinlariga e'tiqod qiladi.

4. Davlat tuzumi.

Rossiya Buyuk davlat va o'z navbatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Havfsizlik Kengashining doimiy a'zosi hamdir.

Rossiya-Federativ Respublika, Davlat boshlig'i-Prezident hisoblanadi, u 5 yil muddatga saylanadi. Prezident hukumat boshlig'i va qurolli kuchlar bosh qo'mondoni hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi Oliy organ ikki palatali parlament Davlat Dumasi (quyi palata) va Federasiya kengashi (yuqori palata)dan iborat. Ijroi hokimiyat Prezident va Vazirlar Kengashiga qarashli. Mamlakatda 100 ga yaqin siyosiy partiya va jamoat harakatlari faoliyat yuritmoqda.

5. Xo'jaligi:

Rossiya xalq xo'jaligi juda ko'p sonli tarmoq va korxonalarni o'z ichiga oladi. O'tgan yillar davomida mamlakatda iqtisodiy islohatlar o'tkaziladi. Milliy Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

A) Sanoati

Energetika- texnika mamlakatning moddiy-texnika bazasini yaratishda, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Rossiya Yoqilg'i-energetika balanisida neft va tabiiy gaz hissasi 70 foizini tashkil etadi.

Neft sanoati- Rossiya XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan. O'sha vaqtlarda Neft asosan Kavkazning Boku (Apsheron) va Shimoliy Kavkaz rayonlaridan rivojlanmoqda. Birgina G'arbiy Sibir rayonlarida 300ga yaqin neft va gaz konlari aniqlanib ishga tushirilgan. G'arbiy Sibirdan qazib olinayotgan neft yuqori sifatga ega. Volga-Ural hovzasi mamlakatlarda neft qazib olish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Neft konlari mamlakatning Tatariston, Boshqirdiston, Udmurdiya, Respublikalari va Samara, Perm va boshqa viloyatlarida qidirib topilgan. Shuningdek Timan-Pechora neft gaz oblasti Komi Respublikasi yirik neft va gaz zahiralariga ega.

Mamlakatning Shimoliy Kavkaz rayoni Dog'iston, Grazniy, Stavropol' va Krasnodar neftgaz oblastlariga ajratilgan.

Rossiyaning Uzoq Sharq rayonida ham neftning yirik zahiralarini qidirilib topilgan, bu yerda Saxamin orolida neft konlaridan neft qazib olinmoqda.

Mamlakatda qazib olinayotgan neftning katta qismi neft quvurlari yordamida iste'molchi rayonlarga yetkazib beriladi. Rossiyada neft quvurlarining uzunligi 70 ming km atrofida bo'lib, ular neft qazib oluvchi rayonlarini mamlakatning barcha qismi bilan bog'laydi. Mamlakatda qazib chiqarilayotgan neft MDH Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga eksport qilinadi.

Gaz sanoati- zahiralari bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda, qazib olish bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi.

Mamlakatdagi asosiy gaz xomashyosi G'arbiy Sibirning shimolida, Shimoldiy Kavkaz, Ural rayoni, Quyi Volga bo'yi, Komi respublikasi, Saxa Yoqutiston va Saxalin orolidagi sof gaz konlaridan qazib olinmoqda. Rossiyada tabiiy gazning asosiy qismi sharqiy rayonlar (G'arbiy Sibir)da qazib chiqarilmoqda.

Rossiyada Yagona gaz ta'minoti sistemasi ishlab turibdi. Uning tarkibiga gaz qazib olinadigan konlar, gaz quvur tarmoqlari va kompressor uskunalari yer osti gazombori va boshqa inshootlar kiradi. Quvurlar-katta hajmdagi gazni yetkazib beruvchi yagona usul hisoblanadi. Rossiyada ularning uzunligi 140 ming kmni tashkil etadi.

Tabiiy gaz asosan G'arbiy Sibir neftgaz provinsiyasidan, Volga bo'yi, Ural va Shimoliy Kavkazdagi asosiy magistral gaz quvurlar yordamida Rossiyaning Markaziy rayonlariga, Ukraina, Belorussiya, Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yetkazib beriladi.

Ko'mir sanoati- yirik umumgeologik zahirasiga ega (Dunyoda Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda turadi), biroq ko'mir konlari mamlakat bo'ylab notekis joylashgan, ularning katta qismi to'la o'zlashtirilmagan. Sibir va Uzoq Sharq rayonlarida joylashgan.

Mamlakatdagi asosiy ko'mir konlariga Kuznesk hovzasi (Kuzbase), Kansk-Achinsk qo'ng'ir ko'mir hovzasi, Pechora va Donesk hovzasining bir qismi (Rostov viloyatida), shuningdek janubiy Yoqutiston hovzasi kiradi. Rossiyaning Tunguska va Lena hovzalari dunyodagi eng yirik ko'mir zahirasiga ega bo'lgan hovzalardir, biroq Sibirning ushbu rayonlarining tabiiy sharoitining noqulayligi tufayli ushbu hovzalardan amalda foydalanilayotir.

Elektroenergetika- sanoatida elektroenergiyaning ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya dunyoda faqat AQShdan keyinda turadi. (1995 yilda mamlakatda 845 mlrd kvt|s elektrenergiya ishlab chiqariladi). Mamlakatda elektr energiyaning 70 foizi issiqlik elektr stansiyalarda, 18 foizi gidravlik stansiyalarida va 12 foizi atom elektr stansiyalarida ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi zamon energetikasi rivojlanishining hususiyatlaridan biri atom elektr stansiyalarini qurish va ulardan foydalanish hisoblanadi. Rossiya ko'plab AES lar qurilgan, biroq 1986 yilda Ukrainaning Chernobil Atom Elektr stansichsidagi avariya dan so'ng ko'pgina ishga tushirilgan atom elektr stansiyalar o'z faoliyatini to'xtatgan.

Mamlakatda energetika rivojlanishidagi muhim yo'nalishlardan biri gidroenergiya resurslardan foydalanishi hisoblanadi. Rossiyada Volga-Kama va Angara Yenesey GESlar kaskadi ishlab turibdi. Rossiya elektrenergiyani eksport qiluvchi asosiy mamlakatdir.

Qora metallurgiya- sanoati xom-ashyo bilan to'la ta'minlangan. Ayniqsa mamlakatda temir rudasiga boy konlar ko'p. Temir rudasi Rossiyaning Kursk magnit anomoliyasi (KMA), Ural, Kareliya, Kola yarim oroli va Sibirdan qazib olinmoqda. Qazib olinayotgan ko'mirning 80 foizi ochiq usulda qazib chiqariladigan Temir rudasining 20 foizi chetga eksport qilinadi. 1995 yilda 78,3 mln tonna temir rudasi qazib chiqariladi. Mamlakatda qora metallurgiya sanoati uchun kokslanuvchi ko'mirning asosiy zahiralari Kuznesk (Kuzbass) va Pechora hovzalarida to'plangan.

Rossiya uzoq yillar jahonda cho'yan va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qilib keldi. Biroq bir necha yil ilgari mamlakat iqtisodiyotidagi ishlab chiqarishning keskin pasayishi tarmoqda qora metallar ishlab chiqarishga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. (1995 yilda 39,8 mln tonna cho'yan va 51,6 mln tonna po'lat ishlab chiqarildi-Rossiya bu sohada dunyoda Xitoy, Yaponiya va AQShdan keyin to'rtinchi o'rinda turadi).

Rossiyada qora metallar ishlab chiqarish asosan 3-ta yirik Ural, Markaziy va Sibir metallurgik bazalardagi korxonalarda to'plangan. Mamlakatdagi yirik metallurgik markazlarga: Nijniy Tagil, Magnitogorek, Chelyabinsk, Novotroisk, Novokuznesk, Cherepoves, Stariy Oskol kabi markazlar kiradi.

Rangli metallurgiya- xilma-xil konstruksion materiallar ishlab chiqaradi. Tarmoq tarkibida mis, qo'rg'oshin-rux, nikel-kobalt, alyuminiy, titan-magniy, volfram-moliboyen sanoati shuningdek rangli metallar ishlab chiqarish sanoati kiradi.

Mis sanoati asosan Ural rayonida, Krasnouralsk, Kirovograd, Revda, Mednogorsk shaharlarida yirik korxonalariga ega. Qo'rg'oshin-rux ishlab chiqarish Kuzbass (Belovo), Shimoliy Kavkaz (Vladikavkaz), Ural (Chelyabinsk)da yo'lga qo'yilgan. Rossiyadan alyuminiy sanoatining Achinsk, Bratsk, Boksitogorsk, Volxov, Volgograd, Kamensk-Uralsk, Kandalaksha, Krosnayarsk, Nadvoiso', Novokuznesk, Shelexov va boshqa markazlari ishlab turibdi.

Mashinasozlik sanoati- Rossiyaning barcha regionlarida joylashgan. Og'ir mashinasozlik zavodlari metallurgiya ishlab chiqarishi uchun, qurilish industrial, tog'-kon, energetika, ximiya va boshqa ko'plab sanoat tarmoqlar uchun jihozal ishlab chiqariladi. Mazkur sanoat tarmoqlari asosan metamurgik markazlar yaqinida joylashgan. Ushbu tarmoqqa qarashli korxonalar Yekaterinburg, Nijniy Tagil, Krosnoyarsk, Irkutsk, Novosibirsk, Orsk, Elektrostal (Moskva viloyati) shaharlarida ishlab turibdi.

Tog'-kon asbob uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar Chelyabinsk, Prokopyevsk, Kiselevsk, Anjero- Sujenski, Kemerovo, Krasnoyarsk shaharlarida joylashgan. Neft va gaz sanoati uchun asbob-uskunalar asosan Volga-Ural rayoni, Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Sibirida ishlab chiqariladi.

Energetika mashinasozligi korxonalarida bug' qozonlari, qudratli bug' turbinalari va generatorlari, gidroturbinalar, dizel va elektrdviqatellar tayyorlanadi. Korxonalar mamlakatning Biysk, Barnaul, Taganrog, Belgorod, Sankt-Peterburg, Novosibirsk shaharlarida ishlab turibdi. Shuningdek Rostov viloyatining Volgodonsk shahrida Atom Elektr Stansiyalar uchun asbob uskunalari ishlab chiqaruvchi zavod qurildi.

Stanoksozlik sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning katta qismi mamlakatning Markaziy Shimoliy G'arbiy va Ural iqtisodiy rayonlariga to'g'ri keladi.

Mamlakat avtomobil sanoati yengil va yuk mashinalar, avtobuslar, tromebuslar ishlab chiqaradi. Ushbu tarmoqning yirik korxonalari Moskva, Nijniy Novgorod (Gorkiy) va Yaroslavl shaharlarida qurilgan. Hozirgi vaqtda Nijniy Novgorod, Ijevsk, Miass, Ulyanovsk, Moskva va Tolyattidagi zavodlarda yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Nijniynovgorod viloyatining Pavlova shahrida va Moskva viloyatining Likino shahrida avtobuslar ishlab chiqaruvchi, Saratov viloyatining Engels shahrida esa trolleybuslar ishlab turibdi. Yuk avtomobillari esa Moskva, Naberejniy, Chelniy, Nijniy, Novgorod, va Ulyanovsk shaharlaridagi zavodlarda ishlab chiqarilmoqda.

Temir yo'l transporti mashinasozlikning yirik zavodlari Nijniy Novgorod, Bryansk, Sankt-Peterbuprg, Uran-Ude, Nijniy Tagil, Kolomne Kaluga, Lyudinova, Murome, Noverkassk shaharlarida joylashgan. Temir yo'l vagonlari Bryansk, Mitishi, Nijniy Tagil, Tver shuningdek Abakan, Altaysk, Ust-Kata va Sankt-Peterbuprg shaharlarida joylashgan zavodlarda ishlab chiqariladi.

Dengiz va daryo kemasozligi va kemalarni ta'mirlash Sankt-Peterburg, Astraxan, Nijniy Novgorod, Tyumen, Krasnoyarsk, Xabarovsk, Blagoveshensk, Komsomolsk-Amur, Arxengelsk, Murmansk, Yaroslavl, Ribinsk, Zelenodolsk shaharlarida rivojlantirilgan.

Samalyotsozlikning yirik sanoat markazlari Moskva, Qozon, Samara, Voronej, Saratov, Smolensk, Rostov-Don, Taganrog shaharlarida ishlab turibdi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ida traktorlar chiqarish Chelyanbinsk, Vladimir, Lipesk, Volgograd, Cheboksari, Rubsovsk, Novotroitski, Petrozavodek shaharlarida joylashgan korxonalarida ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatda yiliga 21 ming dona atrofida traktorlar ishlab chiqarilmoqda. Rossiyaning deyarli barcha iqtisodiy rayonlarida kombaynlar va boshqa qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqariladi.

Aniq mashinalar, mexanizmlar va asboblari (elektronika, elektrotexnika, priborsozlik) ishlab chiqaruvchi korxonalar (texnologik jarayonlarda malakali mehnat talab etiladi) asosan mamlakatning markaziy rayonlaridagi yirik shaharlarda joylashgan.

Ximiya sanoatida- mineral o'g'itlar (fosfat, kaliy va azot) ishlab chiqarishi muhim tarmoqlari hisoblanadi. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarishi bo'yicha Rossiya jahonning ko'pgina mamlakatlaridan oldinda turadi.

Superfosfot sanoatining yirik korxonalari Moskva viloyatining Voskresensk shahri, Leningrad viloyatining Sankt-Peterbuprg, Kingisep shahrida: azoto'g'itlari ishlab chiqaruvchi korxonalar Dzerjinsk (Nijniy Novgorod atrofida), Brezniki (Ural), Tula viloyatining Novomoskovsk, Stavropol o'lkasining Nevinnomisk, shuningdek Kemerova shaharlarida joylashgan.

So'nggi yillarda organik sintez ximiya sanoatining ahamiyati oshib bormoqda.

O'rmon sanoati.

Rossiyada o'rmonlar maydoni 766 mln gektarni tashkil etadi. Biroq o'rmon resurslari mamlakat hududi bo'ylab noteks taqsimlangan. Foydalanilayotgan o'rmon maydonlari asosan Sibir, Uzoq Sharq, Ural mamlakat yevropa qismining shimolida joylashgan. Barcha yog'och materiallariga bo'lgan iste'molning taxminan 75 foizi mamlakatning yevropa qismiga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda Rossiyaning yevropa qismida o'rmon resurslaridan intensiv holda foydalanilayotgan bo'lsada, tayyorlanayotgan yog'ochning 75 foizini aynan Ural, Sibir va Shimoliy rayon bermoqda. (Pravdinsk, Voljsk), Sibir rayonida (Krasnoyarsk, Bratsk, Ust-Ilmsk, Seleginsk, Baykalsk va Uzoq Sharq) rayonida joylashgan.

Yengil sanoati- so'nggi yillarda og'ir iqtisodiy jarayonlar yuz berdi. Tarmoqning mamlakat jami sanoat tarmoqlar tarkibidagi ulushi sezilarli qisqardi. (6 foizgacha).

Ayniqsa Rossiyaning Markaziy rayonlarida rivojlangan yengil sanoatning to'qimachilik quyi sanoat tarmog'ida iqtisodiy krezis keskin tus oldi.

Faqat Markaziy iqtisodiy rayonda 1990 yillar boshlarida jami ip gazlamaning 70 foizigacha, (asosiy markazlari Ivanova, Moskva, Yaroslavl, Orexova-Zuyevo,

Noginsk, Tver), zig'ir 80 foizgacha (Kostroma, Vyazniki), ipak 30 foiz atrofida (Moskva, Narofominsk va boshqa), jun gazlamasi 60 foizgacha (Moskva) ishlab chiqarildi.

B) Qishloq xo'jaligi.

Rossiya juda katta yer fondiga ega. Mamlakat yer fondi 1707,5 mln hektarni tashkil etadi. Lekin yer fondi tarkibida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar bor yo'g'i 209,0 mln hektarni tashkil etadi. (Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoniga ko'ra dunyoda Xitoy va AQShdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi).

Mamlakatda haydaladigan yerlar maydoni aholi jon boshiga 0,87 hektarga to'g'ri keladi. (Bu ko'rsatgich Qozog'istonda 2,0 gektar, Kanadada-1,7 gektar, AQShda-0,54 gektar, Yaponiyada-0,03 hektarni tashkil etadi).

Hozirgi vaqtda mamlakat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda tarkibiy qayta qurish jarayoni kechirilmoqda. Agrar islohatlar doirasida kolxoz va sovxozlarni qayta tashkil etish, yerlarni qaytadan taqsimlash, ularni xususiyashtirish ishlari davom etmoqda.

Mamlakat qishloq xo'jaligi 2-ta asosiy dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlaridan *iborat*.

Rossiya hududida tabiiy sharoit tabiat zonalarini bo'yicha o'zgarib boradi. Shuning uchun ham ekiladigan maydoniy o'simliklar va boqiladigan hayvon turlari zonalar bo'yicha farq qiladi. (qishloq xo'jaligining mintaqalar bo'yicha ixtisoslashuvi).

Shunday qilib Tundra va o'rmondundra zonasining asosiy ixtisoslashgan sohalari bug'uchilik, ovchilik va baliqchilik hisoblanadi. Bu zonada dehqonchilik uchun sharoit noqulay.

Tayga zonasidagi daryo vodiysi bo'ylarida dehqonchilikning rivojlangan markazlari katta maydonlarni egallaydi. Bu yerlarda asosan chorvachilik sohalari ham rivojlantirilgan.

Tayganing janubiy qismi va aralash o'rmonlar zonasi (Rossiyaning yevropa qismi noqoratuproq zonasi)da zig'ir, donli ekinlar (javdar, so'li, arpa), sabzavot, kartoshka va xashaki ekinlar ekiladi. Ushbu zonada sut va go'sht-sut yo'nalishiga ixtisoslashgan chorvachilik sohasi yetakchilik qiladi. Ko'p sonli sanoat markazlari atrofida cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan. G'arbiy Sibir taygasining janubiy qismida ekin maydonlari katta maydonlarni tashkil etadi.

O'rmondasht zonasi, Rossiya yevropa qismi qora tuproq zonasi shimolida ziroatchilik yetakchi soha hisoblanadi. Bu yerda donli va texnika ekinlari (bug'doy, javdar, so'li, qand lavlagi, kungaboqar, makkajo'xori, kartoshka, ildizmevali yem-hashak ekinlar) yetishtiriladi. Don va kartoshka ekinlarini qayta ishlash hisobiga ko'pgina ozuqa-yem olinadi. Bu esa yirik qoramolchilik, cho'chqachilik va parrandachilikni rivojlantirish uchun ozuqa ba'zasi bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda bog'dorchilik muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Rossiya Federasiyasi yevropa qismi dasht (Volgabo'yi, Ural) rayonlarida bug'doy va makkajo'xori yetishtiriladi. Makkajo'xori qoramollar va parrandachilik uchun muhim ozuqa hisoblanadi. G'arbiy Sibir dashtlarida bahorgi bug'doy yetishtiriladi.

Tabiiy yaylovlarda esa yirik qoramollar, quriq iqlimli rayonlarda qo'ylar ko'paytirilmoqda. Uzoq Sharqning dasht rayonlarida (Volgabo'yi) don va soya dehqonchiligi va sut-go'sht chorvachiligi rivojlangan.

Uzoq Sharqning Primorye o'lkasida musson iqlimi alohida tabiat zonasini hosil qiladi. (Uzoq Sharqda sholi yetishtiriladi).

Rossiyaning janubiy chalacho'l va cho'llar zonasida (Volgabo'yi, Qollshqiya, Dog'iston) go'sht-jun qo'ychiligi rivojlangan.

Rossiya Federasiyasining tog'li rayonlarida (Kavkaz, Oltoy, Sayan) tog' yaylov chorvachiligi rivojlangan.

Mamlakatning yirik shaharlari atrofida shahar atrofi xo'jaligi rivojlantirilgan.

V) Transport tarmoqlari.

Rossiyada transportning barcha turlari rivojlangan.

Temir yo'l transporti- Rossiyadagi asosiy transport turlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat temir yo'llarining uzunligi bo'yicha faqat AQShdan keinda turadi. Rossiyada temir yo'l lineyalarining umumiy uzunligi 90 ming km atrofida, shundan $\frac{1}{3}$ qismi elektrlashtirilgan. Rossiya yevropa qismi asosiy temir yo'l magistrallari Moskva shahri atrofida temir yo'llar radius bo'ylab joylashuvi xosdir. Mazkur mamlakatning yirik transport tugunidan turli tomonlarga yo'nalgan magistral yo'llar ya'ni poytaxtni barcha iqtisodiy rayonlar va dunyoning boshqa davlatlari bilan bog'laydi.

Transibir magistrali orqali Rossiya, Xitoy, Mongoliya, KXDR mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni olib boradi.

Endilikda Rossiya Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan Ukraina va Belorussiya davlatlari orqali temir yo'llari bilan bog'langan.

Rossiya uchun ***dengiz transportining*** ahamiyati katta bo'lib, uning qirg'oqlarida joylashgan dengiz akvotoriyalari uch dengizga Atlantika, Shimoliy muz okeani va Tinch okeanga qarashlidir. Rossiya dengiz chegaralarining uzunligi 40 ming km atrofida. So'nggi yillarda mamlakatning okeanga chiqishi imkoniyati yomonlashdi. Rossiyaning Sobiq SSSRning Qora, Azov, Boltiq va Kaspiy dengizlaridagi muhim portlaridan foydalanish imkoniyatlari o'zgardi.

Rossiya zich daryo turiga ega. Ko'pgina daryolarda kemalar qatnaydi. Rossiyada ichki suv transporti yo'llari 80 ming kmni tashkil etadi.

Avtomobil transporti.

Mamlakatda avtomobil transportining ahamiyati yuqori bo'lib, unda xalq xo'jaligining barcha turlari tashiladi. Ushbu transport turining yo'lovchi tashishdagi salmog'i ham yuqori. Rossiyada avtomobil yo'llarining uzunligi 900 ming km atrofida. Biroq avtomobil yo'llari qurilish sanoati jahon standartiga deyarli to'la javob bermaydi.

Havo transporti.

Hozirgi vaqtda Rossiya havo yo'llari orqali dunyoning istalgan shahar yoki davlatlari bilan bog'langan. Mamlakatning poytaxti Moskva shahriy xalqaro talablarga javob beruvchi Vnukova, Sheremetyevo, Bikova, Domodedova kabi yirik aeroportlar ishlab turibdi. Havo transporti mamlakatning Shimol, Sibir va Uzoq Sharq rayonlarida borishi qiyin bo'lgan shaharlarni xo'jalik maqsadlarda foydalanishda muhim rol o'ynaydi.

G) Tashqi iqtisodiy aloqalar.

Rossiya Federasiyasi so'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlari bilan faol tashqi iqtisodiy aloqalarni olib bormoqda. 1994 yilda Rossiya bilan Yevropa

Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Hozirgi vaqtda Rossiya dunyoning Germaniya, Xitoy, Italiya, Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib bormoqda. Bundan tashqari Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalarida Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari ham muhim o'rin tutadi.

MAVZU: TURKIYA

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va yoqilg'i mineral resurslari.
3. Aholisi.
 4. Davlat tuzumi.
 5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati
 - B) Qishloq xo'jaligi
 - V) Transporti
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari
Maydoni-779452 km²
Aholisi-66,3 mln. kishi (2001 yil)
Poytaxti— Anqara.

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Turkiya Respublikasi geografik jihatdan qulay yerda-Osiyo va Yevropa qit'alari tutashgan Afrika, Amerika va Avstraliya qit'alariga chiqish chorrahasida joylashgan. U ko'pgina mamlakatlarning birlashtiruvchi, temir va tosh yo'llar, suv va havo yo'llari bilan bog'lovchi markaziy mintaqalardan birini egallagan.

Turkiya Shimolda Qora dengiz, G'arbda Egey, Janubda esa O'rta Yer dengizlari bilan o'ralgan. Bunday tabiiy geografik joylashuv qadimda uni chetel istilochilari hujumidan bir muncha asrab kelgan va iqtisodiyoti, savdo-sotig'ining rivojlanishida muhim rol o'ynagan va hamon bir qancha dividend keltirib, iqtisodiyotda o'ziga xos model yaratishida asosiy omillardan biri bo'lmoqda

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Mamlakat yer osti qazilma boyliklari hayvonot va o'simlik dunyosi xilma-xil ko'p va rang-barangdir. Masalan: bu yerda foydali qazilmalarning 6700 ga yaqin xili mavjud. Jahondagi surma, simob zahiralarning 25 foizi, xromning 8 foizi, uran rudasining 5,4, misning 4,4 foizi Turkiyaga to'g'ri keladi.

3. Aholisi.

Mamlakat aholisi jahon aholisining 1 foizini tashkil etadi. Turkiya aholisining soni va o'sish darajasi jihatidan ham dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Uning 60 mlndan ortiq aholisi bo'lib, yillik o'rtacha o'sishi 3,1 foizini tashkil etadi. Mamlakatda turklardan tashqari, kurtlar, arablar, gruzinlar, lazlar istiqomat qiladi. Davlat tili-turk tili. Hukumron din-islom (sunnii mazhabi) hisoblanadi.

4. Davlat tuzumi.

Turkiya-Respublika. Davlat boshlig'i-prezident, parlament tomonidan 7 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat 5 yil muddatga saylanadigan bir

palatali parlament (450 deputat)-Turkiya Buyuk milliy majlisi (TBMM) qarashli. Ijrochi hokimiyatni prezident bilan hukumat-bosh vazir boshchiligidagi Vazirlar kengashi amalga oshiradi.

5. Xo'jaligi:

60- 80 yillar boshigacha muddat ichida bozor iqtisodiyotiga o'tishi uchun zamin hozirlash davri bo'ldi. Bu davr Turkiya iqtisodiyotida qisman bo'lsada jonlanish harakterlansada u hamon iqtisodiy inqiroz panjasidan qutila olmagan edi. Inqirozning siyosiy tomoni yechimi 1980 yil sentiyabr oyida amalga oshirilgan harbiy to'ntarishda o'z ifodasini topdi. Harbiylar mamlakatga bir muncha intizom kiritdi. Iqtisodiyotda jonlanish boshlandi. 1983 yilning noyabr oyida o'tkazilgan parlament saylovlari natijasida harbiy dektaturaning tugatilish, davlat tepasiga demokratik kuchlarning kelishi iqtisodiyotning yuksalishiga, ayniqsa ijobiy turtki bo'ldi. Bu mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tishini tezlashtirdi va o'z yo'lini topishga olib keldiki, bu yil iqtisodiyotda Turkiya modeli nomi bilan mashhur.

A) Sanoati

Turkiya sanoati iqtisodiyoti ziddiyatlar majmuidir. Unda to'liq avtomatlashgan gigant korxonalaridan tortib, faqat qo'l mehnatiga asoslashgan iptidoiy kichchik korxonagacha uchraydi. Turkiya sanoatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning keyingi o'n yilda yuqori sur'at bilan rivojlanayotganligidadir.

Turkiya o'z qazilma boyliklari zaxiralarining ko'pligi va ularni qazib olishi bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Qazilma boyliklarini izlab topish va ishlab chiqarishini tashkil etish asosan davlat qo'lida. Keyingi yillarda Anqara, Qo'niya, Sinop viloyatlarida neft zahiralari, Ergan, Murg'ul, Zara, Bala kabi joylarda mis va ruda konlari topildi.

Toshko'mir zahiralari miqdori 5,5 mlrd tonna atrofida chamalanmoqda. Ular asosan Qora dengiz yaqinida joylashgan bo'lib, deyarli 200 kmga cho'ziladi.

Neftni qayta ishlash va kimiyo sanoatida yiliga o'rtacha 2,8-3,0 tonnaga yaqin neft olinadi. Bu esa ichki extiyojini to'la qondira olmaydi. Gaz qazib olish.

Turkiyada yosh tarmoq bo'lib, 1985 yildan boshlab qazib olinmoqda.

Kimyo zavodlarida xilma-xil mahsulotlar: portlovchi moddalardan tortib mineral o'g'itlar, lak-bo'yoq, kislota, sovun va kir yuvish vositalarigacha ishlab chiqariladi.

Qisqa o'n yil davomida, eng avvalo, mashinasozlik, ayniqsa avtomobil, traktorsozlik sanoti yuqori sur'atda rivojlanishiga erishildi. Bunda TMKlarning faol ishtiroki mavjud. Ular ichida AQShning «Ford» Italiyaning «Fiat», Fransiyaning «Reno», Germaniyaning «Mercedes», «Kreslar» kabi kompaniyalarni qayd etish kerak.

Turkiyada, Karabyuk, Eregli va Iskandel metallurgiya kombinatlari ishlab turibdi. Mamlakatda 4,3 mln tonna po'lat, 150 ming tonna maxsus po'lat turlari, 2,9 mln tonna prokat, 1 mln tonna yoyma prokat, 514 ming tonna quvur ishlab chiqariladi.

Turkiyada 30-35 ming tonna qora mis, 83 ming tonna mis mahsulotlari shundan 66 ming tonnasi mis sim ishlab chiqarilmoqda. Seydi shahrida alyuminiy zavodi yiliga 25 ming tonna alyuminiy, 150 ming tonna glinozen ishlab chiqarilmoqda.

B) Qishloq xo'jaligi.

Turkiyada qishloq xo'jaligining rivojlanishiga qadimdan katta e'tibor berib kelingan. Mamlakat jami maydonining $\frac{1}{3}$ qismi o'tloq va yaylovlar $\frac{1}{3}$ qismi ishlanadigan yerlardan (25,5 mln gektar) iborat. Ekin maydonlarining 80 foizi donli

15 foiziga yaqinini texnika ekinlari egallaydi. Bog' va tokzorlar 3,3 mln gektarni tashkil etadi. Turkiyada yiliga 20,4 mln tonnaga yaqin bug'doy yetishtiriladi. Bu miqdor mamlakat ehtiyojlarini to'la qoplagan holda chet ellarga 1 mln tonnadan ortig'ini eksport qilish imkonini beradi. Paxta va boshqa texnika ekinlari yetishtirish borasida Turkiya jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatda yiliga 616 ming tonna paxta tolasi tola olinadi. Mamlakatda o'rtacha 10-12 mln tonna qandlavlagi yetishtirilmoqda.

Turkiyada chorvachilik rivojlangan bo'lib 3 mlnga yaqin yirik shoxli qora mollar, 17 mln kichik shoxli mollar mavjud. Turkiyada 20 mln bosh angor echkilari boqiladi.

V) Transporti

Turkiyada transport va aloqalarining barcha turlari yetarli darajada rivojlangan. Turkiyada avtomobil transporti muammosi to'liq xol etilgan. 1960 chi yildan 1987 yilgacha yengil avtomashinalar miqdori 40 martaga yaqin yuk tashishi mashinalari 7,5 marta, avtobuslar 7,3 marta, mini avtovuslar soni 13,1 marta o'sgan. Temir yo'lining uzunligi 8500 kmga yaqin, ulardan 567 km elektirlashtirilgan, xar yili 150 mlnga yaqin yo'lovchi va 15 mln tonna yuk tashiladi. Dengiz transportida 150 mln tonna yuk tashiladi xavo transportida 4 mlndan ortiq yo'lovchi tashiladi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Eksporti asosan oziq-ovqat va yengil sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan iborat. Importning asosini neft, sanoat xom ashyosi, mashina va asbob uskunalar tashkil etadi.

MAVZU: HINDISTON (HINDISTON RESPUBLIKASI) REJA

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Kishloq xo'jaligi.
 - V) Transporti.
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Hududi- 3287732 km²

Aholisi- 1068,6 mln. kishi (2003)

Poytaxti- Dehli.

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Hindiston hududi shakliga ko'ra uchburchakni eslatadi, uning «asosi» materikda bo'lib, Osiyoning boshqa qismlaridan Himolay tog'lari tizimi orqali ajralib turadi. Tinch okeanga boradigan dengiz yo'li Hindiston yarimorolining janubiy chekkasi yaqinidan o'tadi. Mamlakat shimoldan janubga tomon 3,2 ming, g'arbdan sharqqa tomon esa 2,9 ming km ga cho'zilgan. Hind okeani mamlakatning okean sohilida joylashgan rivojlanayotgan mamlakatlar va Avstraliya bilan bog'laydi. Mamlakatning quruqlikdagi chegarasi dengizdagi chegarasidagi 2,5 barobar uzun bo'lib, ko'pincha

yo'li og'ir bo'lgan tog'li sarhadlardan o'tadi. Shu sababli quruqlikdan o'tgan chegaraning mamlakat iqtisodiy hayotidagi ahamiyati uncha katta emas.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Mamlakat hududini uchta tabiiy zonaga ajratish mumkin. Dekan yassi tog'lari deyarli butun Hindiston yarim orolini egallagan G'arbiy va Sharqiy Gat tog' tizmalarini o'z ichiga olgan. Hind- Gang tekisligi o'z navbatida ikki qismdan iborat bo'lib, sharqda Ganga, Hind, Braxmaputra vodiysi, shimoliy-sharqda Tar cho'li joylashgan. Mamlakatning shimoliy qismi dunyoning eng baland Himolay tog'lari bilan o'ralgan. Mamlakatning asosiy Ganga, Hind, Braxmaputra, Godavari daryolaridan yil davomida xo'jalik maqsadlarida keng foydalaniladi.

Mamlakatda ko'mir, temir rudasi, tabiiy gaz, neft, marganes, titan, xromit, olmos, ohaktosh, boksitning yirik konlari mavjud. Ayniqsa Hindiston ko'mir zahiralari bo'yicha dunyoda 4-chi o'rinda turadi. Hududning 55 foizi ekin ekiladigan yerlar, 23 foizini o'rmon va changalzorlardan iborat.

3. Aholisi.

Hindiston aholi soniga ko'ra dunyoda Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu yerda aholi ro'yxati 1891 yildan beri har 10 yilda o'tkaziladi. Ayniqsa Hindiston aholisi XX asrda tez sur'atlar bilan o'sdi. Masalan: Mamlakat aholisi 1901 yil. 239 mln kishi, 1951 yil 361 mln kishi 1981 yil 683 mln kishi, 1991 yil esa 844 mln, 2000 yilda esa 1 mlrd kishidan oshib ketdi.

Hindiston uchun rivojlanayotgan boshqa mamlakatlari kabi, aholi ko'payishining tabiiy o'sishi yuksak bo'lgan ikkinchi tipi harakterlidir. Tez ko'payib borayotgan aholini oziq-ovqat va mehnat bilan ta'minlash qiyin, shuning uchun hukumat tug'ilishni kamaytirishga qaratilgan «Oilani rejalashtirish» dasturini amalga oshira boshladi. Biroq ko'p asrli yosh nikoh qurish an'alariga ega bo'lgan mamlakatda bu dastur umuman yaxshi samara bermoqda.

Hindiston aholisining etnik tarkibi nihoyatda xilma-xildir: Hindiston dunyoda eng ko'p millatli mamlakatdir! «Hindlar» tushunchasi bir necha yuzlab etnoslar ya'ni millat, elat va qabilalarni birlashtiradi, ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichida bo'lib, turli tillarda so'zlashadilar. Mamlakatda asosiy tillarga 15 til kiradi. Biroq deyarli 100 mln hindlar boshqa tillarda so'zlashadilar, shevalarning umumiy soni esa olimlarning fikricha 1,6 mingga yetadi. Davlat tili-hind tili, eng katta millatlardan bo'lgan hind millatining tilidir. Mamlakatning ma'muriy bo'linishi milliy tafovutlarni hisobga oladi: shtatlarning chegaralari eng ko'p sonli xalqlar tarqalgan areallar bo'ylab o'tkazilgan.

Hindlarning turmush tarziga, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarini ham hisobga olganda, din juda katta ta'sir ko'rsatadi, hindlarning $\frac{4}{5}$ qismi induizm diniga $\frac{1}{10}$ qismi esa islom diniga e'tiqod qiladi.

Hindistonda aholining joylashishi ancha notekisdir. Qadimdan dastlab daryo vodiylari va deltalaridagi, dengiz sohilidagi unumdor tuproqli pasttekislik hamda tekisliklar o'zlashtirilgan. Biroq hozirda ham aholisi siyrak va hatto aholisiz hududlar bor.

Hindistonda urbanizasiya darajasi uncha yuqori emas. Mamlakatda 4,5 ming shahar bor. Buning ustiga katta shaharlar va «millioner» shaharlar soni muttasil o'smoqda.

Hindiston katta shaharlar soniga ko'ra faqat Xitoydan orqada, «millioner» shaharlar (aglomerasiyalar) soniga ko'ra Xitoy va AQShdan orqadadir. Shaharliklarning mutlaq miqdoriga ko'ra Hindiston Xitoydan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

Shunga qaramay Hindiston aholisining asosiy qismi ko'proq kichik, biroq serodam (gavjum) qishloqlarda yashaydi. Ularning umumiy soni 600 mingga yaqin.

4. Davlat tuzumi.

1398-1399 yillarda Amir Temur tomonidan Hindistonning katta qismi bosib olinadi va Dehli saltanati o'zining ko'pgina vassalaridan ajralib, kuchsizlanib qoladi. Zahiriddin Bobur 1526 yilda Dehlini bosib olib, mamlakat hududida XVIII asrgacha, ya'ni yevropaliklar tomonidan bosib olingunga qadar, o'zining rivojlanish cho'qqisiga erishgan buyuk imperiyaga asos soldi. Bu hududda o'z ta'sir doirasiga ega bo'lish uchun kurash Fransiya va Angliya o'rtasida kechdi va Angliyaning g'alabasi bilan tugadi. Britaniya tomonidan yangi mustamlakani o'zlashtirish XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida faollashdi. 1818 yilda hindlarning oxirgi qarshiligi sindirildi. XX asrning 40- yillarda Maxatma Gandi rahbarligidagi Milliy ozodlik harakati 1947 yili mamlakatning mustaqillikka erishishga olib keldi, lekin mamlakat ikki qismga Hindiston va Pokiston Islom Respublikalariga bo'lindi. Hindiston mustaqillikka erishgandan keyin 1960 yilda Xitoy, 1965 yilda esa Pokiston bilan harbiy majorolarga tortildi. (Jammu va Kashmir muammosi) Hindistonda XX asrning 80-90 yillarida bir necha marta diniy va miliy majorolar ham yuzaga keldi.

Hindiston davlat tuzumiga ko'ra federativ respublika hisoblanadi. Mamlakat ma'muriy hududiy jihatdan 25 ta shtat va 7 ta ittifoqdosh hududga bo'linadi. 1950 yilda Hindiston Ijroiya hokimiyati prezident (davlat boshlig'i)ga va bosh ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ ikki palatali parlament (sansad)ga tegishli.

5. Xo'jaligi.

Hindiston mustaqillik yillarida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda katta yutuqlarga erishdi.

Mamlakatda industrilashtirishni, tub agrar o'zgarishlarni muvoffaqiyatli olib bormoqda, kosmik dasturlarni amalga oshirmoqda.

Shunga qaramay, Hindiston hamon juda katta tafovutlar mamlakati bo'lib qolmoqda. Mamlakat ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo'yicha dunyoda 11-o'rinni egallaydi, biroq jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad jihatidan 102-o'rinda turadi. Aholining $\frac{2}{5}$ qismi ancha kambag'al yashaydi.

Hindiston dunyoda yirik qoramol soni jihatidan birinchi o'rinni egallaydi, biroq go'sht mahsulotlari iste'mol qilish bo'yicha esa oxiri o'rinlardan birida turadi. U temir yo'llarning uzunligi jihatdan Osiyoda birinchi o'rinda turadi, biroq bu yo'llarning yarmi tor izli yo'llardir. Hindiston fan texnika mutaxassislarining soni jihatidan faqat Rossiya bilan AQShdan keyin turadi, biroq bu yerda fan va texnikaning deyarli barcha sohalarida mutahassislarning chet davlatlarga ketib qloish hollari ko'plab kuzatilmoqda. Mamlakatda kino sanoati rivojlangan. Hindiston dunyoda kinofilmlar ishlash bo'yicha birinchi o'rinda turadi. (Yiliga 750-800 ta kinofilm ishlab chiqariladi).

A) Sanoati.

Hindiston sanoat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan boy va xilma-xil tabiiy resurslarga ega. Rudali qazilmalari temir va marganes rudalarining hamda xromit, boksit va uran xom-ashyosining zahirasi ayniqsa katta. Ko'mir resurslari mamlakatni yoqilg'i bilan ta'minlamoqda, lekin kokslanuvchi ko'mir zahirasi ko'p emas. Hozirgi Hindiston faqat dastgohlar; teplovozlar, avtomobillar, traktorlar, televizorlar emas balki EHM, AES va kosmik tadqiqotlar uchun uskunalari ham ishlab chiqaradi. U atom sanoatining rivojlanishi darajasiga ko'ra dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar orasida yetakchi o'rin tutadi.

Mamlakatning Dekan yassi tog'ligining sharqiy chekkasida, Damodar vodiysida mamlakatning bosh ko'mir-metallurgiya bazasi shakllandi; uni ko'pincha, «Hindiston Ruri» deb ataydilar. Shu yerdagi Bokara shahrida yirik metallurgiya kombinati ishlab turibdi.

Hindistonda qayta ishlash sanoat tarmoqlaridan mashinasozlik, ximiya yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Yengil sanoatining yetakchi tarmoqlari ipgazlama va jun to'qish shuningdek, tikuvchilikdan iborat. Bularning barchasi eksportga ishlaydi.

B) Qishloq xo'jaligi.

Hindistonda faol aholining $\frac{3}{5}$ qismi qishloq xo'jaligida band. Davlat ajratgan mablag'lar «Yashil revolyusiya» ning yutuqlaridan foydalanish natijasida g'alla ekinlari, ayniqsa bug'doyning yalpi hosil olishda va mamlakat o'zini don bilan deyarli ta'minlay boshladi; biroq aholining don istemoli darajasi juda past (jon boshiga 230-240 kg ga to'g'ri keladi). Hindiston hududining katta qismida tabiiy sharoit qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay. Musson yomg'irlarining davriy ravishda takrorlanib turishi bir yilda ikki marta hosil olishga imkon beradi: yozgi mavsum («harif») da may oyida ekilgan ekinlar oktabrda yig'ib-terib olinadi, qishgi mavsum («rabi»)da noyabrda ekilgan ekinlar may oyida yig'ib-terib olinadi. Rabi mavsumida mamlakat hududining deyarli hamma joyida ekinlarini sug'orishga to'g'ri keladi.

Dehqonchilik-ekin maydonlarining $\frac{4}{5}$ qismi oziq-ovqat ekinlari (sholi, bug'doy, tariqning xilma-xil turlari) va dukkakli ekinlar bilan band. Sholi sohildagi pasttekisliklarda va Gang daryosining quyi oqimida ekiladi. Bug'doy Gang daryosining yuqori va o'rta oqimlarida sug'oriladigan yerlarda, asosan rabi mavsumida ekiladi; tariq ekinlarining asosiy qismi Dekan yassi tog'ligida yetishtiriladi.

Paxtaning asosiy qismi-Dekan yassi tog'ligining lava ustida tarkib topgan qora tuproqli shimoliy-g'arbiy qismida ekiladi. Bu tuproqlarda nam uzoq turadi paxta sug'orilmasdan yetishtiriladi. Shuningdek texnika ekinlaridan shakarqamish jut va moyli ekinlar yetishtiriladi. Moyli ekinlar orasida raps, kanakunjut va yer yong'oq alohida o'rin tutadi, bu ekinlar mahsulotining bir qismi eksport qilinadi. Sharqiy Himolay etaklarida asosan choy yetishtiriladi. Choy eksport qilinadigan asosiy ekin hisoblanadi.

Chorvachilik- sohasida qo'ychilik muhim o'rin tutadi. Qo'ychilik, mamlakatning shimoli g'arbida rivojlangan. Hindiston qoramol soni jihatidan dunyoda birinchi o'rinda turadi, lekin qoramollarning deyarli hammasidan faqat ot-ulov sifatida foydalaniladi.

V) Transporti.

Mamlakatda temir yo'l, avtomobil, havo va dengiz transporti rivojlangan. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 61850 km, avtomobil yo'llari uzunligi 1970000 km (shundan 960000 km-qattiq qoplamali), ichki suv yo'llari 16180 km ni tashkil etadi. Hindistonda Bombay va Madras kabi yirik portlar ishlab turibdi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Hindiston jahonning ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari bilan keng qamrovli iqtisodiy aloqalarni olib boradi.

Tayanch so'zlar.

Siyosiy iqtisodiy geografik o'rni mineral xom ashyo resurslari, aholi sonining o'sishi, murakkab etnik guruxlar, demografik siyosat, federativ respublika, iqtisodiyot tarmoqlari, industrial agrar mamlakat, tashqi iqtisodiy aloqalar.

MAVZU: YAPONIYA.

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Kishloq xo'jaligi.
 - V) Transporti.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Hududi- 337535 km²

Aholisi- 127,5 mln. kishi (2003)

Poytaxti- Tokio

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Yaponiya Osiyoning sharq tomondan o'rab turgan orollarda joylashgan. Bu orollar yoyi shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon 3 ming km dan ortiqroq masofaga cho'zilgan, to'rtta katta (Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku) orollardan va juda ko'p mayda orollardan iborat. Mamlakat hududi g'arbdan Yapon dengizi, sharqdan esa Tinch okean suvlari bilan o'ralgan.

Yaponiyaning orollarda joylashganlik xususiyati, uning dengiz xo'jaligini, ichki va tashqi aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat Osiyoning chekka sharqida joylashganligi uning iborali nomida aks etgan: u «Kunchiqar-mamlakat» deb ataladi.

Koreya bug'ozini Kyusyu orolini Koreya yarim orolidan, Laperuz bug'ozini Xakkaydo orolini 43 km masofaga Rossiyaning Saxalin orolidan ajratib turadi.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Yaponiya tog'li mamlakat. Mamlakatdagi tekislik yerlarning ko'p qismi dengiz qirg'oqlarida joylashgan bo'lib orollar maydonlarining 1\2 qismini egallaydi. Yaponiyada ko'pdan-ko'p vulkanlar joylashgan. Ayniqsa vulkanlar Xonsyu orolining

markaziy qismida joylashgan. Yaponiyada eng yuqori nuqta Fudziyama vulkani uning baland nuqtasi 3776 m hisoblanadi.

Yaponiyaga mussonlar ko'pdan-ko'p yog'inlar keltiradi. Qish oylarida shimoli g'arbiy tomonidan esadigan mussonlar g'arbiy qirg'oqlarga yog'inlar keltiradi. Janubi sharqdan esadigan yozgi mussonlar esa mamlakatning sharqiy qirg'oqlariga ko'plab iliq yog'inlarni keltiradi.

Mamlakatda issiqlik va namlikning ko'pligi janubiy Yaponiyaning tropik va subtropik oblastlarida dehqonchilik sohasida bir yilda 2 marta hosil yig'ishtirib olinadi. (sholi va sabzavot). O'rmonlar mamlakat hududining 2\3 qismini egallaydi. Daryolarning serostonaligi, qisqaligi ulardan kamchilikda kemachilikda foydalanish noqulaydir, lekin daryolar suvidan gidroenergetika va dalalarni sug'orishda ularning ahamiyati katta.

Mamlakatni o'rab turuvchi dengizlar faunaga juda boydir. Yapon xalqining astoydil mehnati tufayli ushbu mamlakatda tabiat kuchli o'zgardi. Ajoyib tabiat manzaralari, industrial va qishloq xo'jaligi landshaftlari, zamonaviy aloqa yo'llari bir biri bilan uyg'unlashib ketgan.

3. Aholisi.

Yaponiya bir millatli mamlakatdir. Yaponlar mamlakat aholisining 99 foizini tashkil etadi. Soniga ko'ra milliy ozchilikni tashkil etuvchi aynlar Xokkaydo orolining shimoliy qismida, koreyslar va xitoylar ayniqsa yirik shaharlarda yashaydi. Yaponiya aholisining soniga ko'ra jahon mamlakatlarining o'nligiga kiradi.

Yaponiya aholi ko'payishining ikkinchi tipidan birinchi tipiga o'tgan Osiyodagi birinchi mamlakatdir. Mamlakat aholisi o'sishining pastligi bilan karakterlanadi. Mamlakatda tug'ilishning sezilarli kamayishi avvalambor aholining o'z hayot darajasini oshirish maqsadida hohish-irodasi va davlatning tug'ilish ustidan davlat nazorati, siyosati bilan bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki Yaponiya-bolalar o'limi ko'rsatgichlari bo'yicha dunyoda eng past bo'lgan va jahonda aholining o'rtacha umr ko'rishi eng yuqori bo'lgan mamlakatdir (80 yosh atrofida).

Yaponiya aholining o'rtacha zichligi ko'rsatgichlariga ko'ra dunyoda oldingi o'rinlarda turadi. Mamlakatda har bir km²ga 340 kishi to'g'ri keladi. Aholining ko'pchilik qismi 76 foizi shaharlarda yashaydi. Ko'pchilik shahar aholisi yirik shahar aglomerasiyalarida to'plangan. Mamlakatda urbanizasiya sur'atlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatda ikki yuzdan ortiq shahar bor. Tokio aglomerasiyasi Osaka, Nagoya va bir qator boshqa aglomerasiyalar bilan birga yanada yirik urbanizasiyalashgan «galaktika» Tokkaydo megapolisini tashkil etadi, bu megapolis sohil bo'ylab 600-700 kmga cho'zilib ketgan. Bu yerda aholining zichligi 1 km²ga 800-1000 kishi to'g'ri keladi.

4. Davlat tuzumi.

Yaponiya- konstitusion monarxiya

Mamlakatning hozirgi konstitusiyasi 1947 yilda, yapon xalqining demokratik harakati yuksalgan sharoitda qabul qilingan edi, bu hol unda o'z ifodasini topgan. Imperator faqat davlat «ramzi» deb tan olinadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni parlament amalga oshiradi. Parlamentni 4 yil muddatga saylanadigan 512 deputatdan iborat vakillar palatasi va 6 yil muddatga saylanadigan 252 deputatdan iborat

maslahatchilar palatasi tashkil etadi. Ijrochi hokimiyat bosh vazir tomonidan tuziladigan vazirlar kengashiga qarashli.

5. Xo'jaligi.

1948 yilda kapitalistik sanoat ishlab chiqarishda Yaponiyaning hissasi 1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 80-yillarning oxiriga kelib 10% foizga yetdi. Yaponiya jahonda sanoati rivojlangan ikkinchi mamlakatga aylandi. Mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha AQSH va GFRdan keyingi uchinchi o'rinni egalladi. Yaponiya jahonda eng yirik kredit (qarz) beruvchi mamlakatdir.

So'nggi yillarda chetga kapital chiqarish tez o'smoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarga «yordam» tariqasida davlat zayomlari va kreditlar beriladi, monopoliyalar rivojlanayotgan mamlakatlar xo'jaligining turli tarmoqlariga kapital qo'yadilar.

So'nggi yillarda Yaponiya turli foydali qazilmalarning boy konlari ochilgan va ishlatila boshlagan Avstraliyaga katta kredit bermoqda.

1 mlnga yaqin amerikalik ishchilar Yaponiya yoki AQSH bilan hamkorlikda tuzilgan qo'shma korxonalarda ishlamoqda. Jahondagi birinchi o'nta banklar o'rnini to'la yapon banklari egalladi. Hozirgi vaqtda Yaponiya va AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropa o'rtasida shiddatli «savdo kurashi» davom etmoqda.

Sanoati: Mamlakatning yuqori darajada rivojlangan sanoati o'zining mineral-xom ashyo ba'zasi bilan to'la ta'minlanmagan.

Yaponiya deyarli barcha neft, tabiiy gaz, ko'mir, qora va rangli metall rudalari va boksitning katta qismini chetdan keltiradi.

Energiyaning 4\5 qismi chetdan keltiriladigan xom ashyodan ishlab chiqarilishiga qaramay, mamlakatda yuqori darajada rivojlangan energetika xo'jaligi bor. Mamlakatda yaqin vaqtlargacha elektr energiyasining asosiy qismini Xonsyu orolidagi tog' daryolariga qurilgan ko'pdan-ko'p GESlar berar edi. Keyingi yillarda sharqiy sohildagi shaharlarda chetdan keltiriladigan yoqilgi bilan ishlaydigan qudratli IESlar qurildi. Hozir ham bu stansiyalar Yaponiyada ishlab chiqariladigan elektr energiyasining deyarli 4\5 qismini berar edi. Biroq 1980 yillarning oxiri 90 yillarning boshiga kelib mamlakatga chetdan neft olib kelishi kamaygan bo'lsada, uning mutlaq hajmi yuqoriligicha qolmoqda (200 mln tonna). Uning yoqilg'i iste'molidagi hissasi qisqarmoqda (50%). Mamlakatda ko'mir va Atom energiyasining hissasi o'smoqda. Hozirgi vaqtda 30 dan ortiq AESlar ishlab turibdi.

Yaponiya sanoat tarmoqlarini shartli ravishda 2 ta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga metall va xomashyoni ko'p talab qiluvchi po'lat quyish, avtomobilsozlik va kemasozlik ishlab chiqarish tarmoqlari kiradi.

Yaponiya ushbu ishlab chiqarish sohalari bo'yicha 70 yillarda jahonda yetakchi mamlakat darajasiga erishgan edi. Hozirgi vaqtda bu sanoat tarmoqlarining o'sishi to'xtadi, hatto kemasozlik sanoati keskin qisqarib ketdi.

Ikkinchi guruhga eng fan talab tarmoqlar: robotlar. EHM, yarim o'tkazgichlar, maishiy radioelektronika ishlab chiqarish sohalari kiradi.

Yaponiya ushbu tarmoqlar bo'yicha AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan keskin raqobat olib bormoqda.

Qora metallurgiya- chetdan keltiriladigan ko'mir va ruda asosida ishlaydi. Mamlakat jahonda po'lat quyish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Yiliga 100 mln

tonnaga yaqin po'lat ishlab chiqariladi. Metallurgiya kombinatlari texnik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. (Yirik domna pechlari, po'lat quyishda ilg'or kislorod-konvertor usulidan keng foydalanishi). Metallurgiya kombinatlari qirg'oq bo'yi rayonlarida joylashgan. Bundan tashqari mamlakatda **rangli metallurgiya**ning xilma-xil sohalari shu jumladan alyuminiy ishlab chiqarish sanoati rivojlangan.

Avtomobil sanoati- Avtomobil sanoati dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Mamlakatda yiliga 12 mln dona shundan 8 mln donasi yengil avtomobillar ishlab chiqariladi. Mamlakatdagi «Toyoto», «Nissan», «Xondo» kabi yirik avtomobil konsernlari AQSH va G'arbiy Yevropa avtomobil konsernlari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashib jahon bozorini egallamoqda. Yaponiya kemasozlik sanoati jahonda ishlab chiqarilayotgan kemalarning 1\2 qismini ishlab chiqarmoqda.

Yaponiya fantalab tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ham dunyoda yetakchi. Jumladan maishiy radioelektronika sohasida videomagnitafonlar, rangli televizorlar, radiotexnika qismlari ishlab chiqarish bo'yicha mamlakat jahonda yetakchi.

Yaponiya dunyoda ishlab chiqarilayotgan videomagnitafonlarning 80% ini ishlab chiqarmoqda. Bundan tashqari Yaponiya robotlar ishlab chiqarish bo'yicha ham yetakchilik qiladi. Yaponiyada yiliga 50 ming donadan ortiq robotlar ishlab chiqariladi. Mamlakatda bir qancha «odamsiz» zavodlar ishlab turibdi, ya'ni zavodlarda ishlab chiqarish robotlar yordamida amalga oshirilmoqda. Yaponiyada EHMning beshinchi avlodi ishlab chiqarilayotgan bo'lsada, u ishlab chiqarish hajmiga ko'ra faqat AQShdan keyinda qolmoqda.

B) Qishloq xo'jaligi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ixtisoslashuvi jihatidan Yaponiya boshqa rivojlangan mamlakatlardan ancha farq qiladi. Yaponiya qishloq xo'jaligida 6 mln kishi band. Ishlanadigan yerlar esa mamlakat hududining atiga 16%ini egallaydi. Yaponiyaning asosiy ekini-sholi. Sholidan yiliga 10-12 mln tonna hosil olinadi. Sholining asosiy qismi Xonsyu orolining markaziy va janubiy rayonlarida yetishtiriladi. Xonsyuning shimolida va Xokkaydoda bug'doy, javdar va arpa ekiladi, biroq yetishtiriladigan don mamlakat ehtiyojini ta'minlay olmaydi. Sabzavot va mevalar texnika ekinlaridan qand lavlagi, soya, tamaki, moyli ekinlar, choy ham yetishtiriladi.

Baliq ovlash- Yaponiya xo'jaligining muhim tarmog'i. Baliq sohil bo'yidagi suvlarda ham uzoq dengizlarda ham tutiladi.

Baliq ovlash jihatidan Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Mamlakatda 3 mingdan ortiq baliq ovlovchi portlar bor. Yaponiyaning sohil bo'yi rayonlarida dengiz plantansiyalarda dengiz mahsulotlarini yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

V) Transporti-Yaponiyada transportning daryo va quvur transportidan tashqari barcha turi rivoj topgan: Yaponiya yuk tashish va yo'lovchi tashish hajmiga ko'ra G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan o'zib ketgan. Mamlakat yo'lovchi tashuvchi temir yo'llarning zichligiga ko'ra dunyoda birinchi o'rinda turadi. Mamlakat ichkarisida yuklarni tashishda avtomobil va temir yo'l transportining ahamiyati katta. Mamlakatda 60% temir yo'llar elektrlashtirilib poyezdlarning o'rtacha tezligi soatiga 120 km/c ni tashkil etadi.

Urushdan keyingi yillarda Xonsyu va Kyusyu orollarini bog'laydigan Simonoseki qo'ltig'i suvi tagidan tunnel qurildi. Xonsyu va Xokkaydo orollarini

tutashtirib turuvchi Sugaru bug'ozi suvi tagidan o'tuvchi «Seykan» tunneli 1970 yilda boshlanib 1988 yilda ishga tushirildi. Tunnelning uzunligi 54 km bo'lib, uning 23 kmni qismi suv ostidan o'tgan.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Yaponiya dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSH va YEIX mamlakatlari rivojlanayotgan mamlakatlaridan, Avstraliya, Fors qo'ltig'i mamlakatlari bilan shuningdek Rossiya Federasiyasi bilan faol tashqi iqtisodiy aloqalarini olib boradi.

Tayanch so'zlar:

Geografik o'rin, tabiiy sharoitning qulayligi, mineral resurslarning taqchilligi, bir millatli mamlakat, urbanizasiya sur'atlarining yuqoriligi, aglomerasiya, megapolis, konstitusion monarxiya, Imperator, parlament, bosh ministr, sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning intensiv rivojlanishi.

MAVZU: XITOIY XALQ RESPUBLIKASI.

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoat tarmoqlari.
 - V) Qishloq xo'jaligi.
 - V) Transporti.
6. Tashqi iqtisodiy aloqalar.

Maydoni-9,62 mln km²

Aholisi- 1288,7 mln. (2003)

Poytaxti-Pekin

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan bo'lib, xududining kattaligiga ko'ra **uchinchi** o'rinda turadi. Mamlakat sharqdan g'arbga 5700 kmga shimoldan janubga 3650kmga cho'zilgan. Xitoy 15 ta davlat va xududlar bilan chegaradoshdir. Uning 30 foizdan ortiq chegarasi MDH mamlakatlari bo'ylab o'tgan.

XXR xududi orqali va unga qo'shni MXR va MDH ga Tinch okeani qirg'oqlaridan Yevropa mamlakatlariga qisqa masofali quruqlik yo'li o'tgan. Bu **Dalyan-Xarbin va Manjuriya Pekin-Eren-Xoto va Ulan Bator** yo'nalishidagi temir yo'llar bo'lib, ikkala temir yo'l ham Rossiyadagi Transibir magistraliga chiqish imkoniga ega. XHR ning dengiz bo'yi geografik o'rnining qulayligi muhim ahamiyatga ega bo'lib uning dengiz chegaralarining uzunligi 15 ming kmni tashkil etadi.(7 **provinsiya** dengizi bo'yida joylashgan).

Xitoyning sharqiy qirg'oqlarini Sariq, Sharqiy-Xitoy, Janubiy Xitoy dengizi suvlari yuvib turadi.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Xitoy hududi tabiiy sharoitining va resurslarining xilma-xilligi bilan katta farq qiladi. Mamlakat maydonining 75 foizga yaqinini tog'lar, yassi tog'liklar, tog' oralig'idagi botiqlar egallagan.

Xitoy jahonda mineral resurslar bilan yaxshi ta'minlangan mamlakat. Mamlakat toshko'mir, qora va rangli metallar, nodir elementlar, tog'kon ximiya xomashyosi zaxirasi bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarni egallaydi.

Bundan tashqari Xitoyning g'arbiy rayonlari to'la tadqiq qilinmagan.

Xitoyda toshko'mir konlari barcha provinsiya bo'yicha joylashgan, biroq sanoat ahamiyatiga ega boy ko'mir konlari va shimol va shimoliy-sharqda joylashgan. Bu yerda eng yirik Shanxay, Shensi, Kayluan, Fushun va Fusin ko'mir xavzalari joylashgan. Xitoy ko'mirning umumiy zaxirasi bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi, lekin qazib olish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi.

Xitoyda neft va gazning aniqlangan zaxirasi (3 mlrd va 200 mlrd³) faqat neft qazib oluvchi mamlakatlardan orqada turadi, biroq neft qazib chiqarish bo'yicha jahonda beshinchi o'ringa chiqdi.

Asosiy neft konlari Shimoliy Xitoyda (Boxay qo'ltig'i qirg'oqlarida) Shimoliy-Sharqiy Xitoyda, Bundan tashqari ichki Xitoyning Jung'oriya va Saydam botig'ida joylashgan.

Gaz qazib olish. Schuan botig'ida qazib olinmoqda.

Bundan tashqari Xitoyda yonuvchi slanets ham qazib olinmoqda. Mamlakatda juda hilma-xil rudali foydali qazilmalar qazib olinmoqda.

Yirik temir ruda zaxirasiga ega bo'lgan Anshan havzasi shimoliy-sharqiy Xitoyning boy ko'mir konlari havzasi yaqinida joylashgan. Mamlakat temir ruda zaxiralari bo'yicha (**5 mlrd t**) dunyoda uchinchi o'rinda turadi.

Rangli metall ruda konlari janubiy va markaziy provinsiyalarda to'plangan. Bu yerdan **alyuminiy** xom-ashyosi, **mis, qalayi, rux, surma, oltin, kumush qazib olinadi**. Mamlakatning ko'pgina rayonlarida osh va tosh tuzi, fosforitning yirik zahira konlari joylashgan.

Mamlakat **mo''tadil, subtropik** va **tropik iqlim mintaqalarida joylashgan**.

Xitoyning g'arbiy qismida iqlim keskin kontinental (xaroratning yillik va sutkalik amplituda farqi yuqori). Ayniqsa shimoli-g'arbiy rayonlarga yog'in kam tushadi.

Xitoyning sharqiy qismi uchun musson iqlimi xos bo'lib, yozgi yog'in miqdorining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu yerda yoz oylarida issiq, qishda esa shimolida sovuq (yanvarning o'rtacha harorati -30C daraja), janubda esa-iliq (+18C). Yozgi issiq va yomg'irli mavsumda harorat shimol va janub o'rtasida unchalik farq qilmaydi. Iyulning o'rtacha harorati shimoliy-sharqiy Xitoyda 24 ni janubiy Xitoy dengizi qirg'oq bo'ylarida va ichki Mangoliyada 26-28 ni tashkil etadi.

Xitoy iqlimining xarakterli xususiyati yog'inlarning taqsimlanishida keskin farqning mavjudligi. Yog'in miqdori janubi-sharqdan shimoli-g'arbgacha tomon kamayib boradi.(1200-1400 mm dan 100 mm gacha kamayadi).

Unumdor tuproqli yerlar mamlakatning sharqida ya'ni Buyuk Xitoy tekisligida joylashgan. Bu rayon Xitoyning asosiy dehqonchilik rayoni xisoblanadi. Mamlakatning g'arbida dehqonchilik faqat daryo vodiylarida va vohalardagina olib boriladi. Bu yerlarda chorvachilik sohasi ustun darajada rivojlantirilgan.

Yog'inlarning notekis mavsumiy holda yog'ishi qishloq xo'jaligi sohasida sug'orib dehqonchilik qilishni taqozga etgan. Qishloq xo'jaligida nafaqat sholi sug'orib yetishtiriladi balki bug'doy ham sug'orib yetishtiriladi.

O'rmon resurslarining asosiy qismi shimoli sharqda va janubi sharqda joylashgan. Tabiat zonalari shimoldan janubga kenglik bo'yicha almashinadi. Tog'larda esa balandlik mintaqalari yaxshi aks etgan.

Xitoy suv resurslari(50 mingdan ortiq daryo) bilan juda yaxshi ta'minlangan, biroq suv resurslari xududlar bo'yicha notekis taqsimlangan.

Mamlakatning sharqiy qismi suv resurslariga juda boy. Xitoy daryolari ichki berk oqim havzalari (Sinxay-Tibet tog'li rayoni) Shimoliy Xitoy va Tinch okeani, Hind va Shimoliy Muz okeani hovzalariga-tashqi oqim oblastiga kiradi. Yanszo', Xuanxe, Amur, Xuayxe, Chjuszyan Tinch okeanga quyiluvchi eng yirik daryolar hisoblanadi.

3. Aholisi:

Xitoy dunyoda aholisi soni eng ko'p mamlakat (Dunyo aholisining 20%i yashaydi). XX asrning boshlarida bu yerda aholining o'rtacha umr ko'rishi 30 yoshdan kam yoshni tashkil qilardi. Tug'ilishning yuqoriligi (30-40 promille) va o'limning yuqoriligi (25-30 promille) aholisi soni tabiiy ko'payishning unchalik yuqori emasligi xos edi. O'sha vaqtda Xitoy aholisi 400mln kishini tashkil etar edi.

1950 yillarda (XXR tashkil topgach) mamlakatda demografik holat o'zgardi. Tug'ilishning oldingi yillardagidek yuqoriligi, **tibbiyot** xizmatining yaxshilanishi natijasida o'limning kamayishi, aholi turmush darajasining oshishi aholi sonining tez sur'atda o'sishiga olib keldi.

1970 yillarda mamlakatda tug'ilishni kamaytirish maqsadida demografik siyosat dasturi e'lon qilindi. Mamlakatda oilani rivojlantirish siyosati o'z samarasini bera boshladi. (ayniqsa shaharlarda).

Mamlakatda 1993 yillarda har ming kishiga hisoblaganda tug'ilish 19 kishiga o'lim esa 6,4 kishiga, tabiiy ko'payish esa jahonning o'rtacha ko'rsatkichidan kam 11,5% ni tashkil etdi. Xitoy aholisi tarkibi yosh (Umumiy aholining 30%ini 15 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi).

Mamlakatda ko'p sonli mehnat resurslari mavjud biroq so'nggi yillarda sanoat rivojlangan bo'lasada ularning katta qismi qishloq xo'jaligida band.

Mamlakat bo'yicha va chetga mehnat resurslarining migrasiyasi yuqori. Xitoydan tashqarida ya'ni chet elda **60 mln** kishi yashamoqda. Ular Tayvanda (21mln), Gonkongda (6 mln) Janubi-Sharqiy Osiyo-Indoneziya, Malayziya, Taylandda, Singapurda yashaydi. AQSH da 13 mln etnik Xitoylar yashaydi.

Biroq xorijiy Xitoyliklar nafaqat son jihatdan, balki sifat jixatdan ham katta mavqega ega. Masalan: Xitoyda bir yilda 650 mlrd dollarlik miqdorda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarilsa, (1,2 mlrd aholi). Bu vaqtda 60 millionlik xorijiy Xitoyliklar esa yiliga 450 mlrd dollar qiymatida tovar va xizmatlar ishlab chiqaradi.

4. Davlat tuzumi. Xitoyning 1894-1895 yillardagi bo'lib o'tgan Yapon-Xitoy urushidagi mag'lubiyati, Mustamlakachi mamlakatlarning yangidan bosqinchilik yurishlari uchun sharoit yaratdi. Natijada Yanszo' daryosi xavzasidagi provinsiyalar Angliya, mamlakatning janubiy qismi Fransiyaga qisman Angliyaga Shandun-Germaniya, Fuzzyan-Yaponiya, Buyuk Xitoy devoridan shimoliy xududlargacha **Rossiya imperiyasining nazorati ostiga o'tdi.**

1912 yildagi **monarxiyaning ag'darilishi** Xitoy Respublikasining tashkil topishi mamlakatning yarim feodal va yarim mustamlakachilik xolatini o'zgartirmadi.

1927 yildagi reaksion davlat to'ntarishidan so'ng mamlakatda gomindanchilar rejimi o'rnatildi.

Ikkinchi jaxon urushidan so'ng mamlakatni Xitoy Xalq Ozodlik armiyasining Yapon bosqinchilaridan to'la ozod qildi.

1949 yil 1-oktabr kuni Xitoy Halq Respublikasi tashkil topdi.

1950 yilning bahorida mamlakatda fuqarolar urushi tugadi, gomindanchi qo'shinlarning qolgan qutganlari (Chan-Kayshi) Tayvan orliga o'rnashib oldi, va Xitoy Respublikasi tashkil topdi.

Xitoy Xalq Respublikasi konstitusiyasiga binoan (1982 yil) Halq vakillari umumxitoy majlisi (XVUM)- Davlat xokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi, XVUM Doimiy komiteti uning doimiy ishlaydigan organidir. XVUMning vakolat muddati - 5yil. XVUM XXR Raisi va uning o'rinbosarini, XVUM Doimiy komitetining raisini va shu komitet sostavini uning davlat xokimiyatining oliy ijroiya organi bo'limi markaziy xalq xukumati XHR Davlat kengashining bosh vaziri nomzodi va shu kengash tarkibini tasdiqlaydi.

Mamlakat ma'muriy-hududiy jihatdan 22 provinsiya, 5 muxtor rayonlariga va 3 markazga bo'ysunuvchi (Pekin, Shanxay, va Tyanszin) shaxriga bo'linadi.

Xitoy bir necha asr ilgari mustamlakachi mamlakatlar (Portugaliya va Angliya) tomonidan tortib olingan Makoa oroli (1999 y 20 dekabrda) va Syangan oroli (1997 y 1 iyun) ustidan o'z nazoratini o'rnatdi. Xitoy Xalq Respublikasi Tayvan orolini o'zining ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi. Xitoy Xalq Respublikasi BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi.

5. Xo'jaligi.

Xitoy xo'jaligi avvalo iqtisodiy-ijtimoiy reja bo'yicha rivojlanayotgan davlatdir. Xitoy so'nggi o'n yilliklar davomida yirik industrial davlatga aylandi. U sanoat ishlab chiqarishining umumiy xajmiga ko'ra dunyoda to'rtinchi-beshinchi, sanoat korxonalarining soniga. (750 ming) va undagi ish bilan band kishilar soniga ko'ra esa birinchi o'ringa chiqdi. Endilikda Xitoyning iqtisodiy qiyofasini ko'p jixatdan og'ir sanoat belgilaydi; bu sanoat asosan mamlakatning o'z resurslariga tayanadi.

Xitoy Xalq Respublikasi so'nggi yillarda tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan industrial-agrar sosialistik mamlakatdir.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni Xitoy barcha hududlarida bir xil sur'atda rivojlanayapti.

Mamlakatda so'nggi yillarda xorijiy investisiyalarni jalb qilish maqsadida dengiz bo'yi provinsiyalarda maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) tashkil etildi. Natijada mamlakatga xorijiy investisiya kirib kela boshladi. Faqat so'nggi besh (1990-1995) yilda ularning xajmi 110 mlrd dollarni tashkil etdi. (Shuning 80%i dengiz bo'yi provinsiyasiga to'g'ri keladi).

Sharqiy Xitoy islohotlaridan oqilona foydalanishi natijasida katta yutuqlarga erishildi. Xitoyning bu zonasi mamlakat hududining 25% ini egallaydi, aholining 2/3 qismida yashaydi.

A) Sanoati.

YOqilg'i energetikasi. XXR sanoati tuzilishida og'ir industriyaning ahamiyati juda katta. YOqilg'i energetika tarmog'ida toshko'mir qazib chiqarish muhim rol o'ynaydi.

Toshko'mir mamlakatda energiyaning asosiy manbai hisoblanadi. Asosiy ko'mir xovzalari Shimoli- Sharqiy va Shimoliy Xitoydadir. Shimoli- Sharqda Fushun va Fusunda ko'mir qatlamlari qalin bo'lib, shaxta usulida va ochiq usulda qazib olinadi. Ko'mir bu yerdan barcha marqazlariga jo'natiladi. Shimoliy Xitoyda ko'mir ko'proq shaxtalardan qazib olinadi, biroq ko'mir konlari metallurgiya markazlariga, yirik shaharlarga yaqinligi sababli o'zini oqlaydi. Neft sanoati Shimoli-G'arbdagi cho'llar va tog'larda, Qizil havzada (Sichuan viloyatida) shuningdek, mamlakatning shimoli-sharqi va sharqida yangidan bunyod qilindi. Mamlakatning asosiy koni Dasinga mamlakatda qazib olinadigan neftning yarmi to'g'ri keladi. Elektr energiya ishlab chiqarishining 3\4 qismi yoqilg'i elektr stansiyalariga to'g'ri keladi. Xitoyda gidroenergetikani rivojlantirish bo'yicha juda katta dasturlardan biri amalga oshirilmoqda: GES larning bosh kaskadlari Yanszi va Xuanxe daryolarining yuqori oqimlarida qurilmoqda. Birinchi ikkita AES qurildi.

Qora metallurgiyani - asosiy markazlari kokslanuvchi yirik ko'mir va ruda konlari bo'lgan uchta rayonda vujudga kelgan. Shimoli- Sharqda Anshanda metallurgiya kombinati va boshqa markazlarda metallurgiya zavodlari ishlab turibdi. Bu yerda yiliga 7-8 mln tonna cho'yan eritiladi. Shimoliy Xitoyda eski zavodlar rekonstruksiya qilindi.

Rangdor metallurgiya (mis, qo'rg'oshin, rux, alyuminiy, magnit eritish) zavodlari Shimoli-Sharqda va boshqa rayonlarda joylashgan. Janub va janubi-g'arbda rangdor metall rudalari qazib olinadi, mis, qo'rg'oshin, volfram, qalayi va surma eritiladi.

Mashinasozlikning eng muhim markazlari-Shenyan (Og'ir mashinalar va stanoklar ishlab chiqaradi) Xarbin, Tyanszin, Pekin, Taylan, Markaziy viloyatlarda, ayniqsa, Yanszi bo'yidagi shaharlarda (Chunsin, Uxan, Nankinda) mashinasozlikning rivojlanishiga bu joylar iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi, qora va rangdor metallurgiya markazlariga yaqinligi yordam beradi.

Yengil va oziq-ovqat- sanoati uchun turli jixozlar, priborlar, uy-ro'zg'or uchun texnikaviy asboblari, dengiz kemalari ishlab chiqarishda Shanxay yetakchi o'rinda turadi.

Ximiya sanoati- uchun kerakli xomashyo Xitoyning barcha rayonlarida bor. Shimoliy-Sharqda va Shimolda koks, sulfat kislota, o'g'it, soda, slanes va neftdan suyuq yonilg'i ishlab chiqariladi. Yanszi daryosi vodiysida asosan mineral o'g'itlar ishlab chiqariladi.

To'qimachilik sanoati- Xitoy sanoatining yetakchi tarmog'idir. U asosan ichki bozorga xizmat ko'rsatadi; Xitoyliklarning aksariyat qismi ip-gazlamadan tikilgan kiyim kechak kiyadi. Xitoy bu jixatdan dunyoda birinchi o'rinda turadi.

B) Qishloq xo'jaligi- mamlakat qishloq xo'jaligida 400mln kishi band. Xitoy xududining atigi 1g'8 qismigina ishlanadi. Sharqiy rayonlarda yerlarning ko'p qismi xaydalgan.

80-yillar Xalq kommunallari 66 dan oila pudratiga o'tilgach, qishloq xo'jaligi anchagina daromadli tarmoq bo'lib qoldi, asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari xosili sezilarli darajada oshdi. 1990 yil esa mamlakatda g'alla ekinlaridan rekord xosil olindi, ya'ni 450 mln tonna don olindi.

Asosiy sholikorlik rayonlari bo'lgan Yanszi xovzasida va mamlakatning janubida bir yilda ikki marta xosil olinadi. Bug'doydan sholiga qaraganda to'rt barobar kam xosil olinadi. Bug'doy ko'p ekiladigan yerlar Xuanxe xovzasida asosan Buyuk Xitoy tekisligida joylashgan. Mamlakatning sharqiy qismida kartoshka, batat, sabzavot ekinlari yetishtiriladi.

Texnika ekinlaridan paxta yetishtiriladi. Paxtachilik Xuanxe va Yanszi xovzalarida va g'arbdagi vohalarda rivojlangan. Xitoyning janubi-sharqiy va janubiy qismlarning tog'larning terrasalangan yon bag'irlarida ikki ming yildan ko'proq vaqtdan buyon yuzlab xil choy navlari yetishtirilib kelinadi.

Chorvachilik - Xitoyda mollar soni ko'p, lekin aholi jon boshiga hisoblanganda u ko'p mamlakatlardan keyin turadi. Mamlakatdagi Xitoy bo'lmagan xalqlar (mongollar, tibetlar, uyg'urlar, dunganlar) tarqalgan «Quruq Xitoy» qismida ekstensiv ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi chorvachilik ustun turadi. Janubi G'arbdagi «Sovuq Xitoyda» (Tibetda) esa; qishloq xo'jaligi umuman sust rivojlangan.

V) Transporti- Xitoyda temir yo'l transporti yetakchi o'rinda turadi. Teimr yo'llarining yarmiga yaqini shimoli sharqiy va Shimoliy Xitoyda bo'lib, g'arbiy rayonlarda faqat ikkita temir yo'l bor. Xitoyda avtomobil transporti sharqiy rayonlarda rivojlangan. XHR ning tashqi savdosi yuklarining asosiy qismi dengiz portlari orqali o'tadi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari

Xitoy 1990 yillardan keyin Rossiya, AQSH, Yaponiya, kabi mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirmoqda.

Eksporti tog'-kon, yengil va oziq ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq maxsulotlari.

Importi mashinalar, mineral o'g'itlar, g'alla, xarbiy texnikalar dan iborat.

Tayanch so'zlar.

Qulay geografik o'rin, xilma-xil va tabiiy sharoit va boy mineral resurslar, eng seraholi mamlakat, demografik siyosat, yirik xalqlar, kam sonli millatlar, iqtisodiy rivojlanishdagi hududiy tafovutlar, sanoat, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlarining rivojlanishi.

MAVZU: INDONEZIYA.

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Kishloq xo'jaligi.
 - V) Transporti.
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Hududi- 1919400km²

Aholisi- 220,5 mln. kishi (2003)

Poytaxti- Jakarta

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Indoneziya Respublikasi Janubi-Sharqiy Osiyodagi davlat. Dunyodagi eng katta Malay arxepelagining 17,5 ming oroli va Yangi Gvineya (G'arbiy Irian) orolining g'arbiy qismida joylashgan.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Indoneziya hududining yarmidan ko'prog'i o'rtacha baland va pastqam tog'lardan, Yangi Gvineyada qisman baland tog'lardan (eng baland joyi-5029 m) qolgan qismi allyuvial tekisliklardan iborat. Orolida 400 dan ortiq vulqon bor, shundan 100 tasi harakatdagi vulqonlardir. Tektonik harakatlar natijasida tez-tez kuchli zilzilalar bo'lib turadi. Mamlakatda neft, ko'mir, temir, marganes, qalayi rudalari, boksit, mis, qo'rg'oshin, rux, alyuminiy, nikel va fosfat konlari bor. Indoneziyaning katta qismida ekvatorial, Yava orolining sharqiy va Kichik Zond orollarida subekvatorial iqlim mintaqalari joylashgan.

3. Aholisi.

Mamlakat aholisi soniga ko'ra dunyoda Xitoy, Hindiston, AQShdan keyin 4-chi o'rinda turadi. 2003 yilda aholi soni Indoneziyada 220,5 mln kishini tashkil etdi. Mamlakatda aholi notekis joylashgan. Aholi zichligi 1kv kmga 116 kishini tashkil etib, bu borada Indoneziya dunyoda 19-o'rinda turadi. Mamlakatda aholining 87 foizi islom diniga, 6 foizi protestant, 3 foizi katolik, 3 foizi buddizm diniga e'tiqod qiladi. Davlat-tili indonez tili hisoblanadi. Indoneziyada 150 dan ortiq elatlar yashaydi, ular orasida eng ko'p sonlilari-yavaliklar, sundlar, madurliklar, 3 mln dan ko'proq xitoylar yashaydi.

4. Davlat tuzumi.

XIV asrda Hindiston va Malakkadan Indoneziyaga islom dini kirib keldi. XVI asrdan Majapaxit imperiyasi musulmon sultonliklarga bo'linib ketgach, Indoneziya hududiga yevropaliklar (portugallar, gollandlar) kirib kela boshladi. 1602 yilda gollandlar Indoneziyada Ost-Indiya kompaniyasiga asos soldi. 1811 yili Indoneziyani inglizlar bosib oldi. 1814 yilgi Angliya-Niderlandiya bitimiga ko'ra Indoneziya Niderlandiya qo'lga o'tdi. 1942-1945 yillarda Indoneziya Yaponiya bosib oldi. Yaponiya II jahon urushida mag'lubiyatga uchragach, mamlakat mustaqil Indoneziya Respublikasi deb e'lon qilindi. (1945 yil 17 avgust). 1945 yil 6 sentabrda Indoneziyaga ingliz, keyinroq golland qo'shinlari bostirib kirdi. 1949 yil noyabrda Gollandiya Indoneziya mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Biroq Indoneziya 16 hududga bo'linib tashlandi. Mamlakat «Indoneziya Qo'shma Shtatlari» nomi bilan yuritila boshlandi. Gollandiya G'arbiy Irianni o'z qo'l ostida saqlab qoldi. 1950 yil 6 avgustda Indoneziya unitar davlat deb e'lon qilindi. 1953 yil 1 mayda G'arbiy Irian Indoneziya Respublikasi tarkibiga qo'shib olindi. Indoneziya-unitar respublika. Davlat va hukumat boshlig'i prezident, Qonun chiqaruvchi oliy organ-Xalq Maslahat Kongressi. Amaldagi konstitusiyasi 1945 yil 18 avgustda qabul qilingan. Ijroi hokimiyatni prezident o'zi tayinlagan hukumat bilan birga boshqaradi.

5. Xo'jaligi.

A) Qishloq xo'jaligi.

Indoneziya-agrar-industrial mamlakat. Qishloq xo'jaligi Indoneziya iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mehnatga yaroqli aholining yarmidan ko'prog'i qishloq xo'jaligida band. Mamlakat tabiiy kauchuk va palma yog'i ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Indoneziya daraxt yog'ochidan

yasalgan buyumlar, tamaki, choy, qahva, ziravor-dorivorlar, shuningdek, baliq va dengiz mahsulotlari yetkazib beruvchi eng katta davlatdir. Mamlakatda donli ekinlardan sholi, makkajo'xori ekiladi.

Chorvachilik tarmog'ida qoramolchilik, cho'chqachilik, echkichilik, qo'ychilik, yilqichilik va parrandachilik muhim o'rin tutadi.

B) Sanoati.

Indoneziya hududining 65 foizi o'rmon bilan qoplangan bo'lib, qimmatbaho yog'och tayyorlanadi. Konchilik sanoati byudjet tushumlarining ancha qismini ta'minlaydi. Mamlakatda yiliga o'rtacha 576 mln barrel neft qazib olinadi. Indoneziya suyultirilgan tabiiy gazni chetga chiqarishda dunyoda birinchi o'rinda, nikel qazib olishda to'rtinchi o'rinda qalayi qazib olishda ikkinchi o'rinda, turadi. Mahsulot ishlab chiqarish sanoatining asosini iste'mol mollari: gazlama, charm buyumlar, ro'zg'orbop kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek sholi oqlash, tamaki, qand shakar, choy, yog', ip-gazlama, jun, qurilish materiallari, farmasevtika va poligrafiya, konditer korxonolari va mineral o'g'it, shina zavodlari ishlab turibdi. Mamlakatda yuksak texnologiyali tarmoqlardan kemasozlik, samolyotsozlik, neft kimyosi, avtomobil yig'ish, radioelektronika sohalari jadal rivojlanmoqda.

V) Transporti.

Mamlakatda temir yo'llarning umumiy uzunligi 6964 km, avtomobil yo'llarining uzunligi 119500 km ichki suv yo'llari 21579 kmni tashkil etadi. Shuningdek dengiz transportining ahamiyati katta bo'lib, mamlakatda Tanjungprion (Jakarta porti), Surabaya, Palembang, Balikpapan, Ujungpan kabi yirik dengiz portlari ishlab turibdi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Indoneziya jahoning Yaponiya, AQSH, Singapur, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni olib boradi.

Tayanch so'zlar.

Siyosiy iqtisodiy geografik o'rni, mineral xom ashyo resurslari, aholi soni va o'sishi, unitar respublika, iqtisodiyot tarmoqlari (qishloq xo'jaligi sanoat transport), agrar-industrial mamlakat, tashqi iqtisodiy aloqalari.

MAVZU: AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI (AQSH)

REJA

- 1) Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
- 2) Tabiiy sharoiti va resurslari.
- 3) Aholisi.
- 4) Davlat tuzumi.
- 5) Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Qishloq xo'jaligi
 - V) Transporti.
- 6) Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Maydoni- 9363200 km²

Aholisi- 291,5 mln. kishi (2003)

Poytaxti- Vashington

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Amerika Qo'shma Shtatlari ko'pgina iqtisodiy ko'rsatgichlar bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakat hisoblanadi. AQSH demokratik respublika, mamlakat 50 ta shtat va Kolumbiya federal okrugidan (Poytaxti Vashington shahri) iborat. Mamlakatning 48 shtati yaxlit holda, faqat 2 ta shtati-Alyaska (Chor Rossiyasi tomonidan 1869 yilda sotib yuborilgan) va Gavayi oroli alohida asosiy hududlardan uzoqda joylashgan.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

AQShning bugungi gullab yashnashida o'zlashtirilgan bepoyon tabiat boyliklari muhim rol o'ynaydi. AQSH g'arb dunyosida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, uran zaxirasi bo'yicha birinchi, gaz, mis, rux zaxirasi bo'yicha ikkinchi, neft, temir rudalar zaxirasi bo'yicha oltinchi o'rinni egallaydi. Ba'zi bir foydali qazilma turlari (yoki umuman yo'q) xrom, marganes, kobalt, nikel yetishmaydi. Ayni vaqtda ko'plab qazib olinayotgan konlar tugab borayapti (Asosan neft, tabiiy gaz va temir ruda konlari.)

Suv resurslari mamlakatning sharqiy qismida to'plangan. Bu yerdan AQSH ning bosh daryo arteriyasi Misisipi oqib o'tadi. U o'zining irmoqlari bilan birgalikda transport, energetika, sug'orish maqsadlarida yirik xo'jalik ahamiyatiga egadir. AQSH ning shimoliy-sharqiy qismida Kanada bilan chegaradosh hududda dunyodagi eng yirik ko'llar sistemasi-Buyuk amerika ko'llari joylashgan.

Mamlakatda tabiiy unumdor tuproqli yerlar katta maydonni egallaydi. Ayniqsa AQShning markaziy qismi va preriya'dagi qora tuproqli yerlar o'zlashtirilib mamlakatning asosiy donkor rayoniga aylantirildi.

Mamlakatning o'rmon resurslari XX asrning o'rtalariga kelib kishilarning xo'jalik faoliyati ta'sirida kuchli kesib yuborilgan. AQSH hududining 1/4 qismi o'rmonlar bilan qoplangan, so'nggi yillarda ikkilamchi o'rmonlar maydoni kengayib bormoqda. AQShning Alyaska yarim oroli va Kordilyera tog'lari o'rmonlar bilan qoplangan.

3. Aholisi

Amerika Qo'shma Shtatlari aholi soni bo'yicha dunyoda Xitoy va Hindistondan keyin uchinchi o'rinda turadi. Amerika aholisining shakllanishida immigrasiya jarayoni hal qiluvchi rol o'ynagan. XIX asrning oxirida mamlakatga ko'chib keluvchilarning aksariyatini G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ko'chib kelganlar tashkil etar edi. Keyinchalik Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan immigrant

oqimlarning kelishi kuchaygan bo'lsa, hozirgi vaqtda Amerika va Osiyo mamlakatlaridan ko'chib kelganlar ko'pchilikni tashkil etmoqda.

AQShning hozirgi aholisi bir qancha asosiy etnik guruxlar (kelib chiqishi italyanlar, nemis, kanadalik, meksikalik bo'lgan kishilar) va aborogen guruxi (indeyeslar): eskimoslar, aleutliklar, gavayiliklardan iborat. AQShda kelib chiqishi yevropalik bo'lgan amerikaliklar mamlakat aholisining 80 foizini tashkil etadi. AQSH aholisi orasidagi muhim etnik-irqiy gruppani negrlar tashkil etadi. 1990 yillarning boshlariga kelib ularning soni 30 mln kishini tashkil etdi. Bu mamlakat aholisining 12 foizini tashkil etadi, ular bu yerga mamlakatning janubiy plantasiyalarida ishlash uchun Afrika qit'asidan olib kelingan.

Mamlakatda har bir kvadrat kilometrda 28 kishi to'g'ri keladi, biroq aholi notekis joylashgan. Mamlakatda aholi Shimoli-Sharqiy rayonda har bir kvadrat kilometrda 100 kishi, shimoliy qishloq xo'jaligi va tog'li shtatlarida 2 kishidan 11 kishigacha, Alyaskada esa undan ham kamroq kishini tashkil etadi.

AQSH dunyo mamlakatlari ichida yuqori darajada urbanizatsiyalashgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisining 75 foizi shaharlarda yashaydi. Hozirgi vaqtda AQShda 8 ta millioner shaharlar bo'lib, bularga; Nyu York, Chikago, Los-Anjelos, Xyuston, Filadelfiya, Detroyt, Dallas, San-Diyego kabi shaharlar kiradi. Mamlakatda bir qancha qo'shni shaharlar aglomeratsiyalar bir-biri bilan birlashib yirik shaharlar to'plami (megapolislar)ni hosil qilgan. Bunday yirik megapolislarga Bosvash (Bostondan Vashingtongacha), Ko'lbo'yi (Miluokidan Pittsburggacha), Kaliforniya yoki «San-San (San-Fransiskodan San-Diyegogacha) kabi megapolislarini misol keltirish mumkin.

AQSH qishloq xo'jaligi bilan band aholi bir-biridan uzoqda joylashgan fermalarda yashaydi.

4. Davlat tuzumi.

AQSH-Federativ Respublika, Davlat boshlig'i-Prezident hisoblanadi, u 4 yil muddatga saylanadi. Prezident hukumat boshlig'i va qurolli kuchlar bosh qo'mondoni hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi Oliy organ Kongress ikki palatadan, ya'ni Vakillar va Senatdan iborat. Mamlakatda asosiy 2 ta siyosiy partiya respublikachilar va demokratik partiya vakillari prezidentlik siyosiy saylovlarida ishtirok etib mamlakat hukumatini navbatma-navbat boshqarib kelmoqda.

AQSH BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi hamdir.

5. Xo'jaligi.

AQSH dunyoda sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatdir. Mamlakat elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qilsa, neft, tabiiy gaz, ko'mir qazib olish va po'lat ishlab chiqarishda jahon mamlakatlar uchligiga kiradi. Bundan tashqari AQSH dunyoda ximiya sanoatining rivojlanishi darajasi bo'yicha, rangli metallar, avtomobil va samolyotlar, elektronika, elektrotexnika va aerakosmik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik mavqeini saqlab qolmoqda.

AQSH dunyoda donli ekinlar ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi, qishloq xo'jaligi xomashyosi eksporti bo'yicha esa dunyoda birinchi o'rinni egallaydi.

Amerika iqtisodiyotining harakterli xususiyati kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada konsentratsiyalashuvidir. Amerikaning yirik korporatsiyalari o'z ishlab chiqarish harakteriga ko'ra transmilliy hususiyatga ega.

Jahondagi yirik 500 ta transmilliy korporosiyalarining 100 dan ortig'i Amerika korporosiyalari hisoblanadi. Ushbu korporosiyalar ro'yxatida «Cieneral Motors», «Exxon», «Ford Motor», «IBM» kabi korporosiyalar oldingi o'rinlarda turadi.

AKSHning xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlariga elektrotexnika va elektron sanoati (ayniqsa elektron hisoblash mashinalarining eng so'nggi turlarini ishlab chiqarish), aviakosmik, harbiy, atom va biotexnologiya kabi sanoat tarmoqlari kiradi.

AKSH ilmiy va injener xodimlar soni, hamda ilmiy tadqiqot shuningdek tajriba konstruktorlik loyihalariga ajratilayotgan harajatlar bo'yicha ham yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar orasida alohida ajralib turadi.

A) Sanoati

Energetika-AQSH eng qudratli yoqilqi-energetika sanoatiga ega. Uning asosini ko'mir,neft va tabiiy gaz bilan yaxshi ta'minlangan energiya resurslari tashkil etadi.

Ko'mir sanoati-mamlakatning muhim sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. AQSH ko'mir qazib olish hajmi bo'yicha Xitoy va Rossiyadan keyingi o'rinda turadi. Mamlakatda ko'mirning asosiy qismi Appalachi ko'mir hovzasidan qazib olinadi. Shuningdek ko'mir Markaziy hovzada (Illinoys va Indiana shtatlarida), Vayoming, Kalarado,Nyu-Meksika kabi tog'li shtatlarda qazib olinmoqda. AQShda jami ko'mirning $\frac{2}{3}$ qismi ochiq usulda qazib olinadi. Qazib olinayotgan ko'mirning asosiy iste'molchisi issiqlik elektr stansiyalari (IES) hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mamlakatda yiliga 1 mlrd ga yaqin ko'mir qazib olinmoqda.

AQShda neftga bo'lgan ehtiyoj mamlakat ichki qismidan qazib olinayotgan neft va Kanada, Venesuela va Fors qo'ltig'i mamlakatlaridan import qilinayotgan neft hisobiga qondirilmoqda. AQSH neftning aniqlangan zaxirasi bo'yicha g'arbning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar orasida birinchi va dunyodagi birinchi o'nlik mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakatning asosiy neft qazib oluvchi shtatlarga Texas, Luiziana, Alyaska, Kaliforniya kabi shtatlar kiradi.

Mamlakatlarning tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoji Texas, Luiziana, Oklaxoma, Nyu-Meksika, Vayoming shtatlaridan qazib olinayotgan tabiiy gaz va Kanadadan import asosida olib kelinayotgan tabiiy gaz hisobiga qondirilmoqda. AQSH tabiiy gaz qazib olish bo'yicha faqat Rossiyadan keyinda turadi. Neft AQSH yoqilg'i-energetika xo'jaligining asosini tashkil etadi. Dunyoning eng yirik neft monopoliyalariga «Eksson», «Teksako», «Golf oyl» kabi korporosiyalari kiradi.

AQSH elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha ham elektrostansiyalarning yalpi quvvati bo'yicha ham dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Elektro energiya ishlab chiqarish tarkibida ko'mir,gaz,mazutga tayanib ishlovchi issiqlik elektrstansiyalarining ulushi 70 foizni, 22 foizni GES va AESlarga, muqobil energiya manbalari (geotermal, quyosh va shamol stansiyalariga 1 foiz to'g'ri keladi) AQSH AESlarda ishlaydigan energiya bloklarining soni bo'yicha ham dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Atom elektrostansiyalar asosan sharqda qurib ishga tushirilgan.

Mamlakatda mingdan ortiq GESlar ishlab turibdi.Eng yirik katta elektr stansiyalar Tennesi va Vashington shtatlar qurilgan. Vashington shtatida esa Kolumbiya daryosiga umumiy quvvati 20 mln kvt bo'lgan dunyodagi eng yirik GESlar kaskadi bunyod etilgan.

Kora metallurgiya- sanoati AQShning shimolida Illi-noys, Indiana, Ogoyo,Pensilvaniya, Merelend kabi shtatlarida qurib ishga tushirilgan. Mamlakat

qora metallurgiya sanoati Appalachi rayoni havzasidan qazib olinayotgan kokslanuvchi ko'mirga va Buyuk ko'llar rayonidan qazib olinayotgan temir rudaga tayanib ishlaydi. Biroq so'nggi yillarda Kanada va Lotin Amerikasi mamlakatlaridan xom-ashyo resurslarining tashib kelinishi mamlakatning Atlantika sohillarida qora metallurgiyani yangi markazlari (Baltimor, Filadelfiya) vujudga keldi.

Rangli metallurgiya-korxonalarining ko'pchiligi tog'li shtatlardagi yirik konlar atrofida joylashgan. Jumladan mis, rux, qo'rg'oshin quyish korxonalari Montana, Yuta, Aydaxo, Arizona shtatlarida joylashgan.

Mamlakatdagi yirik metallurgiya rayonlaridan yana bir Tinch okean shimoli-g'arbiy rayoni hisoblanadi. Ushbu rayon o'ziga Kolumbiya daryosiga qurilgan GESda ishlab chiqarilayotgan elektr energiya, mahalliy va tashib keltiriladigan xom ashyoga tayanuvchi mis va alyuminiy ishlab chiqaruvchi korxonalarni birlashtiradi.

Atlantika bo'yi korxonalari esa Kanadadan tashib keltiriladigan import xom ashyoga tayanib ishlaydi. (Baltimor, Nyu-York, Filadelfiyaga yaqin korxonalar). AQSHdagi Illinoys, Tennesi, Missuri, Arkanzas metallurgik markazlari mahalliy xom-ashyo resurslariga (boksit konlari) va energetika bazasiga ega.

AQSH alyuminiy sanoati Yamayka, Gvineya va Gayana davlatlaridan tashib keltiriladigan xom-ashyo asosida ishlaydi.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati-AQSH sanoatining eng yirik tarmog'idir. Ayniqsa mashinasozlikning muhim tarmog'i bu milliy avtomobilsozlik sanoat tarmog'idir. «Katta uchlik» deb ataluvchi-«Jeneral Motors», «Ford Motors» va «Kraysler» korporosiyalari AKSH ichki bozori ehtiyojining 75 foizini ta'minlaydi.

Mamlakatning «Jeneral Motors» korxonasida avtomobildan tashqari dizel va samolyot divigatellari, elektronika mahsulotlari ishlab chiqariladi. Korporosiyaga qarashli barcha korxonalarda (AKSH va dunyoning 20 mamlakatida) 750 ming kishi ishlaydi. Ford Motor korporosiyasiga qarashli korxonalarda esa 325 mingdan ortiq kishi ishlaydi.

Avtomobilsozlik sanoati AQShning asosan uch megapolisida joylashgan. Avtomobil zavodlari mamlakatning 26 shtatining 125 shaharida joylashgan. Ayniqsa avtomobillar Ko'lbo'yi megapoliyasida eng ko'p ishlab chiqariladi. Bu yerda mamlakatning bosh «avtomobilsozlik shtati» Michigan va Detroyt shahri joylashgan. Detroyt shahrida ko'plab zavodlar shu jumladan «Jeneral Motors» va «Ford motors» avtomobil konsernlarining qarorgoxi ham joylashgan.

AQShning Kaliforniya shtati markazi Los-Anjelis shahrida aviaraketa va kosmik raketalar ishlab chiqaradigan zavodlar joylashgan. Bu yerda dunyodagi eng yirik havo kemalarini ishlab chiqaradigan «Boing» kompaniyasi joylashgan.

Mamlakatda dastgohsozlik sanoati asosan Ko'lbo'yi va Shimoli-Sharqiy megapolislarda, qishloq xo'jaligi mashinasozligi Ko'lbo'yi, kemasozlik esa Shimoli-Sharqiy megapolisida joylashgan. Elektron va elektrotexnika sanoati va sanoat va maishiy maqsadlarda mahsulotlar ishlab chiqaradi. «Ay-Bi-Em» (IBM) firmasi boshchiligidagi amerika firmalari elektron hisoblash mashinalar jahon bozorini nazorat qilishi bilan birgalikda, AQSH va butun dunyodagi ushbu firmaga qarashli korxonalarda 300 mingdan ortiq kishi ishlaydi. Biroq AKSH maishiy radioelektronika sohasida nafaqat tashqi bozorda balki ichki bozorda ham chet el (ayniqsa yapon firmalari) firmalari bilan raqobat olib bormoqda. Elektron sanoati uchala megapolisida ham rivojlangan.

Ximiya sanoati-AQSH jahon ximiya sanoatida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ham yetakchilik qiladi. Ximiya sanoati mamlakatning shimoliy shtatlarida va Meksika qo'ltig'i qirg'oq bo'ylarida (Texas va Luiziana shtatlarida) joylashgan.

Yengil va oziq-ovqat sanoati-mamlakatning barcha hududlarida joylashgan.

B) Kishloq xo'jaligi

Mamlakatda yer fondining katta qismi $\frac{2}{3}$ xususiy mulkdorlarga, qolgan yerlar davlatga tegishli yerlar hisoblanadi. Xususiy yer egaligining 62 foizini fermer yerlari tashkil etadi. AQShda fermerlarning 60 foizi to'liq yer egalari qolganlari esa qisman mulkdorlar yoki ijarachilar hisoblanadi.

AQSH qishloq xo'jaligi uchun harakterli hususiyatlaridan biri tarmoqda chorvachilik sohasining ulushi yuqori, ya'ni 52 foizni tashkil etadi.

Mamlakatda yaylovzorlar maydoni 266 mln gektar bo'lib, ularning kattaligiga ko'ra AQSH dunyoda Xitoydan keyinda 2-chi o'rinda turadi. Ayniqsa yaylovlar markaziy tekislikning ichki qismlarida va preriyalarida keng maydonni egallaydi. Mamlakatning Ayova shtati yer fondi tarkibida yaylovzorlar 90 foizni tashkil etadi. AQShning g'arbiy tog'li shtatlarida 90 foiz fermerlarning yerlarini yaylovzorlar tashkil etadi.

AQSH donli ekinlar yalpi hosili bo'yicha dunyoda Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu yerda bug'doy va makkajo'xori, sholi, oq jo'xori yetishtiriladi. Bug'doy Kanada chegaralaridan Buyuk tekisliklar bo'ylab Texas shtatining markaziy qismigacha bo'lgan yerlarda ekiladi. Makkajo'xori asosan Ayova, Illinoys, Indiana shtatlaridagi preriyaning unumdor tuproqlarida yetishtiriladi. Ayova shtati makkajo'xori yalpi hosili bo'yicha AKShda birinchi o'rinni egallaydi.

AQShda paxta janubda, shakarqamish Meksika qo'ltig'i va Gavayi orolida, tamaki Virginiya va Kentukki shtatlarida yetishtiriladi.

Buyuk tekisliklar janubiy qismida go'sht qoramolchiligi, mamlakatning janubi-sharqida parrandachilik sohalari rivojlangan.

AKShning bug'doy, makkajo'xori, soya, paxta yetishtiruvchi rayonlarida ixtisoslashgan sut chorvachiligi rivojlantirilgan.

V) Transporti.

AKShda temir yo'llarning umumiy uzunligi 280 ming km bo'lib, bu ko'rsatgich G'arbiy Yevropa regionini barcha temir yo'llar uzunligidan ham uzundur. Biroq AKSH temir yo'llar zichligi bo'yicha G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan orqada qolmoqda.

Mamlakatning asosiy temir yo'llar sistemasini Atlantika okeanidan Tinch okean qirg'oqlarigacha o'tkazilgan transkontinental magistrali tashkil etadi. Mamlakatda Chikago, Nyu-York, Detroyt, Atlanta kabi eng yirik transport tugunlari shakllangan.

AQShning barcha transport tarmoqlari avtomobil transportining xissasi yo'lovchi tashish aylanmasida 88 foizni yuk tashish aylanmasida 24 foizni tashkil etadi. Avtomagistral yo'llar orqali mamlakatning istalgan tomoniga harakatlanishi mumkin.

Suv yo'llarining umumiy uzunligi 54 ming km ni tashkil etadi. AKSH va Kanada iqtisodiy rayonlari o'rtasida katta bo'lib, bu yerda Chikago, Dulu, Buffalo, Detroyt, Klivlend, Tolida kabi yirik portlar qurib ishga tushirilgan.

AKShda xalqaro yuklarni tashishda dengiz transportining ahamiyati yuqori. Mamlakatda 100 ga yaqin yirik portlar bo'lib shulardan 18 tasi 20 mln tonnadan ortiq yuk aylanmasiga ega. AKSH dengizda yuk tashish umumiy hajmi bo'yicha dunyoda

Yaponiyadan keyin 2-chi o'rinda turadi. Mamlakatda bir qancha Nyu-York, Novo'y Orlean, Filadelfiya, Baltimor, Xyuston, Baton-Ruj, Korpus-Kristi, Tinch okean qirg'oqlarida esa San-Fransisko, Sietl, Los-Anjelos kabi yirik portlar ishlab turibdi.

Mamlakat havo transportining xalqaro va ichki yo'lovchi tashishda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatda Nyu-York, Chikago, Los-Anjelos, Atlanta, Dallas, Mayyami kabi yirik aeroportlar ishlab turibdi.

Bundan tashqari AQShda quvur transporti tarmoqlari ham rivojlangan.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

AQSH tashqi savdosida Kanada va Meksika kabi qo'shni mamlakatlarning ahamiyati katta bo'lsa, shu bilan birga, tashqi savdo aylanmasining 40 foizi bosh savdo sheriklari bo'lgan «Uchlik» mamlakatlar Kanada Meksika va Yaponiyaga to'g'ri keladi. Shuningdek mamlakat yevropa mamlakatlari va janubiy-sharqiy Osiyoning yangi sanoatlashgan (Janubiy Koreya, Singapur, Gang Kong, Tayvan) mamlakatlari va Xitoy bilan faol tashqi savdo olib boradi.

Tayanch so'zlar.

- 1) AQSH iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi.
- 2) Tabiiy resurslarining xilma-xilligi va iqtisodiyotni rivojlanti-rishdagi ahamiyati.
- 3) Aholi soni o'sishi, tarkibi, mexanik harakati, mehnat resurslari, urbanizasiya va shahar aglomerasiyalari, megapolislar va ularning shakllanishi.
- 4) Ishlab chiqarishning yiriklashuvi (konsentrasiyasi) transmilliy korporasiyalari.
- 5) AQSH xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlari.
- 6) Sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning intensiv rivojlanishi.

MAVZU: KANADA.

REJA

- 1) Iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni.
- 2) Tabiiy sharoiti va resurslari.
- 3) Aholisi.
- 4) Davlat tuzumi.
- 5) Xo'jaligi.
- A) Sanoati.
- B) Kishloq xo'jaligi.
- V) Transporti.
- 6) Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Maydoni- 9,97 mln. km²

Aholisi- 31 mln. kishi (2003)

Poytaxti- Ottava

1. Iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni.

Kanada Shimoliy Amerika materigining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, uning qirg'oqlarini uch okean Shimoliy Muz, Atlantika va Tinch okean suvlari yuvib turadi. Kanada maydoniga ko'ra Rossiyadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakat janubdan va shimol-g'arbdan AQSH bilan Rossiya va Daniya bilan dengiz suvlari orqali chegaradosh.

Kanadaning AQSH bilan bevosita qo'shnichiligi, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Kanada tabiiy sharoitiga ko'ra, shimoliy hududlarning kattaligiga ko'ra Rossiya Federatsiyasi bilan o'xshashlik tomonlarga ega. Bu yerda iqlimning noqulayligi sababli inson tomonidan kam o'zlashtirilgan va umuman o'zlashtirilmagan ko'pgina hududlar ham bor. Mamlakat shimoldan janubga 5 ming km ga cho'zilgan bo'lib, unda arktika cho'llaridan dashtlargacha bo'lgan ko'plab tabiat zonalari joylashgan.

Kanada relyefi xilma-xil bo'lib, mamlakatning o'rta qismini tekisliklar egallasa, g'arbiy qismida baland Kordilyera tizmalari joylashgan. (Eng baland nuqtasi Logan tog'i balandligi 6045 m). Mamlakatning janubi-sharqiy qismida o'rtacha balandlikdagi, Appalachi tog' tizma-tarmoqlari joylashgan. Kanada hududining deyarli yarmini qadimgi Kanada qalqoni egallaydi va materik qismi hisoblangan-Lavrentiy yassi tog'ligi iqlimi noqulay bo'lgani uchun bu yerlar kam o'zlashtirilgan.

Kanada barcha foydali qazilma turlariga boy. Mamlakat temir rudalari, rangli va qimmatbaho metallar, uran,neft va tabiiy gaz, kaliy tuzi va ko'mirning katta zahiralari ega. Kanadaning Kordilyera tog'larida rangli va nodir metallar, bundan tashqari ko'mir va suv resurslarining katta zahiralari joylashgan. Mamlakatning Lavrentiy yassi tog'ligida turli metall rudalari, suv resurslari ichki tekisliklarda esa ko'mir,neft, tabiiy gaz va kaliy tuzlarining katta zahiralari topilgan. Appalachi rayonda esa rangli va nodir metallar, xromit, asbest, ko'mir va suvresurslarining zaxiralari joylashgan. Mamlakatning Kanada Arktika arxipelagida ham ko'pgina foydali qazilma (neft,tabiiy gaz,temir rudasi,polimetall rudalari, mis nikel,) turlari topiladi. Biroq tabiati qattiq bo'lgan shimoliy rayonida ushbu foydali qazilma turlarini o'zlashtirishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kanada hududining deyarli yarmini o'rmonlar tashkil etadi. YOg'och zaxiralarining ko'pligiga ko'ra Kanada faqat Rossiya va Braziliyadan keyinda turadi.

Mamlakatda ko'p sonli daryo ko'llar bo'lib, bu Buyuk Kanada ko'llar-Katta Ayiq, Katta Qullar, Atabaska, Vinnipeg bundan tashqari Makkenzi, Atabaska, Soskachevan kabi ko'plab daryolarni misol keltirishimiz mumkin.

Kanada qirg'oq bo'yi suvlari baliqlarga boy.

3. Aholisi.

Kanada «ko'chirilgan kapitalizm» mamlakati hisoblanadi. Kanadaning hozirgi aholisi ommaviy immigrasiya ta'sirida shakllangan. Bular Yevropadan va dunyoning boshqa regionlaridan ko'chib kelganlar avlodi bo'lib, Kanada ko'p millatli mamlakatdir. Hozirgi vaqtda mamlakatda 2-ta millat va 80 ga yaqin xalqlar yashaydi.

Kanadada jami aholining 40 foizini kanadalik inglizlar,28 foizini kanadalik fransuzlar, 27 foizini esa boshqa millat vakillari tashkil etadi. Hozirgi vaqtda Kanada tub joy aholisi hindular 780 ming kishi,eskimoslar esa 49 ming kishini tashkil etadi. Mamlakatda hindular 58 tilda so'zlashsada,biroq ularning ko'pchiligi rasmiy davlat tili hisoblangan ingliz tilida so'zlashadi.

Kanada aholisining joylashuviga uning tarixiy mustamlakachilik davri ta'sir ko'rsatgan. Mamlakatda fransuzlar asosan Kvebek va Nyu-Bransuik provinsiyalarda yashaydi, qolgan rayonda Kanadalik inglizlar yashaydi. Kanadada ingliz va fransuz millatlaridan tashqari nemislar, italyanlar, skandinaviyaliklar, polyaklar, ukrainlar va ruslar ham yashaydi. Mamlakatda yashovchi slavyan diniga e'tiqod qiluvchilar tub

joy aholi metislar ko'proq yashaydigan Dasht provinsiyalarida yashaydi. Kanadada hindular janubdagi rezervasiya hududlarida, eskimoslar esa mamlakatning Shimoli-G'arbiy hududlarida yashaydi. Hozirgi vaqtda mamlakatda yashovchi tub joy xalqlari va Kanadalik fransuzlar bilan bog'liq milliy masalalarni hal etish muhim muammoligicha qolmoqda.

Kanada aholisining 90 foizidan ortig'i AQSH chegarasi bo'ylab janubda to'plangan. Mamlakat hududining $\frac{2}{3}$ qismini egallagan shimoliy qismida 20-25 km² yerga bir kishi to'g'ri keladi.

Kanada- yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakat, aholining 77 foizi shaharlarda yashaydi.

Toronta, Monreal, Vankuver kabi shaharlar mamlakatning millioner shaharlari hisoblanadi.

4. Davlat tuzumi.

Dastlabki yevropaliklar (Jon Kabot ekspeditsiyasi) Kanadaga 1497 yilda yetib kelgan edilar. Kanadaga ko'chib kelib,bo'sh yerlarni egallash XVIII asrdan boshlangan, shu davrda tub joy aholi ko'plab qirildi. 1605 yilda inglizlar Kanada hududida o'zlarining dastlabki manzilgohlarini barpo etdilar.

1756-63 yillardagi yetti yillik urush natijasida Kanada Buyuk Britaniya qo'lga o'tdi. 1791 yilda konstitusion akt qabul qilingach, Buyuk Britaniyaning Shimoliy Amerikadagi mustamlaka yer mulklari chegaralari uzil-kesil ramiylashtirildi va belgilab qo'yildi. 1867 yilda Angliya parlamenti qabul qilgan AKTga muvofiq Kanadaga dominion statusi berildi. Markazlashtirilgan davlatni barpo etish XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida nihoyasiga yetkazilib, Monitoba, Britaniya Kolumbiyasi, Shahzoda Eduard Alberi oroli viloyatlari tuzildi. 1931 yilda Angliya hukumati Kanadaning ichki va tashqi siyosatdagi mustaqilligini tan oldi.

Kanada keng huquqlarga ega bo'lgan 10 ta viloyatdan va federal hukumat boshqaruvidagi ikki hududdan iborat federal davlat.

Rasman Buyuk Britaniya qirolichasi va uning vakili bo'lgan general-gubernator davlat boshlig'i hisoblanadi, general-gubernatorni qirolicha Kanada bosh ministrining tavsiyasiga binoan tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni 5 yil muddatga saylab qo'yiladigan jamoalar palatasidan (282 deputat) va regional asosda tayinlanadigan senatdan (104 deputat) iborat parlament amalga oshiradi. Ijroi hokimiyat bosh ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli.

5. Xo'jaligi.

Hozirgi Kanada AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya davlatlari bilan birga «katta yettilik» mamlakatlar guruxiga kirib, xorijiy dunyoning industrial yetakchi mamlakatlaridan biridir. Mamlakatda qisqa tarixiy vaqt davomida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot barpo etildi.

Kanada xorijiy dunyoda nikel, rux, asbest,kaliy tuzlari va gazeta qog'ozlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatdir. Bundan tashqari mamlakat oltin, kumush, uran, molibden, titan, gips, oltingugurt, kobalt, temir rudasi, mis qazib chiqarishda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Kanada qazib oluvchi sanoat mahsulotlari xom-ashyo va yarim fabrikatlarning jami 80 foizini jahon bozoriga chiqaradi. Mamlakat eksportining 70 foizi AKShga to'g'ri keladi.

A) Sanoati.

Energetika- mamlakat yoqilg'i energetika balansida birlamchi energiya manbalari xissasiga neft 35 foiz, tabiiy gaz-37 foiz, ko'mir-13 foiz, gidro-energiya resurslariga 9 foiz, atom energiyasiga 2,4 foiz to'g'ri keladi. Mamlakatning neft va tabiiy gaz qazib oluvchi asosiy rayonlari Britaniya Kolumbiyasi Albert va Soskachevan provinsiyalarida joylashgan. Bu yerda g'arbdan sharqqa qarab transkanada quvirlari o'tkazilgan. Mamlakatda qazib olinayotgan neft va gaz asosan AQShga eksport qilinadi. Biroq Kanadaning sharqiy provinsiyalari neftni chetdan import qiladi. Kanada rivojlangan neftni qayta ishlash sanoatiga ega. Mamlakatning yirik neftni qayta ishlash zavodlari Monreal, Sarnii, Vankuver, Edmonton shaharlarida joylashgan.

Kanadada toshko'mir asosan g'arbiy provinsiyalardan qazib olinadi. Mamlakatda yiliga 75 mln tonnaga yaqin toshko'mir qazib olinadi. Kanadada qazib olinayotgan jami ko'mirlarning yarmi (37 mln tonna) Albert provinsiyasida Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasida 24 mln tonna qazib olinmoqda. Bu yerdan tinch okean portlari orqali ko'mir Yaponiyaga eksport qilinadi. Mamlakatning sharqida ko'mir Yangi Shotlandiya provinsiyasida qazib olinmoqda.

Kanada elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi mamlakatlar guruxiga kiradi. Mamlakatda yiliga 535 mlrd kv\soat elektr energiya ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarilayotgan elektroenergiyaning katta qismi ya'ni 60 foizi Gidroelektro stansiyalar (GES) ga to'g'ri keladi.

Tog'-kon sanoati- mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, qayta ishlash sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda tog'-kon sanoati mamlakat eksport qiymatida 30 foiz ulushni tashkil etadi.

Kanadada yiliga 35 mln tonna temir rudasi, 88 mln tonna kaliy tuzlari, 150 tonna oltin, 1203 tonna kumush, 10,4 tonna uran (Soskachevan provinsiyasining shimolida joylashgan Ki-Leyk koni-dunyodagi uran qazib chiqariladigan yirik kon) qazib chiqariladi. Kanada nikel, rux, asbest, kaliy tuzi qazib chiqarish bo'yicha g'arb mamlakatlari orasida birinchi o'rinda turadi. Mamlakat qo'rg'oshin, mis, kumush, oltin, temir rudasi, tabiiy gaz qazib chiqarish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Ko'pgina qazilma konlar mamlakatning janubida joylashgan. Ontario provinsiyasida Saberi mis, nikel koni, Elliot-Leyk, Blaind-riven, uran koni, kvebek provinsiyasida noronda mis koni, Shefferfild temir ruda koni, Soskacheban provinsiyasida estereyezi kaliy tuz koni, Ki-Leyk uran koni, Manitoba provinsiyasida Tompson nikel konlari joylashgan. Mamlakatning Kanada-Arktika arxipelagida polimetall hamda neft va tabiiy gaz konlari Shimoli g'arbiy hududlarda esa polimetall konlari joylashgan.

Qora metallurgiya-sanoati mahalliy kapital negizida shakllangan. Yiliga 13-15 mln tonna po'lat ishlab chiqariladi. Mamlakatning yirik metallurgik markazlari Atlantika qirg'oqbo'yi va Ko'l bo'yida joylashgan. Yirik metallurgik markazlarga Gamilton, Su- Sent- Mari, Uellend, Sidni kabi markazlarni misol keltirish mumkin.

Rangli metallurgiya-mazkur sanoat tarmog'ining rivojlanishida AQSH va Buyuk Britaniya sarmoyasi mavqei kuchli. So'nggi yillarda mamlakatda rangli metallar ishlab chiqarishda (mis,qo'rg'oshin,nikel, rux) katta yutuqlarga erishildi. Kanada alyuminiy ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda AKShdan keyin ikkinchi, uni eksport qilish bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi. Mamlakat alyuminiy sanoati

mahalliy gidroenergetika resurslari va import asosida tashib keltiriladigan xom-ashyo negizida shakllangan. Kanadada rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha bir qancha yirik korxonalar va markazlar shakllangan.

Mashinasozlik sanoatiga- jami sanoat mahsulot qiymatining va qayta ishlash sanoatida band sanoat ishchi xodimlarining 30 foizi to'g'ri keladi.

Mamlakatda tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan mashinasozlik tarmoqlari ichida transport (avtomobilsozlik, kemasozlik, temir yo'llarining harakatlanuvchi sostavlari) va qishloq xo'jalik mashinasozligi alohida ajralib turadi. Mamlakatda energetika hamda tog'-kon va o'rmon sanoati uchun asbob uskunalar ishlab chiqarish rivojlantirilgan, bo'lib Toronto, Monreal, Gamilton, Ottava, Galifaks, Vankuver kabi mashinasozlikning muhim markazlari shakllangan.

Kimyo sanoati-ushbu sanoat tarmog'i asosiy ximiya, mineral o'g'itlar, polimerlar, platmassalar, sintetik mahsulotlar ishlab chiqaradi. Kanada mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 4-chi o'rinda turadi. Mamlakatda Sarniya, Monreal, Toronto, Niagara-Fols, Kitchener kabi kimyo sanoatining muhim markazlari ishlab turibdi.

O'rmon sellyuloza-qog'oz sanoati- mamlakatning boy o'rmon resurslariga tayanib, so'nggi yillarda tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Mazkur tarmoqda asosiy ishlab chiqarish mamlakatning sharqiy qismida va yirik gidroelektr stansiyalar joylashgan rayonlarda to'plangan. So'nggi yillarda sellyuloza-qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalar mamlakatning g'arbida Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasida, Manitoba provinsiyasining shimolida, Albert, Soskachevan provinsiyalarida ham qurib ishga tushirildi.

Kanada yog'och va qog'oz mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlardir.

B) Kishloq xo'jaligi.

Kanadada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning umumiy maydoni 79 mln gektarni tashkil etadi. Mamlakatning shimolidagi bepoyon hududlarida tovar qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun iqlim sharoitlaridan foydalanish noqulay. Kanada shimoliy hududlarida yashovchi tub aholining asosiy xo'jaligi, o'tmishda bo'lgani singari dengiz ovchiligi, baliqchilik, tundraning kontinental qismida esa bug'u va mo'ynali hayvonlar ovchiligi kabi an'anaviy tarmoqlar tashkil etadi.

Kanadada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida haydaladigan yerlar katta qismini ya'ni 60 foizni egallaydi. Shudgor qilinadigan yerlarning katta qismi 75 foizi janubdagi Dasht provinsiyasida joylashgan.

Mamlakatning bosh qishloq xo'jaligi rayoni Dasht provinsiyasi (Soskachevan, Albert, Manitoba provinsiyalari) va (Ontario, Kvebek) provinsiyalari hisoblanadi. So'nggi yillarda Uzoq G'arbning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi hissasi oshmoqda.

Dasht provinsiyalari don yetishtirishdagi yaylov go'sht qoramolchiligi va qo'ychilikning go'sht-jun mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan. Mamlakatda Saskachevan provinsiyasi asosiy bug'doy yetishtiruvchi provinsiyasi hisoblanadi. (Ushbu provinsiya gerbida-uchta bug'doy boshog'i tasvirlangan). Kanada dunyoda donli ekinlar yalpi hosili bo'yicha beshinchi o'rinda turadi. Bug'doy yetishtirish, ayniqsa uni eksport qilish bo'yicha esa yetakchi mamlakatlar guruxiga kiradi. (Kanada bug'doy eksporti qilish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi).

Ko'lbo'yi rayonida chorvachilikning sut va go'sht yetishtirish yo'nalishi, cho'chqachilik, parrandachilik va dehqonchilikning sabzavotchilik, Niagara rayonida esa mevalilik tarqalgan. Mamlakatdagi eng kichik va aholisi zich, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan Shaxzoda Eduard oroli provinsiyasi o'zining dunyoda eng yirik kartoshkalari bilan mashhur, bu yerda yetishtirilgan sifatli kartoshka urug'lari dunyoning ko'plab mamlakatlariga eksport qilinadi.

Kanadaning Yangi Shotlandiya va Britaniya Kolumbiyasida mevalilik rivojlangan. Ayniqsa olma yetishtirish Yangi Shotlandiya provinsiyasida rivojlangan. Shuningdek bu, yerda Kanada uchun xos uzum yetishtirish va vino ishlab chiqarish, olma, nok, olcha, shaftoli, o'rik yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda baliqchilik rivojlangan.

V) Transport tarmoqlari.

Kanadada transport tarmoqlarining barcha turlari rivojlangan. Biroq transport tarmoqlari mamlakat hududi bo'ylab notekis joylashgan. Mamlakat hududining katta qismida (shimoliy rayonlarda) amalda transport yo'llari qurilmagan.

Kanada temir yo'llarning uzunligi bo'yicha dunyoda AKSH va Rossiyadan keyinda turadi. (Temir yo'llarining umumiy uzunligi 70 ming kmdan ortiq).

Mamlakat avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi bo'yicha faqat AKShdan keyin turadi.

Kanadada quvur transport turi ham rivojlangan. Kuvurtransporti asosan neft va gaz konlari bilan iste'molchi rayonlar oralig'ida qurilgan.

Bubk Amerika ko'llari va SvLavrentiya daryosi bo'ylab dengiz-ko'l transporti katta xo'jalik ahamiyatiga ega. Mamlakatning Tinch okean qirg'og'i bo'yida Vankuver (yuk aylanmasi yiliga 50 mln tonnadan ortiq) va Atlantika sohili bo'yida esa Monreal, Kvebek, Galifaks kabi yirik portlar ishlab turibdi.

Kanada havo yo'llarining uzunligi bo'yicha dunyoda 2-chi o'rinda turadi. Mamlakatda yirik Monreal xalqaro aerporti ishlab turibdi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Kanadaning yirik tashqi savdo sherigi Amerika Ko'shma Shtatlari hisoblanadi Bundan tashqari mamlakat jahonning Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Shveysariya va Rossiya kabi mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni olib boradi.

Tayanch so'zlar:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rnining qulayligi.
2. Tabiiy sharoitning qulayligi, mineral resurslarning xilma-xilligi.
3. Aholi tarkibining murakkabligi.
4. Sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning intensiv rivojlanganligi.

MAVZU: MEKSIKA.
(MEKSIKA QO'SHMA SHTATLARI)
REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Kishloq xo'jaligi.
 - V) Transporti.
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Hududi- 1958201 km²
Aholisi- 104,9 mln. kishi (2003)
Poytaxti- Mexiko

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Meksika Shimoliy Amerika materigining janubiy qismida joylashgan bo'lib, unga Tinch okeanidagi bir qancha orollar va Kaliforniya qo'ltig'i qaraydi. Mamlakat shimoldan AQSH bilan janubda Beliz va Gvatemala bilan chegaradosh. Meksikaning g'arbiy qirg'og'ini Tinch okean, sharqiy qirg'og'ini Meksika qo'ltig'i va Karib dengizi suvlari yuvib turadi.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Meksika tog'li mamlakat: uning hududining yarmidan ko'prog'i 1000 metrdan baland hududlarda joylashgan.

Mamlakat hududining katta qismini G'arbiy Syerra-Madre Vulkanik Syerra Madre va Sharqiy Syerra-madre tog'lari tog' tizmalari bilan o'ralgan Meksika yassi tog'ligi egallaydi.

Mamlakat hududining kattaligi, tog' relyefining keng tarqalganligi xilma-xil tabiiy sharoit va resurslarning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Meksika rux, simob, marganes rudalari, mis, polimetall rudalari kabi 18 turdagi minerallar qazib chiqarish bo'yicha dunyoning yetakchi o'nlik mamlakatlar guruxiga kiradi.

Mamlakatda iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan neft (14 mlrd tonna) va tabiiy gazning (2 trln m³ dan ortiq) yirik zahiralari topilgan. Asosiy neft konlari Meksika qo'ltig'i qirg'oq bo'yida va janubdagi Chyapas va Tabasko shtatlarida joylashgan. 1970 yillarda mamlakatning Kampeche qo'ltig'i rayoni shelyefida va Chekontepik rayonidagi shimoliy quruqlikdan yangi boy neft konlari ishga tushirildi va natijada Meksika neft zahiralari va uni qazib chiqarish bo'yicha dunyoda oldingi o'ringa chiqib oldi.

Mamlakatda asosiy ko'mir zahiralari Koauila va Oaxaka shtatlarida topilgan. Uranning asosiy konlari mamlakatning Chiuaua, Nuevo-Leon, Durango shtatlarida aniqlangan. Temir rudasi esa Durango shtatining Serro-de-Merkado konlaridan va Chiuaua shtatining Laperla konlaridan qazib olinmoqda. Meksika marganes rudalarining zahiralari bo'yicha Lotin Amerikasida Braziliyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Marganes asosan Idalgo shtatining Molango konidan qazib olinmoqda. Bundan tashqari Meksikada kobalt, titan, nikel va simob kabi nodir va rangli metallarning yirik konlari aniqlangan.

3. Aholisi.

Hozirgi mamlakat aholisining katta qismini ispan va xindu millatlarining aralashuvidan kelib chiqqan meksikaliklar tashkil etadi. Bundan tashqari Meksikada 40 dan ortiq xindu qabilalari va xalqlari (aholining 29 foizi) yashaydi. Ulardan eng yiriklari asteklar, mayyalar, otamilar, sapoteklar hisoblanadi. Ilgari mamlakat aholining o'sish sur'ati bo'yicha (3,5 foizi) dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallar edi, so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilgan demografik siyosat natijasida aholining o'sish sur'ati sezilarli kamaydi. Aholining tug'ilish koeffisienti har 1000 kishiga 28 kishi, o'lim koeffisienti 5,5 kishiga to'g'ri keladi. Mamlakatda har bir aholining umri 70 yoshgacha uzaydi, biroq Meksika dunyodagi eng «yosh» mamlakatlardan biri bo'lib qolmoqda (jami aholi tarkibida 15 yoshgacha bo'lgan yoshdagilar-38 foizni tashkil etadi) Iqtisodiy faol aholi jami aholi sonida 35 foizni tashkil etadi.

Mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biri aholi bandligi muammosi hisoblanadi. Har yili millionlab kishilar ish qidirib qonuniy va noqonuniy yo'llar bilan AQSH davlat chegarasini kesib o'tadi. Hozirgi vaqtda kelib chiqishi meksikalik bo'lgan Amerikaliklar AQShda 13 mln kishini tashkil etadi.

Meksika aholisining 74 foizdan ortig'i shaharlarda yashaydi. Mamlakatda 5 ta-Mexiko, Monterrey, Gvadalaxara, Pueblo, Leon kabi millioner shaharlar bor. Birgina poytaxt Mexiko shahar aglomerasiyasida 20 mlndan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Mamlakatda davlat tili ispan tili hisoblanadi. Aholining asosiy qismi katolik diniga e'tiqod qiladi.

4. Davlat tuzumi.

Meksika 300 yil davomida ispaniya mustamlakasi bo'lib keldi. Mamlakat 1821 yilda mustaqillikga erishdi.

Hozirgi vaqtda Meksika federativ respublika. Prezident davlat va hukumat boshlig'i hisoblanadi. Mamlakat ma'muriy-hududiy jihatdan 31 shtat va 1 ta federal okrugdan iborat.

5. Xo'jaligi.

Meksika industrial-agrar mamlakat bo'lib, Lotin Amerikasida iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra yetakchi mamlakatlardan biridir. Meksika yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi bo'yicha faqat Braziliyadan keyinda, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Argentina, Venesuela va Chilidan keyinda turadi.

A) Sanoati.

Energetika sanoati-asosini neft va tabiiy gaz tashkil etadi. Meksika neft zahiralari bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi va dunyoda oltinchi o'rinni egallaydi. Mamlakatdagi qazib chiqarilayotgan neftning yarmidan ortig'i Kampeche qo'ltig'i shelyefidan qazib olinmoqda. Neft sanoatini to'la chet el sarmoyasi asosida hususiy sektor nazorat qiladi. Neft Meksika eksportining $\frac{1}{3}$ qismini tashkil etadi. Qazib chiqarilayotgan neftning asosiy qismi AQShga eksport qilinadi.

Mamlakatning Meksika qo'ltig'i qirg'oqbo'yidagi neft konlari yaqinida va bir qancha shaharlarda (Minatitlan, Salamanka, Tula, Askapolsako, Solina-Krus, Reynosa, Posa-Rika, Syudad-Madero, Kadereyta) neftni qayta ishlash sanoati rivojlanmoqda.

Mamlakatda neft bilan birgalikda tabiiy gaz ham qazib olinadi. Meksika gaz qazib chiqarish bo'yicha Lotin Amerikasi regionida faqat Argentinadan keyinda, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish va uni eksport qilishda birinchi o'rinda turadi.

Meksikada ko'mir Koauila shtatidan qazib olinadi, biroq ko'mirning sifati yuqori emas, shuning uchun mamlakat qora metallurgiya sanoati uchun chetdan import qiladi.

Mamlakatda elektro-energiyaning katta qismi Issiqlik elektr stansiyalarda ishlab chiqariladi. Hidroelektr stansiyalarda (GES) jami elektr energiyasining 20 foizi ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatning mahalliy uran rudasi bazasida Verakrus shahrida AES ishlab turibdi.

Qora va rangli metallurgiya sanoati- xilma-xil xom ashyo bazasiga ega. Mamlakat po'lat qo'yish bo'yicha (9 mln tonnadan ortiq) rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Braziliya va Hindistondan keyin 3-chi o'rinni egallaydi. Yirik metallurgik majmualar Monklavada (Koauila shtatida) Losaro-Kardenas, Las-Truchas (Michoakan shtatida) ishlab turibdi.

Mamlakatning Chiuaua, Santa-Barbara, Idalgo-del-Parral shaharlarida rangli metallurgiya qo'rg'oshin va rux ishlab chiqarish, Kananea, San-Luis-Patosi, Buaymas shaharlarida mis ishlab chiqarish korxonalarini ishlab turibdi.

Mashinasozlik sanoati- asosan neft sanoati uchun asbob uskunalar, temir yo'l vagonlari, avtomobillar va elektrodvigatellar, stanoklar ishlab chiqaradi.

Mamlakatda «Jeneral motors de Mexiko» kompaniyasi Mexiko, Toluca va Santilo shaharlarida avtomobillarni yig'ish, dvigatellar ishlab chiqarish, Syudad Xuarese shahrida ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar joylashgan «Krayler de Mexiko» kompaniyasining federal okrugidagi yuk avtomobillarni yig'ish, Santilo va Monterreydagi dvigatellar ishlab chiqaruvchi korxonalarini ishlab turibdi.

«Ford motor» kompaniyasiga qarashli korxonalar federal okrugda va Kuatitlan va Tlalnepantle shaharlarida joylashgan. «Folksvagen de Mexiko» kompaniyasiga qarashli avtomobillarni yig'ish korxonasi Puebleda, «Nissan» kompaniyasiga qarashli korxonalar Kuernavaks shahrida joylashgan.

Meksika avtomobil sanoati muhim zvenosi eksport mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan TMKning yirik avtomobil filiallariga qarashli «Makiladoras» korxonalarini hisoblanadi. Makiladoras korxonalarini asosan «Ford» va «Jeneral motors» korxonalarini bilan mustahkam iqtisodiy aloqalar o'rnatgan.

Mamlakatda mahalliy xom ashyo bazasida (neft, gaz, oltingugurt, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ximiya, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari rivojlangan.

B) Qishloq xo'jaligi.

Ziroatchilik-qishloq xo'jaligining muhim tarmog'idir. Mamlakatda haydaladigan yerlar 23 mln gektarni, yaylovzorlar esa 74 mln gektarni egallaydi. 6 mln gektar ekin maydonlarida sun'iy sug'orish olib boriladi. Meksikada don va dukkakli ekinlardan makkajo'xori, jo'xori, fasol, bug'doy va sholi yetishtiriladi. Paxta ekini mamlakatning shimolida ekiladi. Shuningdek shakarqamish, murch, pamidor, kofe, tropik sitrus mevalar, mango, papayya, ananas, avakado, bananlar yetishtiriladi. Mamlakatda qishloq xo'jaligining o'ziga xos ekin turi xeneken (uzun to'g'ri poyali och yashil kaktuslar) hisoblanadi. Undan qoplar, kanat iplari, arqon ishlab chiqarishda ishlatiladigan tola ishlab chiqariladi.

Chorvachilik- nisbatan kam rivojlangan (ekstensiv yaylov chorvachiligi). Mamlakatda baliqchilik va dengiz mahsulotlarini eksport qilish muhim ahamiyatga ega. Mamlakat Lotin Amerikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ilmiy- tadqiqot uchun sarflanadigan harajatlar bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Meksika rivojlanayotgan mamlakatlar dunyosida «yashil inqilob»ning vatani hamdir.

V) Transporti.

Mamlakatda avtomobil yo'llari uzunligi 210 ming km bo'lib 46% qattiq qoplamali yo'llardir. Avtomobil yo'llarning asosiy qismi mamlakatning markaziy va shimoliy qismida joylashgan.

Meksika temir yo'llarning umumiy uzunligi bo'yicha Lotin Amerikasida 3-o'rinni egallaydi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 26 ming kmni tashkil etadi.

Mamlakat suv transporti umumiy yuk tonnaji bo'yicha Lotin Amerikasida 3-o'rinni egallaydi. Dengiz portlari soni 30 ga yaqin bo'lib, ular Atlantika va Tinch okean qirg'oqlarida joylashgan.

Meksikada birinchi havo yo'li 1921 yilda ochilgan. Mamlakat havo yo'li Markaziy Amerika, Karib havzasi va Janubiy Amerika mamlakatlarini AQSH bilan bog'lovchi havo yo'llari o'tgan.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Mamlakat tashqi savdosida AQSH bilan iqtisodiy aloqalar rivojlanib bormoqda. Ayniqsa Meksikaning AQSH va Kanada bilan erkin savdo zonasi to'g'risidagi bitimi (NAFTA)ning imzolanishi natijasida mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalar rivojlanib bormoqda. Shuningdek so'nggi yillarda Meksikaning Yevropa Hamkorligi (YEH) va Yaponiya bilan iqtisodiy aloqalar kengayib bormoqda.

Tayanch so'zlar.

Geografik o'rin, aholi tabiiy o'sishi, immigrasiya, tub aholi, murakkab etnik guruhlar, federativ respublika, «tayanch mamlakatlar», «yashil inqilob», sanoat, qishloq xujaligi va transportning nisbatan rivojlanishi.

MAVZU: BRAZILIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI.

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi.
 - A) Sanoati
 - B) Qishloq xo'jaligi
 - V) Transport tarmoqlari
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari

Maydoni-8511965 km²

Aholisi-186,1 mln. kishi (2005 yil)

Poytaxti— Brazilia

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Braziliya-Janubiy Amerikadagi eng yirik davlat, u materikning sharqiy va markaziy qismida joylashgan. Mamlakat shimoldan Fransiya, Gvianasi, Surinam, Gayana, va Venesuela, shimoli-g'arb va g'arbdan Kolumbiya, Peru, Boliviya bilan janubiy g'arb va janubdan Paragvay, Argentina va Urugvay bilan chegaradosh. Braziliyaning quruqlik chegarasi 16 ming kmga cho'zilgan. Sharqda esa mamlakatni 7,4 ming km ga cho'zilgan Atlantika okeani suvlari yuvib turadi.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Mamlakat relyefida shimoliy pasttekislik qismi (Amazonka xavzasi) va janubiy balandlik qismi (Braziliya yassi tog'ligi) o'rtasida katta tafovutlar kuzatiladi.

Mamlakat xududining bepoyonligi va geologik tuzilishining xususiyatlari uning xilma xil foydali qazilmalar bilan ta'minlanishiga zamin yaratgan.

Mamlakat temir rudalari, simob, niobiy, berilliy, apatit, boksit, oltin, marganes va asbest zahiralari bo'yicha dunyoda birinchi yoki oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Shuningdek mamlakat titan, kobalt, volfram, fosforit, uran, magnezit, mis nikel, molibden, xromit olmos, toshko'mir, yonuvchi slanes va boksitning katta zahiralarga ega.

Toshko'mir konlari (zaxirasi 12 mlrd t.) asosan mamlakatning janubiy Riu-Grande-du-Sul, Santa-Katarina, Parana hamda shimolda Amazonka xavzasida joylashgan.

Braziliya temir ruda zaxirasi va uning eksporti bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. Mamlakatning Para shtatidagi Karajas temir ruda koni (Amazoniyada) dunyodagi eng yirik temir ruda koni bo'lib, uning zaxirasi 18 mlrd t. deb baholanmoqda. (ruda tarkibida temir juda yuqori-65 foizni tashkil etadi.) Shuningdek temir rudasi Minas-Jerays shtatidan hamda Boliviya va Paragvay bilan chegaradosh qismidan ham qazib olinadi. Boksitning yirik konlari mamlakat shimolidagi Amazoniyada topilgan.

Amazoniya o'rmonlari-Braziliyaning noyob boyligidir. Mazkur o'rmonlar Yer shari iqlimining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Mamlakat maydonining 60 foizini o'rmonlar egallaydi. Mamlakatning eng yirik Amazonka daryosining uzunligi 6400 km bo'lib, daryo Yer sharidagi eng sersuv daryo hisoblanadi.

3. Aholisi.

Braziliya-ulkan aholi salohiyatiga ega mamlakat. Mamlakat aholisi Lotin Amerikasi jami aholisining taxminan 1\3 qismini tashkil etadi. Braziliya aholisi soni 186 mln kishidan ortiq bo'lib, dunyoda 5-o'rinda turadi.

Braziliya millati murakkab etnik tarkibi bilan ajralib turadi. Jumladan mamlakat aholisi bo'lgan mahalliy aholi indeyeslar bilan afrikalik negrlar va yevropalik muxojirlarning aralashuvi natijasida hosil bo'lgan. Tub joy aholi hisoblangan indeyeslar mamlakat jami aholisining 10 foizini tashkil etib, ular asosan Amazoniyaning ichki rayonlarida yashaydi.

Mamlakat aholisi milliy tarkibi xilma-xil bo'lib, uning tarkibida oq tanlilar 54,7 foiz, negrlar 5,9 foiz, mulatlar, metislar, sambolar va indeyeslar 38,5 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari mamlakatda boshqa millatlar, portugallar, ispanlar, nemislar, ukrainlar va yaponlar ham istiqomat qiladi. Ularning soni 3 mln kishi atrofida.

Mamlakat aholisi hududlar bo'ylab notekis joylashgan bo'lib, aholining o'rtacha zichligi 1 km ga 20 kishi to'g'ri keladi.

Mamlakatda urbanizatsiya jarayoni tez sur'atda o'smoqda. Shahar aholisi hissasi 79 foizni tashkil etadi. Braziliyada San-Pauli, Reo-de-Janeyro, Belu-Orizonti, Salvador, Fortaleza. Resifi kabi shahar aglomerasiyalari shakllangan.

4. Davlat tuzumi.

Braziliyaga portugallar 1500 yilda kirib kelgan. Mamlakat Portugaliyaning 300 yil davomida mustamlakasi bo'lib keldi.

Braziliya 1822 yilda mustaqillikka erishdi. 1888 yilga kelib qullik bekor qilindi. 1889 yilda monarxiya ag'darib tashlandi va respublika e'lon qilindi.

Xozirgi vaqtda Braziliya-federativ respublika. Konstitut siyaga ko'ra davlat, hukumat, Oliy bosh qo'mondon prezident hisoblanadi. Mamlakat ma'muriy xududiy tuzilishiga ko'ra 23 shtat, 3 hudud va Federal okrugdan iborat.

5. Xo'jaligi.

So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlardan ilg'or texnologiyalarning, sarmoya va kreditlarning iqtisodiyotga jalb qilinishi natijasida Braziliya zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini barpo etishda katta yutuqlarga erishildi, shuningdek agrar mamlakatdan industrial mamlakatga aylandi.

Braziliya rivojlanayotgan mamlakat bir qancha tipologik jihatlarga ko'ra «yangi industrial mamlakatlar» (Singapur, Gonkong, Janubiy Koreya va Tayvan bilan birgalikda) guruxiga kiritiladi, lekin Moskva Davlat Universiteti geograf olimlari mamlakatlarni «Tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar» guruhiga kiritadi.

Braziliya uchun sanoat ishlab chiqarishining yuqori hududiy konsentratsiyalashuvi (mujassamlashuvi) xosdir. Jami asosiy sanoat mahsulotlarining 80 foizini mamlakatning janubi-sharqida joylashgan San-Paulu, Rio-de-Janeyro va Minas-Jerays shtatlarida ishlab chiqariladi. Mamlakat temir rudasi, apatit, niobiy konsentratlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi, berilliy qazib chiqarish bo'yicha ikkinchi, boksit, grafit va tantal konsentratlari qazib chiqarishda uchinchi, oltin, asbest va qalayi qazib olishda to'rtinchi o'rinni egallaydi. Mamlakatda yiliga 150 mln tonnadan ortiq temir rudasi qazib olinmoqda, shundan 120 mln tonnasi tashqi bozorga eksport qilinadi.

A) Sanoati

Energetika-mamlakat yoqilg'i-energiya balansida neft, gaz, gidroenergiya toshko'mir, spirtidan foydalaniladi.

XX asrning 80-yillariga kelib, neft konlarini qidirib topish va o'zlashtirish ishlari jadal olib borilishi natijasida mamlakat uni qazib chiqarish bo'yicha Lotin Amerikasida oldingi o'rinlardan biriga chiqib oldi va neft importi keskin qisqardi.

Braziliyada ishlab chiqarilayotgan elektro energiyaning 90-foizi GESlarda ishlab chiqarilmoqda. Parana daryosida yirik gidroelektrostansiya qurilgan.

Mamlakatda atom energetikasi rivojlanmoqda 1977 yilda Reo-de-Janeyro shtatida birinchi AES qurib ishga tushirildi.

Qora metallurgiya sanoati-to'la maxalliy yuqori sifatli temir ruda xom-ashyosiga tayanib ishlaydi, biroq Braziliya kokslanuvchi ko'mirni chetdan tashib keltiradi. Mamlakat po'lat ishlab chiqarishda birinchi o'nlik mamlakatlar guruxiga kirib, ko'pgina g'arbiy Yevropa davlatlaridan o'zib ketdi. Yirik metallurgik zavodlar Minos-Jerays va San-Pauli shtatlarida joylashgan.

Rangli metallurgiya sanoatida-maxalliy boksit asosida alyuminiy ishlab chiqariladi. Mamlakat alyuminiy eksport qiluvchi mamlakatlar qatoriga kiradi.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida-transport mashinasozligi rivojlangan. Mamlakatda yiliga 1,6 mln donadan ortiq avtomobil ishlab chiqarilmoqda. Tarmoq chet el kapitali ta'sirida nazorat qilinadi. («Jeneral Motors», «Folksvagen-du-Brazil», «Ford-Villis», «Kraysler-du-Brazil» va boshqalar). Braziliya dengiz kemalari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 4-chi o'ringa chiqib oldi. Ko'pgina yirik kemasozlik korxonalarini Yaponiya firmalariga qarashli.

So'nggi yillarda mamlakatda samolyotsozlik, stanoksozlik, harbiy sanoat, elektron-hisoblash texnikalari ishlab chiqarish sohalari jadal rivojlanmoqda.

B) Qishloq xo'jaligi.

Braziliya qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning rivojlangan muhim tarmog'i hisoblanadi. (YAIMning 12 foizini tashkil etadi). Mamlakatda faol aholining 30 foizi qishloq xo'jaligida band.

Braziliya kofe, shakarqamish, soya, makkajo'xori, kakao, banan va paxta kabi bir qancha an'anaviy qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakat hisoblanadi, shuningdek yirik qoramolchilik muhim ahamiyatga ega.

Braziliya qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i dehqonchilikdir.

G'o'za va shakarqamish mamlakatning qadimda plantasiya asosida yetishtirib kelinayotgan ekin turi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda shimoli-sharqdagi qirg'oq bo'yi pasttekisliklardagi plantasiyalarda shakarqamish va kakao, Braziliya yassi tog'ligining qurg'oqchil yonbag'irlarida paxta yetishtirilmoqda.

XIX asrda Braziliyada kofe daromadning asosiy manbai va eksport qilinuvchi tovar bo'lib xizmat qilgan. Ushbu ekin turi uchun eng qulay iqlim sharoit va tuproq janubi-sharqda mavjud.

Braziliya chorvachiligining yetakchi soxasi go'sht yo'nalishiga asoslangan chorvachilik hisoblanadi. Mamlakat janubida yaylov qoramolchiligi, qo'ychilik bilan birga yuqori tovar xo'jaligiga asoslangan go'sht qoramolchiligi rivojlantirilgan. Bir qancha chorvachilik mahsulotlari (go'sht, jun, teri va charm) eksport qilinadi.

V) Transport tarmoqlari.

Temir yo'l transporti-tarmoqlari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida shakllangan. O'sha davrlarda temir yo'l magistral yo'llari foydali qazilma konlarini va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rayonlarini dengiz portlari bilan bog'lab turgan. Hozirgi vaqtda temir yo'llar modernizatsiya qilinmoqda va yangi liniyalar yotqizilmoqda.

Kelajakda uzunligi 1000 km bo'lgan Shimol bilan Janubni bir-biri bilan bog'lovchi temir yil qurilishi loyihasi ko'rib chiqilmoqda.

Avtomobil transporti-yo'lovchi tashishda muhim rol o'ynaydi. Braziliya Lotin Amerikasi regionida eng uzun avtomobil yo'l tarmoqlariga ega. Uning uzunligi 1,7 mln kmni tashkil etadi.

Dengiz va daryo transporti-umumiy tonnaji bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi o'rinda turadi.

Dengiz transportida jami tashqi savdo yuklarining 98 foizi tashiladi. Mamlakatda 50 ga yaqin dengiz daryo portlari, shundan 36 tasi chuqur suv yo'lga ega portlar ishlab turibdi.

Havo transporti-Braziliyada 80 dan ortiq yirik aeroportlar va mingga yaqin kichik mahalliy aeroportlar ishlab turibdi. Halqaro maqomga ega bo'lgan aeroportlar soni 5 ta bo'lib, ular dunyoning yirik shaharlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Jahon savdosida Braziliyaning hissasi uncha katta emas (1 foizga yaqin). Mamlakat tashqi savdosida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ulushi 60 foizni tashkil etadi, biroq so'nggi yillarda regiondagi qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalar kengaymoqda.

AQSH, Yaponiya va Yevropa mamlakatlari Braziliyaning asosiy savdo sheriklari hisoblanadi.

Tayanch so'zlar

Qulay geografik o'rin, boy mineral xom ashyo va aholi salohiyati, immigrasiya, tog'-kon va qayta ishlash sanoat tarmoqlari, plantasiya xo'jaligi, tayanch mamlakatlar.

MAVZU: ARGENTINA

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va yoqilg'i mineral resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:

A) Sanoati

B) Qishloq xo'jaligi

V) Transporti

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari

Maydoni-2778417 km²

Aholisi-34,3 mln. kishi (2005 yil)

Poytaxti— Buenos-Ayres.

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Argentina Janubiy Amerika materigining janubi-sharqiy qismida joylashgan. Mamlakat hududining tarkibiga, materik qismidan tashqari Olovli Yer orolining sharqiy qismi va uncha katta bo'lmagan orollar kiradi. Atlantika okeanida joylashgan Folklend (Malvin) oroli Argentina va Buyuk Britaniya o'rtasida janjalli (bahsli) hudud hisoblanadi. Mamlakat sharqda Atlantika okeaniga qulay chiqish imkoniyatiga ega. Qirg'oqlari kam parchalangan, faqat La-Plata estuariysi quruqlikga 320 km kirib borgan. Argentina g'arbda Chili bilan shimolda Boliviya va Paragvay bilan, shimoli-sharqda esa Braziliya va Urugvay bilan chegaradosh.

2. Tabiiy sharoiti va yoqilg'i mineral resurslari

Argentina hududini relyef tuzulishiga ko'ra shimolda va janubda tekisliklar, g'arbda va janubda qir va tog'lar egallagan.

Mamlakatning barcha g'arbiy chegaralari bo'ylab qudratli And tog'lari joylashgan. Olovli Yer oroli relyef shakllarining hosil bo'lishida muzlik ta'sirining ahamiyati katta. Rio Kolarado daryosidan janubda Pataganiya yastanib yotibdi. Patagoniya uchun tik qoyali kan'onlardan iborat zinapoyasimon platoli relyef shakllari xosdir.

Shimoldagi Rio-Solado va janubdagi Rio-Kolarado daryolari oraliq'ida bepayon Pampa dasht joylashgan.

Mamlakatning tog'li rayonlaridan uran, marganes, mis rudasi, berilliy, qo'rg'oshin-rux, volfram va temir rudalarining zahiralari topilgan. Argentina uran rudasining zahirasi bo'yicha dunyoning uchta yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan. Neftning asosiy konlari Patagoniya platformasi botig'i va And tog'lari tog' oraliq botiqlarida, hamda Olovli Yer orolida joylashgan.

Argentinada tabiiy gazning aniqlangan zahirasi 600 mlrd m³ga baholanmoqda. So'nggi yillarda uni qazib olish tez sur'atlarda o'smoqda. Patagoniyada esa qo'ng'ir ko'mirning uncha katta bo'lmagan zahirasi aniqlangan. Bundan tashqari nometall foydali qazilmalardan oltingugurt, marmar va granit zahiralari topilgan.

3. Aholisi.

Argentina aholisi ommaviy yevropa immigrasiyasi ta'sirida shakllangan. Mamlakatning mahalliy aholisi indeyeslar XVI asrda Ispaniya mustamlakasi yurishida deyarli to'la qirib yuborildi.

Argentina millati kreollardan (ispan istilochilari avlodlari), qisman oq tanlilarning mahalliy indeyeslar bilan birlashuvidan va keyinchalik XIX asrda Yevropadan immigrantlarning ko'chib kelishi hisobiga shakllandi. Shuning uchun ham Argentina Lotin Amerikasidagi «oq tanlilar» davlatlari qatoriga kiradi. (Urugvay bilan birgalikda).

Mamlakatda tug'ilish koeffisienti har 1000 kishiga 20 kishi, o'lim koeffisienti esa har 1000 kishiga 9 kishini tashkil etadi. Aholi tabiiy o'sishi Lotin Amerikasi mamlakatlar orasida eng past ko'rsatgichni tashkil etadi. Argentinada urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lib, aholining 86 foizi shaharlarda yashaydi. Mamlakat aholisining $\frac{1}{3}$ qismi poytaxt Bujos-Ayresda yashaydi. Mamlakatda Rosario, Kordova, Mendosa, La-Plata kabi yirik shaharlar bor. Aholining ko'pchilik qismi katolik diniga e'tiqod qiladi.

4. Davlat tuzumi.

Davlat tuzilishi-respublika.

Ma'muriy-hududiy bo'linishi: 22 provinsiya, 1 milliy hudud va poytaxt federal okrugi. 1816 yil 9 iyulda Ispaniyadan mustaqil bo'lib ajrab chiqqan. Davlat va hukumat boshlig'i-prezident. Parlament ikki palatali-yuqori (Milliy kongress) va quyi (Deputatlar palatasi).

5. Xo'jaligi.

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini keng dasturli xususiylashtirish rejasi asosida sog'lomlashtirish, inflyasiyaning oldini olish kabi islohatlar amalga oshirildi. Natijada Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish sezilarli o'sdi. Mamlakat qishloq xo'jaligi salohiyati katta, hozirgacha uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini belgilab beradi. Biroq so'nggi yillarda sanoat salohiyati sezilarli o'sdi.

A) Sanoati.

YOqilg'i-energetika sanoatida-neft XX asrning boshlaridan qazib olish bo'yicha Lotin Amerikasida to'rtincha o'rinni egallaydi. Mamlakatda neftni qayta ishlash sanoatiga qarashli o'ndan ortiq korxonalar ishlab turibdi. 1970 va 1990 yillar davomida tabiiy gazning yirik konlari ishga tushirildi va uni qazib olish o'n marotaba o'sdi. (15 mlrd m³).

So'nggi yillarda issiqlik elektrstansiyalarida elektrenergiya ishlab chiqarish hamda gidroenergetika va atomenergetikasidan fodalanish o'smoqda. Mamlakatda birinchi atoelekt stansiyasi 1974 yilda qurib ishga tushirildi.

Qora metallurgiya sanoati-asosan tashib keltiriladigan xom-ashyoga tayanib ishlaydi. Tarmoqda cho'yan, po'lat ishlab chiqariladi. (yiliga 3 mln tonna atrofida po'lat ishlab chiqariladi).

Rangli metallurgiya sanoatida-rangli metallardan alyuminiy, qo'rg'oshin, rux ishlab chiqariladi.

Mashinasozlik sanoatida-qishloq xo'jaligi mashinasozligi, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun jihozlar, maishiy tovarlar ishlab chiqarishda katta yutuqlarga erishildi.

Avtomobilsozlik sanoati korxonalari faol chet el sarmoyasi yordamida qurilib, asosan Yevropa va Amerika markasidagi yengil mashinalar ishlab chiqarmoqda.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ida 250 turdan ortiq mashinalar ishlab chiqariladi. Argentina qishloq xo'jaligi traktorlari ishlab chiqarish bo'yicha Lotin Amerikasida ikkinchi o'rinni egallaydi.

So'nggi yillarda kemasozlikning rivojlanishi bilan okean, dengiz va daryo transportida yuk tashish hajmi, baliqchilik va sport sohalarida ishlab chiqarish ancha o'sdi.

Bundan tashqari mamlakatda ximiya sanoatining neft ximiya sanoati rivojlanmoqda. Shuningdek biotexnologiya farmasevtika sanoati, texnik moy va oshlovchi moddalarni ishlab chiqarish sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish o'sdi.

Mamlakat agrosanoat majmuining muhim tarmog'i bu go'sht sanoati hisoblanadi. Shuningdek un-yorma, koserva sanoati rivojlangan. Argentina uzumchilik sohasining rivojlanish darajasi va vino ishlab chiqarishi hajmiga ko'ra Fransiya, Italiya, Ispaniya mamlakatlaridan keyin turadi.

B) Qishloq xo'jaligi.

Argentina qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan, qoramol go'shti, jun ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi o'rinni egallaydi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan go'sht, shakar, o'simlik moyi, teri, jun eksport qilinadi. Pampa mamlakatning bosh qishloq xo'jaligi rayoni hisoblanadi. Mamlakatning uchta Bujos-Ayres, Santa-Fe va Kordova provinsiyasiga haydaladigan yerlarning 80 foizi qishloq xo'jaligi mahsulotining $\frac{2}{3}$ qismi to'g'ri keladi. Mazkur rayonda donli ekinlardan bug'doy, makkajo'xori, javdar, so'li, arpa va go'sht yetishtiriladi. Argentinada yiliga 9 mln tonna atrofida bug'doy yetishtiriladi va bug'doy eksport qiluvchi mamlakathamdir. Mamlakatning ichki rayonlarida paxta, shakarqamish, choy, tamaki va meva, uzum yetishtiriladi.

Pataganiya cho'l va chala cho'llar zonasi qo'ychilikka ixtisoslashgan hisoblanadi.

Mamlakat yirik qoramollar bosh soni bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi, qo'ylarning bosh soni va jun ishlab chiqarish bo'yicha faqat Avstraliya va Yangi Zelandiyadan keyinda turadi.

V) Transporti.

Mamlakat ichki yuk tashish hajmida avtomobil yo'llarining uzunligi 200 ming km dan ortiq bo'lib, uning uzunligiga ko'ra mamlakat Lotin Amerikasida Braziliya va Meksikadan keyin uchinchi o'rinda turadi.

Temir yo'llarning 60 foizi birinchi jahon urushigacha $\frac{1}{3}$ qismi esa birinchi va ikkinchi jahon urushi oralig'ida qurib ishga tushirilgan. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 34 ming kmni tashkil etadi.

Mamlakat dengiz savdo flotida tashqi savdo yuklarining 95 foizi tashiladi. Argentina dengiz savdo floti tonnaji bo'yicha regionda faqat Braziliyadan keyinda turadi. Argentinaning yirik 13 ta portlari orasida teng La-Plata estuarisida joylashgan Bujos-Ayres porti yirik portlardan biri hisoblanadi.

Havo transportining Bujos-Ayres, Kordova, Mendosa kabi yirik markazlari ishlab turibdi.

1970-1990 yillarda quvur transportining roli oshdi. (20 ming kmni tashkil etadi).

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Mamlakat tovar eksport tarkibining yarmidan ortig'ini bug'doy, makkajo'xori, go'sht, go'sht konservalari, o'simlik moyi (ayniqsa soya yog'i) teri, jun kabi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari tashkil etadi. Keyingi yillarda og'ir sanoati mahsulotlari mashinasozlik, ximiya, sellyuloza, qog'oz sanoati mahsulotlari Argentina eksporti qiymatining $\frac{1}{3}$ qismini tashkil etmoqda.

Mamlakat importida mashina va jihozlar 20 foizni, ximiya sanoati mahsulotlari 19 foizni, metallar va metall buyumlar 14 foizni, transport vositalari 8 foizni tashkil etadi.

Argentinaning tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha AQSH, Braziliya, Germaniya, Niderlandiya, Yaponiya va Xitoy asosiy sheriklari hisoblanadi. Shuningdek Rossiya bilan ananaviy aloqalar saqlab qolinmoqda. Mamlakat tashqi savdo aylanmasining $\frac{1}{3}$ qismi Lotin Amerikasi mamlakatlariga shuncha qismi Yevropa iqtisodiy hamkorligi (EIX) mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Tayanch so'zlar:

Qulay geografik o'rin, mineral xom ashyo resurslari, tog'-kon va qayta ishlash sanoati tarmoqlari, intensiv tovar qishloq xo'jaligi, Pampa, Patagoniya qishloq xo'jaligi rayonlari

MAVZU: AFRIKA QIT'ASI

REJA

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Siyosiy xaritasi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Kishloq xo'jaligi
 - V) Transporti
6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Maydoni-30,3 mln km²

Aholisi- 885 mln. kishi (2003)

Dunyodagi hech qaysi materik Afrikachalik jaf o chekkan emas. XX asr boshiga kelib butun Afrika mustamlaka materigiga aylandi va bu hol ko'p jihatdan uning qoloq bo'lib qolishini belgiladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachilik tuzumi tugatila bordi. Endilikda materikning siyosiy xaritasida 60 ga yaqin mamlakat bor.

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Afrika hududi shimoldan janubga 8 ming km ga, g'arbdan sharqqa tomon esa eng ko'pi bilan 7,5 ming kmga cho'zilgan. Afrika mamlakatlarning iqtisodiy geografik o'rniga G'arbiy Yevropaga yaqin joylashganligi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Bu Shimoliy Afrika mamlakatlariga taalluqlidir. Shimoliy Afrika mamlakatlari Atlantika okeani, O'rta dengiz va Qizil dengizga tutash Yevropadan Osiyo va Avstraliyaga boradigan muhim dengiz yo'liga yaqin joylashgan. Bu mamlakatlar qadimdan O'rta dengiz orqali Yevropa bilan va Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalari qilib kelgan, bu esa shaharlarning dengiz sohilida paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib kelgan. G'arbiy Afrika mamlakatlarning xo'jalik taraqqiyotiga ularning Atlantika okeaniga sohilida ekanligi qadimdan ta'sir etib keladi. Markaziy Afrikadagi ba'zi bir mamlakatlar (Mali, Niger, Chad) materikning ichki qismida ancha noqulay o'rinda joylashgan. Bu mamlakatlarning tashqi aloqalari qo'shni mamlakatlarning portlari va havo yo'llari orqali amalga oshiriladi. Sharqiy Afrika-mamlakatlari uchun Hind okeani orqali Osiyo bilan tashqi aloqalar qilish xo'jalikning taraqqiyoti va joylashishda muhim omildir.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Hozirgi vaqtda Afrika mamlakatlari dunyoda qazib chiqariladigan *marganes*, *xrom*, *platina* metallarining yarmidan ko'prog'ini, *kabolt* va *oltinning* 3|4 qismidan ko'prog'ini, beradi. Shuningdek, ko'p miqdorda *boksit*, *fosforit*, *temir* va *mis rudalari*, *surma*, *asbest* va boshqa qazilmalar bor. Dunyo bozoriga *boksit*, *mis* va *kobalt* yetkazib berishda Afrikaning roli ayniqsa katta. Materikdagi barcha gidroresurslarning yarmisi Kongo daryosiga to'g'ri keladi. Zambezi, Nil, Niger daryolarning ham gidroresurslari katta. Energetika xomashyosi boshqa turlarning kamligi rivojlanishiga to'sqinlik qilib keldi, yoqilg'ini chetdan keltirishga majbur etdi. Biroq 60- yillarda Shimoliy Afrikada (Jazoir va Liviya) va G'arbiy Afrikada (Nigeriya, Gabon) neft bilan gazning yangi katta zahiralari topildi. Ko'p mamlakatlarda uran topildi. Materikda iqlim sharoiti juda xilma-xil. Vegetasiya davri

yil bo'yi davom etadi, bu esa qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birgalikda cho'l va chalacho'llarning borligi dehqonchilikni rivojlantirishni cheklab qo'yadi, yer fondini qisqartiradi. Yer sharidagi eng katta cho'l- Sahroi-Kabir cho'li Afrika materigining $\frac{1}{4}$ qismini ishig'ol qilgan. Sahroi Kabirdan janubda chalacho'l va chala savannalar (Saxel) zonasida ko'pincha qurg'oqchilik bir necha yil davom etadi, shundan so'ng sharros yomg'irlar yog'ib, tuproqni yuvib ketadi, yo'l va imoratlarni buzib ketadi.

Iqlim sharoitidagi tafovutlar xilma-xil tuproqlar paydo bo'lishiga olib kelgan. Cho'l va chalacho'l rayonlarini istisno qilganda, qit'a tuproqlari umuman unumdor. Biroq sernam ekvatorial o'rmonlarning ferralit tuproqlari osongina yuvilib, nurab ketadi.

Sernam ekvatorial o'rmonlarda qimmatli daraxt turlari (ebendaraxt va boshqalar) ko'p bo'lib, bu daraxt yog'ochlari ba'zi bir mamlakatlar (Kongo, Gabon) ning eksport qiladigan asosiy mollaridan biridir, yog'ochlarga dastlabki ishlov berish esa sanoatning yirik tarmog'i hisoblanadi. Afrikada tabiatdagi ekologik muvozanatning buzilishi munosabati bilan jiddiy muammolar vujudga kelmoqda. Materikdagi barcha mamlakatlarda eroziya jarayonlari rivojlanmoqda.

4. Aholisi-Afrikada aksari ko'p millatli davlatlar joylashgan. Ba'zi mamlakatlarda 200 ga va undan ham ortiq elatlar yashaydi. **Efiopiya** bilan **Nigeriya** bunga misol bo'la oladi. Nigeriya aholisi negroid irqqa mansub bo'lgan dunyodagi eng katta davlatdir. Har bir elat o'z tilida gaplashadi. Shuning uchun ham qit'ada mingdan ortiq til bor. Ko'pgina xalqlar qo'shni davlatlarga bo'linib ketgan; hatto qishloqlar ham bir necha qismga bo'linib ketgan hollar bo'lgan. Bunday ahvol hududlarni mustamlakachilar bo'lib yuborishi orqasida ro'y bergan.

Shimoliy Afrika-aholisi ko'proq arab tilida so'zlashadi, arab tili bu mamlakatlarda davlat tili sifatida qabul qilingan. Semit-xamit til oilasiga, shuningdek, amxara tillari (Efiopeya aholisining katta qismi shu tilda so'zlashadi) va samali tili kiradi. Arablar islom diniga e'tiqod qiladilar.

G'arbiy Afrika-aholisining etnik tarkibi ayniqsa turli-tumandir. Deyarli har bir mamlakatda o'nlab har-xil elat va an'analari, turmush tarziga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrikada bantu oilasiga kiruvchi o'z ona tillarida so'zlashuvchi xalqlar yashaydi. **Bantu** oilasiga kiruvchi tillardan biri-suaxili («**sohilda yashovchilar**» demakdir) o'z yozuviga ega bo'lib mustamlakachilik davridayoq **Tanzaniya, Keniya va Ugandaning** davlat tili deb qabul qilingan. Madagaskar orolida Janubi-Sharqiy Osiyodan ko'chib kelgan aholining ajdodlari-malagasiylar yashaydi. Shuning uchun ularning tili avstroneziya oilasiga kiradi. Tropik Afrikada aholining ko'pchiligi an'anaviy dinlarga e'tiqod qiladi. Har bir qabilaning o'ziga xos dini bor. Afrikada aholining o'rtacha zichligi (**1 kv km²ga 22 kishi**) to'g'ri keladi. Xorijiy Yevropa va Osiyodagiga qaraganda bir necha barovar kam. Saxroi Kabirda dunyodagi aholi umuman yashamaydigan eng katta hududlar joylashgan. Nam tropik o'rmonlarda aholi siyrak. Biroq aholi zich tarqalgan joylar ham bor: ular ayniqsa sohillarda ko'p. Ayrim mamlakatlarda esa aholining tarqalishidagi bunday tafovutlar yanada kattadir.

Masalan: Misrning aholisi deyarli barchasi (55 mln kishi) Nil daryosining deltasi va vodiysidagi hududda yashaydi vaholanki, bu hudud mamlakat jami maydonining atigi 40% ini tashkil etadi. Bu degan so'z-har bir km²ga Nil deltasi va vodiysida

1300-1400 kishi to'g'ri kelsa, cho'l rayonlarda 1 kishidan ham kam miqdor to'g'ri keladi. Afrika urbanizatsiya darajasiga ko'ra boshqa regionlardan ancha keyinda turadi.

4. Siyosiy xaritasi.

Afrika mamlakatlari davlat tuzumiga ko'ra bir-biridan ancha kam farq qiladi: ulardan faqat uchtasida monarxiya tuzumi saqlanib qolgan, qolganlari-respublikalardir.

5. Xo'jaligi.

Afrika mamlakatlari mustaqillikka erishgach, asriy qoloqlikdan chiqib olish uchun harakat qila boshladilar. Tabiiy resurslarni nasionalizatsiya qilish (ya'ni davlat ixtiyoriga o'tkazish), agrar reformani amalga oshirish, iqtisodiyotni rejalashtirish, milliy kadrlarni tayyorlash alohida ahamiyatga egadir. Buning natijasida rivojlanish sur'atlari jadallashdi. Xo'jalikning tarmoqlar va hududiy strukturasi qayta qurish boshlandi. Bu yo'lda tog'-kon sanoatida eng katta muvoffaqiyatlarga erishildi.

Hozirgi kunda ko'plab xil foydali qazilmalarni qazib olishda Afrika dunyoda muhim, ba'zan esa yetakchi o'rinni tutadi.

Umuman olganda, Afrika o'z rivojlanishida hali juda orqadadir. U dunyoning boshqa regionlari orasida industrilashtirish sur'atlari, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi jihatidan oxirgi o'rinda turadi.

A) Qishloq xo'jaligi-Afrikadagi deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotining negizidir. Iqtisodiy faol aholining 2/3 qismidan ko'prog'i qishloq xo'jaligida band, milliy daromadning 40% iga yaqinini qishloq xo'jaligi beradi, regionning eksportida esa qishloq xo'jaligining ulushi 70 %ga yetadi.

Dehqonchilikda-ikki yo'nalish-iste'mol (natural) xo'jalik va eksport (tovar) xo'jaligi ajralib turadi.

Shimoliy Afrikada **sitrus mevalar va zaytun, sabzavot mevalar, alfa o'ti** eksport ahamiyatiga ega. **MAR** va **Sudan paxta eksport** qiladi. Afrikaning bu qismida arpa, makkajo'xori, bug'doy iste'mol qilinadigan asosiy g'alla ekinlaridir. **Saxroi Kabir** vohalarida **xurmo** yetishtiriladi. Xurmo eksport qilinadi. (dunyoda yetishtiriladigan xurmoning 50%i). Bundan tashqari, xurmo dehqonlar xo'jaligida to'la ishlatiladigan o'simliklardan biridir.

G'arbiy, Markaziy va Sharqiy Afrika mamlakatlarida **kakao urug'i, yeryong'oq, moyli palma mevalari, kofe eksport qilinadigan eng muhim** mahsulotlardir. **Kot-d Ivuar, Gana va Nigeriya** dunyoda yetishtiriladigan kakao mevasining hosili jihatidan alohida ajralib turadi. **Nigeriya** va **Zair** palma yong'og'ining mag'zini yetishtirishda va palma moyi ishlab chiqarishda dunyoda birinchi o'rinda turadi. **Tropik Afrikada** banan va kofe daraxti yetishtiriladi. (Ayniqsa, sharqiy sohilda va Gvineya sohillarida) dunyo bozoriga «arabika» navli eng yaxshi kofe va ikkinchi o'rinda turadigan «rubista» kofesi eksport qilinadi.

Chorvachilik-Afrikada ekstensiv harakterga ega: haydab boqiladigan yaylov chorvachiligi, yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvachilik asosiy o'rin tutadi. Chorva mollari zotdor emas, buning ustiga mollarning bir qismi kasalliklarga chalingan. Shimoliy Afrikada qoramollardan ko'pgina ot-ulov o'rnida foydalaniladi.

Afrikaning ko'pgina rayonlarida uy hayvonlarini boqib ko'paytirishga uyqu kasalligini yuqtiradigan sese pashshasi xalaqit beradi. Shuning uchun ham bu yerlarda uyqu kasali yuqmaydigan zebusimon qoramollar boqiladi.

Shimoliy Afrikada (Marokash Sudan) qo'ychilik ustun turadi, cho'l rayonlarida tuya boqiladi. Barcha mamlakatlarda hamma joyda eshak asraladi (dunyodagi eshaklarning 1/4 qismi).

B) Sanoati.- Sanoatining yetakchi tarmoqlari-tog'-kon sanoati, rangdor metallurgiya va yengil sanoat hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishning 1/2 qismi Shimoliy Afrikaga to'g'ri keladi. G'arbiy Afrikada sanoatning rivojlanishi jihatidan Nigeriya ajralib turadi. Markaziy Afrikada Zair, Sharqiy Afrikada Zambiya, Janubda esa Zimbabve birinchi o'rinda turadi.

Shimoliy Afrikada, neftdan tashqari fosforit ham qazib chiqariladi. Liviya, Jazoir, Nigeriyadan neft qazib olinadi. Shuningdek temir, polimetall ruda konlari ham ma'lum.

G'arbiy Afrika xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Bu qazilmalar orasida Liberiya va Mavritaniyadagi temir rudasi, boksit (Gana va Gveniyada), polimetall, oltin, qalayi, temir va marganes rudalari, energetika resurslari- neft, gaz, uran (Niger), gidroenergiya, olmos alohida o'rin tutadi. Bu regionda Nigeriya tog'-kon sanoatining rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Markaziy Afrikada bu tarmoq ayniqsa Zairda (u texnik olmos va kobalt qazib chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi, unda misning boy konlari topilgan). Kongoda polimetall rudalari, Chadda neft, uran va olmos konlari topilgan. Sharqiy Afrikada Zambiya mis qazib olish va eksport qilish jihatidan butun dunyoga mashhur.

Janubiy Afrika xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Ayniqsa Zimbabveda oltin, temir rudasi, xromit, polimetallar, rangli va nodir metallar, toshko'mir, asbest va boshqalar qazib chiqariladi.

Ishlov beruvchi sanoat- so'nggi davrda og'ir sanoat rivojiga asos solindi. Bu tarmoqlar orasida rangdor metallurgiya eng yuksak darajaga yetgan. Bu tarmoqning korxonalari asosan tog'-kon sanoati rayonlarida joylashgan. Bular tozalanmagan mis chiqaradigan zavodlar. (Zair, Zambiya), metall alyuminiy korxonalari (Kamerun, MAR), polimetall rudalarini boyitadigan korxonalar (Kongo va boshqalar)dir.

Qora metallurgiya- ichki bozor uchun ishlaydi. Jazoir, Nigeriyada metallurgiya zavodlari ishlab turibdi.

Mashinasozlik- ba'zi bir mamlakatlardagina bor. Bir necha zavod asosan tayyor detallardan avtomobil, velosped, traktor, qishloq xo'jalik mashinalari yig'adi.

Shimoliy va G'arbiy Afrikaning ba'zi bir davlatlarida ximiya sanoati korxonalari-fosforli va azotli o'g'it zavodlari qurilgan.

Energetika resurslari ko'p ekanligiga qaramay, yoqilg'i-energetika sanoati sust rivojlangan. Elektr energiyasi ishlab chiqarish ayniqsa orqada qolmoqda.

Yengil sanoatning- qadimiy tarmoqlari orasida to'qimachilik sanoati eng yaxshi rivojlangan. Shimoliy Afrikada deyarli barcha mamlakatlar ip-gazlamaga bo'lgan o'z ehtiyojlarini to'la qondiradilar va kalava ip hamda tikuvchilik mahsulotlarini (MAR, Marokash, Tunis) eksport qiladilar.

Oziq-ovqat sanoati- tarmoqlari orasida yog' (zaytun, yeryong'oq va palma moyi) ishlab chiqarish, un tortish, qand-shakar va vino ishlab chiqarish ajralib turadi.

Transport.

Temir yo'l- shahobchalari mustamlaka davrida tarkib topgan, lekin keyingi o'n yillikda milliy iqtisodiyotga xizmat qiladigan bir qancha temir yo'l liniyalari,

masalan: Zambiyaning Tanzaniya orqali Dorrusalom porti bilan bog'laydigan «Tanzam» temir yo'li qurilgan. Saxroi Kabirni kesib o'tadigan temir yo'l magistrali loyixasi bor. Ba'zi bir mamlakatlarda temir yo'l yo'q (Niger, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi).

Avtomobil- yo'llari nisbatan kam. Yaqinda Saxroi Kabir orqali o'tadigan avtomobil trassasi qurildi. Bu yo'l bir qancha davlatlarni bir-biri bilan bog'ladi va ularning portlarga chiqishiga imkon berdi.

Dengiz transporti- aksari tashqi savdoga xizmat qiladi va deyarli butunlay chet el kemalari yordamida amalga oshiriladi. Liberiya dengiz floti tonnaji bo'yicha garchi dunyoda birinchi o'rinda tursa-da, bironta ham kema bu mamlakatning o'ziga qurilgan emas. Uning floti Amerika, Gresiya va boshqa mamlakatlarning kemalaridan iborat. Bunday kemalar uchun Liberiya bayrog'i ostida suzish katta foyda keltiradi. Yuk oboroti jihatidan eng yirik portlar- Iskandariya, Jazoir, Kasablanka, Dakar, Lagos, Mombasa, Dorussalom. Pasajirlar tashishda havo transporti muhim rol o'ynaydi. Jazoir, Liviya, Nigeriyada quvur transporti qurilgan.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Afrika mamlakatlari eksportida sanoat va qishloq xo'jalik xom-ashyo 80%ni tashkil qiladi. Ko'pchilik mamlakatlarda eksport bir-ikki ekin mahsulotlaridan yoki mineral xom ashyoning ayrim turlaridan iborat. Masalan: Kanada eksportning 2|3 qismini kakao urug'i, Senegal va Gambiyada 4|5 qismini yeryong'oq tashkil etadi. Zambiya bilan Zair eksportida mineral xom-ashyo va mis ustun turadi. Import mollari tarkibi o'zgarib turadi. Mashinalar va asbob uskunalar, qurilish materiallari, iste'mol va oziq ovqat mahsulotlari ko'proq chetdan keltiriladi.

Tayanch so'zlar.

Qulay geografik o'rin, xilma-xil tabiiy sharoit, boy mineral xom-ashyo resurslari, murakkab milliy-etnik guruxlar, tabiiy ko'payish, iqtisodiyotning tor darajada (XXR)qishloq xo'jaligi, tog'-kon ixtisoslashuvi.

MAVZU: AVSTRALIYA ITTIFOQI.

REJA:

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Davlat tuzumi.
5. Xo'jaligi:
 - A) Sanoati.
 - B) Kishloq xo'jaligi.
 - V) Transporti.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Hududi- 7682300km²

Aholisi- 19,4 mln. kishi (2003)

Poytaxti- Kanberra

1. Iqtisodiy-siyosiy geografik o'rni.

Avstraliya Ittifoqi dunyoda butun bir materikni- Avstraliyani egallagan yagona mamlakatdir. Bundan tashqari, uning tarkibiga Tasmaniya oroli va bir qancha kichik orollar kiradi. Avstraliyaning boshqa qit'alardan ajralib qolganligi, muhim dengiz yo'llaridan va rivojlangan davlatlardan uzoqda joylashganligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga uzoq vaqt to'sqinlik qilib keldi. Hozirgi zamon dengiz transporti va ayniqsa aviasiyasi uning boshqa qit'alar bilan bo'lgan aloqasini kuchaytirmoqda.

2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Avstraliya tabiiy sharoiti qiyofasining o'ziga xosligi uning hududi asosan tropik mintaqada joylashganligidir. Avstraliya dunyodagi eng tekislik qit'asi hisoblanadi, uning hududining 5 foizini tog'lar egallagan. Mamlakat tabiiy sharoiti asosan quruq iqlimli bo'lib, hududining $\frac{2}{5}$ qismini cho'llar egallaydi. Materikda yer usti suvlari kam bo'lib, dunyodagi hech bir materik bunday oqimsiz oblastga ega emas. (Avstraliya yer yuzasining 60 foizi oqimsiz oblastga kiradi). Mamlakatda yer usti suvlarining taqchilligini birmuncha artezian suvlari hisobiga qondirilmog'da. Gohida bo'lib turadigan qurg'oqchilik, chang-to'zonli, bo'ronlar, o'rmon yong'inlar, falokatli yog'inlari ba'zan mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy zarar keltiradi.

Mamlakat mineral resurslar zahiralarga boy. Bu yerda dunyo boksit zahiralarning $\frac{1}{3}$ qismi joylashgan. Ko'pgina temir ruda, rangli metallar, (polimetall, mis, oltin, uran rudalari), toshko'mir konlari topilgan. So'nggi yillarda neftning (Kvinslend shtatida va dengiz shelyefida) va gazning istiqbolli konlari ishga tushirildi. Avstraliyaning dasht rayonlarida unumdor qizil-qo'ng'ir va jigarrang tuproqlar tarqalgan. Mamlakat hududining 5 foizi o'rmonlar bilan qoplangan.

3. Aholisi.

Immigrasiya mamlakat aholisining etnik tarkibiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Mamlakatda ko'pchilikni Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlar tashkil etganligi sababli aholi etnik jihatdan bir xil: uning 90 foizdan ortig'ini ingliz-avstraliyaliklar tashkil etadi. Yevropaning boshqa mamlakatlaridan ham (shu jumladan Rossiya, Ukrainadan) ko'chib kelganlar yashaydi. Avstraliya tub joy aholisi hisoblangan aborigenlar jami aholining 1 foizdan kamrog'ini tashkil etadi. Ularning umumiy soni 160 ming kishini tashkil etadi. Aborigenlar qurg'oqchil shtatlar (Kvinslend, G'arbiy Avstraliya)da yashaydi.

Mamlakatda aholining o'rtacha zichligi juda past (1 km²ga 2,3 kishi to'g'ri keladi). Aholisi hudud bo'ylab notekis taqsimlangan. Aholining $\frac{9}{10}$ qismi janubi-sharqda to'plangan. Ichki cho'l rayonlarida aholining o'rtacha zichligi 4-5 km²da bir kishidan oshmaydi. Bu rayonlarda aholi punktlari shu qadar siyrakki bolalarni maktabga yig'ib kelishning iloji yo'q: ularni radio orqali o'qitadilar. Mamlakat aholisining 60 foizi faqat 2ta rivojlangan Yangi Janubiy Uels va Viktoriya shtatlarida istiqomat qilishadi. Shuningdek Tasmaniya orolida ham aholi zich o'rnashgan.

Avstraliya dunyoda yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatdir. Mamlakat aholisining 86 foizi shaharlarda yashaydi. Jumladan 5 avstraliyaliklarning har ikkisi Sidney yoki Melburn shaharlarida yashaydi.

4. Davlat tuzumi.

Avstraliyaning kashf etilishi Yevropaliklardan golland dengiz sayyohlari V.Yans (1605y) va A.Tasman (1642y) bo'lgan edilar.1770 yilda. J.Kuk uni ikkinchi marta «ochishi» natijasida Avstraliya Angliya mulkiga aylandi. Dastlab Avstraliya Buyuk Britaniyadan jinoyatchilarni, shuningdek yoqimsiz sosial elementlar-chartistlarni, yerlaridan haydalgan dehqonlar va irland inqilobchilari surgun qilinadigan joy edi. Avstraliyada oltin topilishi XIX asrning 50 yillarida ko'plab kishilarning bu yerga ko'chib kelishga va mamlakatda kapitalistik munosabatlarining rivojlanishiga yordam berdi. 1901 yilda Avstraliyadagi ayrim Angliya mustamlakalari Avstraliya Ittifoqiga birlashdilar.

Avstraliya 1931 yilda tashqi va ichki ishlarni yurguzib metropoliyadan to'la mustaqil ravishda boshqarish huquqini oldi. Urushdan keyingi o'tgan 20 yildan ko'proq vaqt ichida mamlakatda hukumat tepasida eng yirik ikki partiya liberallar va agrar partiyasi hukmron koalision hukumat turdi.

Avstraliya Hamdo'stlik tarkibiga kiruvchi federal davlat. Davlat boshlig'i Buyuk Britaniya qirolichasi, uning nomidan General gubernator ish yuritadi. General gubernator huzurida ijrochi kengash bor. Qonun chiqaruvchi oliy organ senat va vakillar palatasidan iborat federal parlament Ijro etuvchi hokimiyat formal jihatdan general-gubernator boshliq Ijroiya kengashga qaraydi. Amalda esa hokimiyatni bosh ministr boshliq hukumat amalga oshiradi.

5. Xo'jaliga.

Avstraliya ko'pgina iqtisodiy ko'rsatgichlar bo'yicha, shu jumladan aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Uning iqtisodiyotining jadal o'sishiga quyidagi omillar muhim rol o'ynadi. Bular: 1) Tarqoq hududlarning yagona bir mamlakatga birlashuvi. 2) Xorijiy sarmoyaning keng oqimi. 3) Uncha ko'p bo'lmagan aholining katta yer resurslariga egaligi. 4) Mineral xom ashyoga boyligi kabilar shular jumlasidandir.

Avstraliya iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalar katta rol o'ynaydi. Uning katta qismi ya'ni 70 foizi Buyuk Britaniya va AQShga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda Germaniya va Yaponiya sarmoyasi tez o'smoqda.

A) Sanoati.

Tog'-kon sanoati mamlakatning eski xo'jalik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa oltin qazib chiqarish mustamlakachilik davridan tez sur'atda o'sdi. Mamlakat bir qancha mineral resurs (temir rudasi, ko'mir, boksit, simob, sirkoniy)lar qazib chiqarish bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Avstraliyaning janubi-sharqiy qismida tog'-kon sanoatining o'ziga xos poytaxti Broken-Xill shahri joylashgan. Shahar o'zining polimetall va temir ruda sanoati bilan mashhur. Ko'mir mamlakatning Yangi Janubiy Uels va Kvinslend shtatlaridan qazib olinadi.

Mamlakatning Nyukasl va Port-Piri shaharlarida qora va rangli metallurgiyaning asosiy markazlari shakllangan. Mashinasozlik sanoati asosan faqat ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlana boshladi. Mamlakat mashinasozlik sanoati avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, elektropriborlar, radioelektronika buyumlari ishlab chiqarish tarmoqlaridan iborat. Ushbu tarmoq korxonalari Sidney, Melburn, Adelaida, Brisben shaharlari atrofidagi yetakchi sanoat markazlarida joylashgan.

B) Qishloq xo'jaligi.

Avstraliya qishloq xo'jaligi yuqori tovar xo'jaligiga asoslangan ko'p tarmoqli, texnik jihatdan yaxshi qurollangan va yollanma mehnat keng qo'llaniladigan soha hisoblanadi.

Mamlakat jahon bozoriga bug'doy, go'sht, shakar, qo'y junini yetkazib beradi. Avstraliya qo'ylarining bosh soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Avstraliya qo'ychilikka ixtisoslashgan. Butun dunyoda eksport qilinadigan junning yarmi avstraliyaga to'g'ri keladi. Avstraliyada qoramol boqib ko'paytiriladi. Sut fermalari asosan soxillarda joylashgan. Mamlakatda donli ekinlar, ayniqsa bug'doy yetishtirish dehqonchilikning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Bug'doy ko'p miqdorda eksport qilinadi.

V) Transporti.

Mamlakatda barcha yuk aylanmasida dengiz va temir yo'l transporti yuqori bo'lsa, yo'lovchi tashish aylanmasida avtomobil transportining xissasi yuqori. Bundan tashqari havo transporti ham rivojlanmoqda.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Avstraliya tashqi savdosida Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH kabi mamlakatlar yetakchi rol o'ynaydi. Avstraliya yaponiyaga ko'p miqdorda temir rudasi, kokslanuvchi toshko'mir, boksit va jun kabi xom ashyolar yetkazib beradi.

Tayanch so'zlar

Qulay geografik o'rin, tabiiy resurslarning xilma xilligi, aholining tabiiy ko'payishi, immigrasiya, aborigenlar, sanoat va qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishi.

DUNYONING GLOBAL MUAMMOLARI.

REJA:

1. Global muammolar tushunchasi.
2. Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammolari.
3. Ekologik muammosi.
4. Demografik muammosi.
5. Energetika va xom-ashyo muammolari.
6. Oziq-ovqat muammosi.
7. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.
7. Kosmosni tinch maqsadda o'zlashtirish.

Global muammolar tushunchasi.

XX asrning oxirgi o'n yilliklari dunyo xalqlari oldiga ko'plab o'tkir va murakkab muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi, ular global muammolar nomini oldi.

Global muammolar deb, shunday muammolarga aytiladiki, ular ko'lami jihatdan butun dunyo, butun insoniyatni qamrab olib, uning hozirgi va kelajagi uchun havf tug'diradi. Hamda o'zlarining yechimi uchun barcha davlat va xalqlar kuchlarining birlashuvi, birgalikda jiplashib harakat qilishini talab etadi.

Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammolari.

Barcha tarixiy davrlar va bosqichlarda urushlar jamiyat rivojida o'z muxrini (asoratini) qoldiradi. Biroq ilgari qachon butun-butun mamlakatlar va hatto

materiklarning yo'q bo'lib ketish real «imkoniyati» bo'lmagan. Bunday «imkoniyat», ya'ni global havf asrning ikkinchi yarmida yadro qurolni va shu bilan birga raketa texnikasi yaratishi munosabati bilan vujudga keldi. Mana shuning uchun ham tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish, insoniyatning qirilib ketmay, o'zini o'zi saqlab qolishi muammosi haqiqatdan ham hozirgi kunimizning eng birinchi muammosiga aylandi.

Faqat 80-yillar oxiri 90-yillar boshiga kelib, uni haqiqiy yechishga asos solindi. «Sovuq urush» tugatildi. Hozir jahon yadro qirg'ini havfi amalda qolmadi. Biroq ommaviy qirg'in qurollarning regional ziddiyatlar bilan uyg'unlikda tarqalishining hamon davom etishi dunyo uchun yanada katta havf tug'dirmoqda.

Ekologik muammosi.

Yer yuzining bir qancha mamlakat va rayonlarida ekologik tanazzul darajasiga yetdi. Atrof-muhitning faqat ifloslanishidan ko'rilayotgan iqtisodiy zarar ijtimoiy, estetik va boshqa xil zararlarni hisobga olmaganda yiliga ko'plab millon dollarni tashkil etadi. Buning ustiga dunyo miqiyosidagi ekologik xavf vujudga keldi; bu xavf Yer yuzi iqlimining nazorat qilib bo'lmaydigan o'zgarishlari va stratosferadagi ozon qatlamining yemirilishidir.

Hozirgi vaqtda bu muammoni yechish uchun tobora ko'p davlatlar o'z kuch va imkoniyatlarini birlashtirmoqdalar. Xavfning oldini olish bilan birga to'satdan favqulodda ro'y beradigan xavflarni bartaraf qilish bo'yicha ham yordam uyushtiriladi. Bularning barchasi 70-yillar BMT tomonidan olg'a surilgan «Yer faqat bitta-tanhodir» shiorini bajarish demakdir.

Demografiya muammosi-«asr muammolari»dan biri. Bu muammoning o'zaro ziddiyatli ikki jihati bor.

Birinchidan, mavjud demografik krizis tashvishga solmasligi mumkin emas. Chunki u hozirning o'zida bir qator mamlakatlarda aholi ko'payishi muvozanatining buzilishiga, uning tez qarib qolishi va sonining kamayib ketishiga olib keladi. Demograf (aholishunos)lar bu jarayonni depopulyasiya deb ataydilar.

Ikkinchidan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'pchilik mamlakatlarida aholining hamon tez o'sishi tashvish tug'dirmoqda. Buning ustiga aholi tarkibida yoshlarning ulushining juda katta ekanligi sharoitida tabiiy o'sish sur'atlarining tezda pasayishini kutish qiyin. Shunga qaramay, demograf olimlarning qayd qilishicha 60-yillarga to'g'ri kelgan demografik portlash cho'qqisi endi ortda qoldi. Aholi ko'payishining ikkinchi tipiga kiruvchi barcha regionlarda (Afrika bundan mustasno) aholi tug'ilishi va o'sishining kamayishi boshlandi.

Demografik muammoni hal qilish uchun BMT «Aholining tarqalishiga doir butun jahon harakat dasturi»ni qabul qildi. Uni amalga oshirishda birgina demografik siyosatining o'zi yetarli emas. Bu siyosat odamlar hayotining iqtisodiy va sosial sharoitlarini yaxshilash bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim.

Energetika va xom-ashyo muammolari.

Bular avvalo insoniyatni yoqilg'i va xom-ashyo bilan mustahkam ta'minlash muammolaridir. Insoniyatni resurslar bilan ta'minlash muammosi birmuncha keskinlashgan vaqtlar ilgari ham bo'lgan. Biroq bu muammo odatda tabiiy resurslari yetishmaydigan ayrim rayon va mamlakatlarga tegishli bo'lardi. U dunyo miqiyosida aftidan 70-yillarda birinchi marta namoyon bo'ldi va uning bir qancha sabablari bor edi. Ulardan biri-neft, tabiiy gaz va boshqa xil yoqilg'i hamda xom-ashyo turlari

aniqlangan zahiralarning kamligi, tog'-kon ishlari sharoitning yomonlashuvi, qazib olish rayonlari bilan iste'mol rayonlari o'rtasidagi hududiy uzunlikning ortishi, kon qazish ishlarining tabiiy sharoiti nihoyatda og'ir bo'lgan yangi rayonlarga siljishi va shu kabilardir. Binobarin bizning davrimizda mineral resurslardan foydalanish va ularni qayta ishlab chiqarishi ilgarigidan ancha rasional (oqilona) olib borilishi shart.

Oziq-ovqat muammosi.

Insonning normal hayoti va faoliyati uchun zaruriy oziq-ovqat miqdori uning jinsi, yoshi, vazni, bo'yi, qiladigan mehnatining harakteri va sharoiti, turmushi, hududining iqlimiy hususiyatlariga bog'liq. Olimlarning hisoblashicha, iste'mol qilinadigan taomning kaloriyalik medisina normasi sutkasiga 2300-2600 kkal va 70-700g oqsildan kam bo'lmasligi kerak. Biroq BMT ma'lumotlariga ko'ra insoniyatning $\frac{2}{3}$ qismi muttasil ravishda oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmovchiligi seziladigan mamlakatlarda yashaydi. Mana shuning uchun ham oziq-ovqat muammosini global (dunyoviy) muammo deb hisoblash lozim. Bu muammoni yechish uchun insoniyat ziroatchilik, chorvachilik va baliqchilik resurslaridan to'laroq foydalanish kerak, mazkur muammoning yechimi ikki xil bo'lishi mumkin.

Birinchi-ekstensiv yo'l-haydaladigan va yaylov yerlar hamda baliq ovlashda foydalaniladigan yerlarni kelgusida kengaytira borishdan iborat.

Ikkinchi-intensiv yo'l avvalo mavjud yerlarning biologik mahsuldorligini oshirishdan iborat. Bu yo'lni amalga oshirishda biotexnologiya, o'simliklarning yangi, yuqori hosildor navlaridan va tuproqqa ishlov berishning yangi usullaridan foydalanish, mexanizasiya, kimyolashtirish, shuningdek meliorasiyani yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, butun Yer shari aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmini XX asrning oxirgi choragida-2 baravar, XXI asr o'rtalariga borib esa-5 baravar ko'paytirish lozim. Binobarin, intensiv yo'l- insoniyat oziq-ovqat muammosini yechishning bosh yo'lidir.

Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.

Yer yuzining 71%ini egallovchi Dunyo okeani mamlakatlar va xalqlarning aloqasida muhim rol o'ynab kelgan. Fan-texnika taraqqiyoti jadallashgan sari Dunyo okeanini har tomonlama tadqiq etish va o'zlashtirish butunlay boshqacha ko'lam kashf etdi.

Birinchidan, global energetika va xom-ashyo muammolarining o'tkirlashuvi dengiz tog'-kon hamda kimyo sanoatlari va dengiz energetikasining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ikkinchidan, global (dunyoviy) ko'lamdan oziq-ovqat muammolarining o'tkirlashuvi okeanning biologik resurslariga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Vaholangki, hozircha Dunyo okeani insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining atiga 2%ni ta'minlaydi, xolos. Biroq Okeandan hayvon oqsilining 12-15%ini ajratib olinmoqda. Albatta baliq ovlash va dengiz mahsulotlarni olishni tobora ko'paytira borish lozim.

Uchinchidan, xalqaro geografik mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon savdosining tezkorlik bilan o'sishi dengizda yuk tashish ishlari hajmini tobora oshirmoqda. Bu birinchi navbatda ishlab chiqarish va aholini dengiz sari siljishga va shu munosabat bilan bir qancha dengiz bo'yi rayonlarining shiddat bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Dunyo okeani doirasidagi va okean-quruqlik tutashgan zonasidan barcha ishlab chiqarish faoliyati va ilmiy faoliyat natijasida jahon xo'jaligining alohida tarkibiy qismi bo'lishi dengiz xo'jaligi vujudga keldi.

Dunyo okeani global muammosining mohiyati Okean resurslarining nihoyatda notekis o'zlashtirilayotganligi, undan xarbiy faollik maydoni sifatida foydalanilayotganligidan iboratdir. Xuddi mana shuning uchun ham 1982 yil qabul qilingan BMTning dengiz huquqiga doir Konvensiyasi (Bitimi) juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u «Dengiz xartiyasi» nomini olgan. Bu xujjat dengiz sohilidan 200 mil masofadagi iqtisodiy zonani belgilab beradi, bu zonada dengiz bo'yida joylashgan davlat biologik va mineral resurslardan foydalanishda mustaqil (suveren) huquqga ega.

Kosmosning tinch maqsadda o'zlashtirish.

Kosmos-dunyo miqiyosidagi muhit, insoniyatning umumiy mulki (boyligi) hisoblanadi. Kosmik dasturlar ancha murakkablashgan hozirgi vaqtda bu dasturlarni bajarish ko'plab mamlakatlar va xalqlarning texnikaviy, iqtisodiy, aqliy imkoniyatlarini jipslashtirishni talab etadi. Shu sababli kosmosni o'zlashtirish eng muhim xalqaro, global muammolardan biri bo'lib qoldi. Harbiy dasturlardan voz kechishni ko'zda tutuvchi kosmosni tinch maqsadlarda o'zlashtirish dasturi, eng yangi fan va texnika, ishlab chiqarish hamda boshqaruv yutuqlaridan foydalanishga asoslanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qoloqligiga barham berish muammosi.

Hozirgi vaqtda ko'pchilik global muammolarning og'irlik markazi tabora rivojlanayotgan mamlakatlarga siljimoqda. Ularning qoloqlik ko'lami nihoyatda kattadir.

Bu qoloqlikning asosiy ko'rinishi va ayni vaqtda sababi-kambag'allik, qashshoqlikdir. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining 40%i mutloq qashshoq sharoitda yashaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat muammosi eng dramatik hatto fojiali xususiyatga egadir. Ocharchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy qoloqligi va kambag'allik mahsulidir. Bugungi kunda «ocharchilik» geografiyasini avvalo, Afrika va Osiyoning eng qoloq «yashil inqilob» chetlab o'tgan mamlakatalari belgilaydi; bu mamlakatlarda aholining kattagina qismi aynan ochlikdan o'lim chegarasida yashaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat muammosi bilan demografik muammo chambarchas bog'liqdir. Demografik muammo bir tomondan yangi kuchlarning kirib kelishini, mehnat resurslarining o'sishini ta'minlasa, boshqa tomondan, iqtisodiy qoloqlikni yengishda qo'shimcha qiyinchiliklar to'g'iradi, ko'plab sosial masalalarning yechimini mushkullashtiradi, ular erishgan yutuqlarning katta qismini yo'qqa chiqaradi, huddudga bo'lgan «tazyiq»ni kuchaytiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning nochor ahvoli eng katta umuminsoniy, umumjahoniy muammo bo'lib qoldi.

Bu muammoni hal qilishning bosh yo'llari mazkur mamlakatlar hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida tub sosial-iqtisodiy o'zgarishlar o'tkazish, fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va demilitarizasiyani amalga oshirishdan iboratdir.

Tayanch so'zlar:

Tinchlik va quolsizlanishi «sovuq urush» davri, «yangicha tafakkur» davri, Ekologik tanazzul, Ozon tuynugi, Demografik portlash va tanglik, yoqilg'i va mineral resurslar, Intensiv va ekstansiv rivojlanish yo'li, dunyo okeani yoqilg'i mineral va biologik resurslari, Dengiz xo'jaligi, Dengiz xarityasi, Kosmik dasturlar, Global muammoning uzviy aloqadorligi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov, «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» Toshkent «O'zbekiston» 1995 yil.
2. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida», «Xafvsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». Toshkent. «O'zbekiston» 1997 yil.
3. Lipes Yu.G. Geografiya mirovogo xozyaystva. Moskva «Vlados», 1999 g.
4. Sosialno-ekonomicheskaya geografiyu zarubejnogo mira. Pod red. V.V.Volskogo. Moskva Kron-press, 1998 g.
5. Mironenko N.S. Vvedeniye v geografiyu mirovogo xozyaystva. Moskva 1995 g.
6. Baburin V.A, Mazurov YU.L. Geograficheskiye osnovi upravleniya. Moskva 2000 g.
7. Soliyev A, Maxammadaliyev R, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. T, O'zMU. 2005 yil.
8. Naseleniya mira. Demograficheskiy spravochnik. M: Misl, 1989 g.
9. Ergashev A. va boshq. Jaxon mamlakatlari. Toshkent 2006 yil.

MUNDARIJA

1. Germaniya (GFR).....	
2. Fransiya	
3. Italiya	
4. Rossiya Federatsiyasi (R.F.).....	
5. Turkiya.....	
6. Hindiston.....	
7. Yaponiya.....	
8. Xitoy (XHR)	
9. Indoneziya	
10. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH)	
11. Kanada	
12. Meksika	
13. Braziliya.....	
14. Argentina.....	
15. Afrika	
16. Avstraliya Ittifoqi	
17. Dunyoning global muammolari	
18. Foydalanilgan adabiyotlar	

Geografiya kafedrası k.o'qituvchisi g.f.n. X.Abdunazarovniing «Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» fanidan yozgan ma'ruzalar matniga

Taqriz.

Ushbu maruzalar matni geografiya ta'limi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Ma'ruzalar matnida Dunyodagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakat (AQSH, GFR, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Kanada)lari shuningdek boy xom-ashyo mineral resurslar hamda aholi saloxiyatiga ega bo'lgan mamlakatlar (Rossiya, Xitoy, Braziliya, Hindiston, Indoneziya, Meksika, Argentina, Turkiya, Avstraliya, Ittifoqi) iqtisodiy va ijtimoiy tavsifi o'rganilgan. Unga har bir mamlakatlarning joylashgan geografik o'rni, mineral xom-ashyo resurslari, aholisi, davlat tuzumi, shuningdek xo'jalik tarmoqlari, hamda tashqi iqtisodiy aloqalari atroflicha o'rganilgan.

Shuningdek, ma'ruza matnida Afrika qit'asining xaritasi, aholisi, qit'a mamlakatlarining iqtisodiyoti va ularning rivojlanishidagi tafovutilar, Dunyoning global muammolari ularning sabab va oqibatlarini uzviy xolda aloqadorligi batafsil o'rganilgan. Ma'ruzalar matni talablar darajasida yozilgan.

Geografiya kafedrası:

o'qt. X.Niyozov.